



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK 81.2.O‘zb

81.2.Inglizcha

Baymatova Barchinoy Gulmurodovna

**O‘ZBEK TILIDAGI INGLIZCHA
O‘ZLASHMA SO‘ZLARNING MA’NO TARAQQIYOTI**

5A 111201 – o‘zbek tili va adabiyoti

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar:

f.f.n. N.Yuldosheva

Qarshi – 2014

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I bob. O‘zbek tili leksikasida o‘zlashma so‘zlarning tutgan o‘rni	
1. O‘zbek tili leksikasi va unda so‘z o‘zlashish jarayoni.....	7
2. O‘zbek tili leksikasida o‘zlashma so‘zlar	19
I bob bo‘yicha xulosa.....	29
II bob. O‘zbek tilida inglizcha o‘zlashma so‘zlarning ma’no taraqqiyoti	
1. Inglizcha o‘zlashma so‘zlarning semantik tuzilishidagi o‘zgarishlar xususida.....	32
2. O‘zlashma so‘zlarda leksik-semantik munosabatlar.....	40
II bob bo‘yicha xulosa.....	51
III bob. O‘zbek tilida inglizcha o‘zlashma so‘zlar sistemasi	
1. O‘zlashmalarning mavzuviy guruhi	53
2. O‘zlashma so‘zlarning tuzilishiga ko‘ra turlari va leksikografik talqini.....	60
III bob bo‘yicha xulosa.....	71
Xulosa.....	74
Adabiyotlar ro‘yxati.....	76

Kirish

1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Fan hamisha rivojlanish va taraqqiyotda. Bugungi kunda u misli ko‘rilmagan darajada jadal tus oldi. Bunga, bir tomondan, dunyo miqyosidagi globallashuv, fanlararo integratsiyaning kuchayishi, innovatsion texnologiyalar amaliy qiymatining o‘shishi ta’sir qilayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, milliy manfaatlarining kuchayishi, geopolitik siyosat qamrovining kengaya borishi kabi qator omillar jiddiy sabab bo‘lmoqda¹.

O‘zlikni anglashda tilning roli muhimdir. Prezidentimiz I.A.Karimov bu haqda to‘xtala turib, «...ajdodlardan o‘tib kelayotgan ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur. Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank-moliya tizimi kabi o‘ta muhim sohalarda ona tilimizning qo‘llanish doirasini kengaytirish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so‘z bilan aytganda, o‘zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o‘zlikni, Vatan tuyg‘usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz»², - deya ta’kidlagan edilar.

Hozirgi paytda jamiyat taraqqiyoti, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va davlatlararo siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning kengayishi natijasida tillararo so‘z omuxtalashish jarayoni jadallashmoqda. Bunday jarayon o‘zbek tili leksikasiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatib, tilimizning o‘zlashma so‘zlar hisobiga boyishiga sabab bo‘lmoqda.

Tilshunoslarimiz tomonidan leksikologiyani tadqiq etishning lison va nutq farqlanishi asosidagi vazifalari yetarlicha bajarilib, keyingi bosqichi esa o‘zbek tilining sistemaviy (ideografik) lug‘atini yaratishga qaratilgani ta’kidlanadi³. Shunga muvofiq galdagi ishlar o‘zbek tili leksikasidagi o‘zlashma so‘zlarni aniqlab olish, ularni lug‘atlarga olib kirish, leksik guruhlar va mikrosistemalarni tizimli

¹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent:Ma’naviyat, 2008. B. – 83.

²Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch”. - Toshkent:Ma’naviyat, 2008. B. – 87.

³ Hamrayeva Y. O‘zbek tilining o‘quv ideografik lug‘atini yaratish tamoyillari: Filol. fan. nomz....diss. avtoref. – T., 2010. 6-b.

o'rganish, o'rganilgan ishlarni kattaroq guruhlarda birlashtirish kabi vazifalardan iborat bo'ladi.

Mazkur ish o'zbek tili leksikasidagi inglizcha o'zlashma so'zlar va ularning ma'no taraqqiyotini tadqiq etish masalasiga qaratilgan. Buning uchun esa o'zbek tili leksikasida inglizcha o'zlashma so'zlarning tutgan o'rni, ularning ma'no taraqqiyoti, tematik guruhi va leksikografik talqini kabi vazifalarni yoritish mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

2. Tadqiqot obyekti va predmeti. Ishning tadqiq obyekti o'zbek tili leksikasidagi inglizcha o'zlashma so'zlar tashkil qiladi. Material, asosan, eski va yangi nashrdagi "O'zbek tilining izohli lug'ati"¹dan hamda bir necha turdagi lug'atlar va davriy nashrdagi turli gazeta va jurnal matnlaridan to'plandi. Ishga nazariy manba sifatida tilshunosligimizda bajarilgan dissertatsiya, monografiya va ilmiy maqolalardan foydalanildi. O'zbek tilidagi inglizcha o'zlashma so'zlarning ma'no taraqqiyotini o'rganish ishning predmeti sanaladi.

3. Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Mazkur dissertatsiyaning maqsadi o'zbek tili leksikasining o'zlashma so'zlari tarkibidagi inglizcha o'zlashma so'zlarni belgilab olish, ularning ma'no taraqqiyotini o'rganish, ma'noviy guruhini tashkil etuvchi inglizcha o'zlashma so'zlar sistemasining leksik sathdagi o'rni masalasiga oydinlik kiritish, ma'noviy va vazifaviy imkoniyatlari hamda xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, leksikografik izohlarini oydinlashtirish hisoblanadi. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish belgilab olindi:

- o'zbek tili leksikasi va unda so'z o'zlashish jarayonini o'rganish;
- o'zbek tili leksikasida o'zlashma so'zlar tarkibidagi inglizcha o'zlashma so'zlarni belgilab olish;
- o'zlashma so'zlar semantikasida ma'no kengayishi hodisasini aniqlash;
- inglizcha o'zlashma so'zlarning semantik munosabatini yoritish;

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 jildli -M., Русский язык. 1981.; O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli, -T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi; 2006-2008.

- inglizcha o‘zlashma so‘zlarning sinonimik, graduonimik, antonimik, omonimik, poleseantik kabi munosabatlarini aniqlash va bu munosabatlar bilan bog‘langan so‘zlarning sistema ichidagi o‘rnini belgilash;
- o‘zlashmalarning tematik guruhini yoritish;
- o‘zlashma so‘zlarning tuzilishiga ko‘ra turlarini o‘rganish;
- o‘zlashma so‘zlarning leksikografik talqini masalasini yoritish;
- inglizcha o‘zlashma so‘zlarning o‘quv lug‘atlarida berilishi va undagi muammolarga doir tavsiyalar berish.

4. Mavzu bo‘yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. O‘zbek tilshunosligi, xususan, o‘zbek leksikologiyasi sohasida keyingi yillarda bir necha tadqiqotlar bajarilib, jiddiy yutuqlarni qo‘lga kiritdi. O‘zbek tili lug‘at boyligini ilmiy tadqiq etishda Sh.Rahmatullayev, I.Qo‘chqortoyev, S.G‘iyosov, H.Ne‘matov, R.Rasulov, E.Begmatov, H.Jamolxonov, O.Bozorov, B.Jo‘rayev, Sh.Orifjonova, Sh.Iskandarova, B.Mengliyev, R.Safarova, H.Saidova, B.Qilichev, A.Sobirov, G.Ne‘matova, Z.Yunusova, B.Bahriddinova, Sh. Bobojonov kabi tadqiqotchilarning nomi bilan bog‘lash o‘rinlidir¹.

Bir tildan boshqa tilga so‘z o‘zlashish tillarning aralashuvi sifatida yuqori baholanadi. Mashhur tilshunos L.V.Shcherba bunday jarayonni tilshunoslikning muhim muammolari sirasiga kiritadi. Qozon tilshunoslik maktabining namoyandalaridan biri V.A.Bogoroditskiy o‘zbek tilini o‘rganishda boshqa tillarning ta’sirini hisobga olish zarurligi va uning ahamiyatini qayd qiladi. Bir tildan boshqa tilga lisoniy birliklarning o‘zlashish masalalari, tillarning o‘zaro ta’siri bir qator tilshunos olimlarning tadqiqotlarida ham e’tiborli o‘rinda bo‘lgan. Xususan, arab va arab bo‘lmagan boshqa tillardan ot turkumiga xos so‘zlarning o‘zlashishi, bunday sotsiolingvistik jarayonda o‘zga til leksemalarining morfologik qiyofasidagi o‘zgarishlar haqida turli fikrlar bildiriladi.

¹ Rahmatullayev Sh. Semema – mustaqil til birligi // O‘zbek tili va adabiyoti. -1984. -№ 5; Qo‘chqortoyev I. So‘z ma‘nosi va uning valentligi. – T.: Fan, 1997; Ne‘matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1995; Bozorov O. O‘zbek tilida darajalanish: Filol. fan. dokt...dis. – T., 1997; Iskandarova Sh. O‘zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o‘rganish (shaxs mikromaydoni): Filol. fan. dokt....dis. – T., 1999; Mengliyev B. Lisoniy sistema yaxlitligi va unda sathlararo munosabatlar: Filol. fan. dokt....dis. – T., 2002; Orifjonova Sh. O‘zbek tilida lug‘aviy graduonimiya: Filol. fan. nomz....dis. – T., 1996; Qilichev B. O‘zbek tilida partonimiya: Filol. fan. nomz...dis. – T., 1997; Ne‘matova G. O‘zbek tilida o‘simlik nomlari leksemalari: sistemasi va badiiy qo‘llanishi: Filol. fan. nomz...dis. – T., 1998.

O'zbek tilshushosligida professor Sh.Raxmatullayev, F.Abdullayev, I.Qo'chqortoyev, M.Mirtojiyev, A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Berdialiyev, H.Ne'matov, R.Rasulov kabi olimlarning o'zlashma so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari, ularning o'zbek tili lug'at tarkibiga o'zlashish omillari haqidagi fikrlari diqqatga sazovordir.

Lekin o'zbek tilshunosligida bevosita inglizcha o'zlashma so'zlar va ularning ma'no taraqqiyotini ilmiy tadqiq etishga bag'ishlangan jiddiy tadqiqotlar hali yaratilmagan.

5. Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini dialektikaning mohiyat va hodisa, imkoniyat va voqelik, umumiylik va xususiylik, butun va bo'lak, mazmun va shakl munosabatlari kabi falsafiy kategoriyalar bilan uzviy bog'liq bo'lgan lison va nutq hodisalarini izchil farqlash omillari hamda obyektiv borliq va lisoniy belgi munosabatlari tashkil qiladi.

Ishda tadqiq usuli, asosan, lug'at sistemasining sistemaviy tadqiq usuli hisoblanadi, shuningdek, sistem-struktur tilshunoslikning zidlash, komponent(semik) tahlil qilish, qiyoslash, tavsiflash, tasniflash kabi usullaridan ham foydalanildi.

6. Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada qiyosiy-tarixiy, tavsifiy, etimologik kabi usullar qo'llanildi.

7. Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijasida umumlashtirilgan ilmiy-nazariy xulosa va tavsiyalardan, eng avvalo, yangi tipdagi o'zbek tili lug'atlarini mukammallashtirishda, ulardagi tavsif va sharhlarni bir xillashtirish, leksikografik ma'lumotlarni avtomatlashtirish, o'zbek tili tabiatiga muvofiqlashtirishda keng foydalanish mumkin. Dissertatsiya materiallari o'zbek tilining leksik sistemasidagi mikrosistemalarni sistemaviy tadqiq qilishda ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari, undagi materiallar o'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi bo'yicha yaratiladigan darslik va qo'llanmalar, maxsus kurslar uchun qo'shimcha material, shuningdek, o'zbek tilining zamonaviy lug'atlari uchun muhim material va manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Dissertatsiyaning xulosalari va materiallaridan Qarshi davlat universiteti bakalavriat bosqichining talabalariga, magistrilariga ma'ruza hamda amaliy mashg'ulotlar o'tishda bu soha leksikasining materiallaridan manba sifatida foydalanish mumkin.

8. Tadqiqotning ilmiy yangiligi. O'zbek tili leksikasidagi inglizcha o'zlashma so'zlar va ularning ma'no taraqqiyoti tadqiqi natijasida mazkur ishda quyidagilarga erishildi:

- o'zbek tili leksikasi va unda so'z o'zlashish jarayoni o'rganildi;
- o'zbek tili leksikasida o'zlashma so'zlar tarkibidagi inglizcha o'zlashma so'zlar belgilab olindi;
- inglizcha o'zlashma so'zlarning semantik munosabati yoritildi;
- inglizcha o'zlashma so'zlarning sinonimik, antonimik, omonimik, polesemantik kabi munosabatlari aniqlandi va bu munosabatlar bilan bog'langan so'zlarning sistema ichidagi o'rni belgilandi;
- o'zlashmalarning mavzuviy guruhi yoritildi;
- o'zlashma so'zlarning tuzilishiga ko'ra turlari o'rganildi;
- o'zlashma so'zlarning leksikografik talqini masalasi yoritildi;
- inglizcha o'zlashma so'zlarning o'quv lug'atlarida berilishi o'rganildi va undagi muammolarga doir tavsiyalar berildi.

9. Natijalarning joriy va e'lon qilinishi. Tadqiqot natijalaridan izohli, o'zlashma, ikki tilli lug'atlar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar tuzishda, yosh avlod nutq madaniyatini o'stirishda amaliy ahamiyat kasb etishi mumkin.

Ish yuzasidan 2 ta maqola, 3 ta ma'ruza tezlari e'lon qilingan.

10. Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, Temis New Roman shriftining 1,5 intervali 14 kegel kattaligida 86 sahifani tashkil etadi.

I bob. O‘zbek tili leksikasida o‘zlashma so‘zlarning tutgan o‘rni

1. O‘zbek tili leksikasi va so‘z o‘zlashish jarayoni

Insoniyat ong-tafakkuri o‘ssishi, fan-texnika taraqqiyoti, fan yutuqlarining globallashuvi va amaliyotga tez tatbiq etilishi, olamshumul ixtiro va texnologiyalarning ommaga tez va oson yetib borishida tilga bo‘lgan ehtiyoj yanada ortib, tilshunoslar oldiga yangi, istiqbolli va o‘z navbatida murakkab vazifalarni qo‘ymoqda. Bunga til birliklarini paradigmalariga birlashtirish, uni keng planda avtomatlashtirish, tillararo sun‘iy intellektni shakllantirish kabi masalalar kiradi.

O‘zbek tilini nazariy jihatdan o‘rganish darajasi haqida fikr yuritilar ekan, o‘zbek tilshunosligining jahon tilshunosligiga qo‘shgan hissasini taniqli tilshunoslarimizning ijobiy fikrlari orqali bilib olishimiz mumkin¹. Biroq yechimini kutayotgan muammolar ko‘p, hal qilinmagan masalalar yetarli. Bizga falsafiy kategoriya sifatida ma‘lumki, jamiyatda zarur bo‘lgan biror talabning qondirilishi uning bardavomligini ko‘rsatuvchi boshqa ehtiyojga yo‘l ochadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov davlat tili masalasini davlat ramzlari sifatida qarashga o‘z munosabatini bildirib, milliy til va uning milliy mafkuradagi o‘rni masalasiga alohida e‘tibor qaratadi: “Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir. O‘z ruhini yo‘qotgan har qanday millat o‘zligidan judo bo‘lishi muqarrar”².

Hukumatimiz tomonidan ingliz tilining mukammal ko‘rinishda o‘rganilish talab etilar ekan, bu masala xorijiy mutaxassislarni ham Internet ma‘lumotlarida qayd etilishicha, jahon tilshunoslarini hozirgi kunda ko‘proq elektron lug‘atchilik, til va tillarni o‘zaro avtomatlashtirish, wordnet tizimi kabi masalalar qiziqtirib

¹ Ne‘matov H. Substansial tilshunoslik nimalar berdi? Prof. U.Sanaqulov tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlangan ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Sam. 2011. B.24-28;

² “Fidokor” gazetasi muxbiri savollariga javoblar // Karimov. I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – T.: O‘zbekiston, 2000. T. 8. – B. 489-509.

qo‘ygan. Nafaqat tilshunoslar balki boshqa soha vakillari ham ayni paytda standart wordnet tizimi asosida ishlash uchun ehtiyoj sezmoqda. Germaniyaning 2007-yil Tubengen universitetida nashr etilgan “Workshop Proceeding”, ya’ni “Fikr almashinish jarayoni” to‘plamida ham shu muammoga yaqin elektron lug‘atlar masalasi ko‘tarilgan. Unda shu soha bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis Jorj Asmussen va boshqalarning Kopengagen Universiteti Til texnologiyasi markazi va Daniya til va adabiyot instituti o‘rtasidagi hamkorlik proyeksi loyihasi – Dan Net masalasida fikr yuritiladi¹. Maqola to‘qqiz sahifadan iborat bo‘lib, Dan Net: “From dictionary to wordnet” – Daniya korpusi: “Lug‘atlardan wordnetlarga o‘tish” deb nomlanadi. Maqolada Dan Net va wordnet kabi elektron lug‘atlarni tez orada har bir til yo‘nalishida ishlab chiqish zarurligi ta’kidlangan.

Shuni ham alohida aytib o‘tish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasi va “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunning 1-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir”, deya ta’kidlangan.

Ma’lumki, til millatning ma’naviyati va madaniyati bilan bevosita va bilvosita aloqadordir. Dunyo tillari orasida sof tilning o‘zi yo‘q ekan, ma’lum bir tilning tarovati o‘z til so‘zlari hisobiga yashashi bilangina belgilanmaydi. Harakatdagi tillarning ma’lum darajada omuxtalashishi, birining ikkinchisiga ta’sir etib borishi til jarayoni uchun barqaror qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Tilning ma’naviyat va madaniyat tushunchalari bilan uzviy bog‘liqligi nuqtayi nazaridan o‘zlashma so‘z va uning zamirida o‘zlashayotgan ma’lum bir millat urf-odat va an’analariga ham befarq qarab bo‘lmaydi.

Hozirgi o‘zbek tili lug‘at tarkibidagi so‘zlarning paydo bo‘lishi va kelib chiqish manbai turlichadir. Har bir til o‘z lug‘at tarkibi va grammatik qurilishiga ega bo‘ladi. Biroq xalqlar orasidagi ijtimoiy-siyosiy va lisoniy aloqalar ularning tillariga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Bu holat, ayniqsa, tilning lug‘at tarkibida yaqqol seziladi. Barcha tillar singari o‘zbek tilida ham bu hodisa yuz bergan bo‘lib,

¹ Dan Net: From dictionary to wordnet. Jorg Asmussen, Bolette Sandford Pedersen and Lars Trap-Jensen. Workshop Proceeding. Germany. Tubengen. 2007.

buning natijasida tilimizning lugʻat tarkibida oʻziga xos qatlam bilan birga boshqa tillardan oʻzlashgan qatlam ham koʻplab uchraydi.

Oʻzbek tili leksikasi doimiy ravishda oʻz ichki imkoniyatlari va tashqi imkoniyati asosida bosqichma-bosqich takomillashib bormoqda. Tilning leksik qatlami taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita va bilvosita bogʻliqdir.

Oʻzbek tili leksik taraqqiyotini ham jamiyatdagi muhim oʻzgarishlarni hisobga olgan holda maʼlum bir davr bosqichlari asosida oʻrganish mumkin. Turkiy til sifatida yuritilgan oʻzbek tili tarixan Oʻrta Osiyo hududi xalqlari uchun bir necha asr mobaynida fors (fors-tojik) tili bilan bir vaqtda isteʼmolda boʻldi. Uzoq vaqtli muloqot natijasida til omuxtalashishi sezilarli darajada har ikkala til leksik qatlamiga ham taʼsir qildi. Oʻzbek tili leksik qatlamiga yangi soʻzlar, forsiy izofalar, iboralar, hattoki soʻz yasovchi qoʻshimchalar ham kirib keldi. Bunday soʻzlar, avvalo, mavhum, keyinchalik ularning koʻpchiligi oʻz qatlam soʻzlari kabi tilimizga moslashib, ajratib boʻlmas holatda oʻrinlashdi. Natijada oʻzlashma soʻzlar koʻp asrlik nutq jarayonida sinonimik, antonimik, graduonimik, giponimik munosabatlarga kirishib ketdi.

Forscha oʻzlashma soʻzlarni arabcha oʻzlashmalarga qaraganda farqlab olish murakkabroq hisoblanadi. Tilshunos olimlar ularni oʻquv qoʻllanmalarda oʻrganishganda bunday soʻzlarni farqlash belgilarini ham koʻrsatib oʻtishadi. Biroq bu belgilar bu kabi soʻzlarni oʻz qatlam soʻzlaridan farqlab olish uchun yetarli asos boʻla olmaydi.

Taniqli olim M.Olimovning taʼkidlashicha, soʻzlarning forsiyligini, birinchidan, ularning oʻzagi yoki oʻzaklaridan bilib olishimiz mumkin. Masalan: *hafta, puxta, panja, xonanda, raftor, guftor, omad, durbin, xaskash, xokandoz, poyandoz, chorva (asli «chorpo» boʻlgan), bardosh, dono, nodon, gazanda, xaridor, gumroh, dahanaki, dilbar, dutor, kambagʻal, kamyob, murda, moʻysafid, moʻylov («moʻyi lab»), poyabzal, shabnam, dasta, dastshoʻy, serob (seryob), dehkun, diydor, kaptar (kabud par), xoʻrak, yakka, aftoda, rahbar.*

Ikkinchidan, forsiy tillar Hind-Yevropa tillari oilasiga kiradi. Shuning uchun bazi forsiy soʻzlarning forsiy ekanligini oʻzimizga tanish Yevropa tillaridagi

ekvivalentlaridan bilib olishimiz ham mumkin. Masalan (fors-tojikcha – inglizcha – nemischa – ruscha):

Ba'zi forsiy so'zlarning forsiy ekanligini she'riy jarangdorlikka egaligi, bizning tilimizda poetik so'z ekanligidan ham qisman bilib olishimiz mumkin. Faqat buning uchun tilimizda o'sha so'zning turkiy sinonimi bo'lishi kerak.

Boshqa bir qism forsiy so'zlarning forsiyligini izohli lug'atlardan bilib olishimizga to'g'ri keladi. Masalan: *baho, xona, g'isht, dasht, shogird, shirin, mard, kam, chala, arzon, baxt, bozor, bog', gumon, gunoh, dev, devor, durust, dud, iskanja, karvon, ko'shk, lang, latta, lanj, laxta, loy, loyqa, nay, monand, motam, nayza, narx, nihol, non, olov, parhez, soz, pashsha, poda, tashna, sitam, tanho, umid, usta, shahar, fig'on, xira, xirmon, xomush, xursand, xurjun, hunar, goh, qalandar, g'avg'o, hamisha, hamma, hanuz.*

Tilshunos G.Muhammadjonova to'g'ri qayd etganlaridek: «Tarixiy taraqqiyot davomida hatto ba'zi fors-tojik so'zlari qadimiy turkiy so'zlarni umumqo'llanishdan yoki neytral leksika sostavidan siqib chiqargan va ularning ba'zilari hozirgi o'zbek tilida faqat stilistik chegaralangan leksika qatoridan o'rin olgan»¹.

VII-VIII asrda boshlangan arab istilosidan so'ng islom madaniyati ta'siri bilan birga leksikamizga, avvalo, diniy-ma'rifiy tushunchalar, keyinchalik esa keng qamrovli arabcha so'zlar qatlami kirib keldi. Aholining islom diniga katta e'tibor qaratishi, arab tiliga bo'lgan ishtiyoq va qiziqish natijasida xalqimiz orasida arab tili ilm-ma'rifat tili darajasiga ko'tarildi. Natijada arab tili o'z davrida islom madaniyatiga asoslangan xalqlar uchun ilm-fan tili – baynalmilal til vazifasini bajardi.

Leksikamizdagi arabcha so'zlar o'ziga xos shakliy belgilarga ega bo'lib, ularni osonlik bilan boshqa til leksemalaridan farqlash uchun arab tili haqida ma'lum bir nazariy ma'lumotlarni bilish talab etiladi.

¹ O'zbek tili leksikologiyasi (jamoa). – Toshkent, «Fan», 1981. – 12-b.

Biz quyida arabcha soʻzlarning oʻziga xos farqlanish belgilari haqida fikr yuritamiz.

Boshlanishi *ta-*, *ma-*, *mu-*, *muta-*, *ist-* unsurli soʻzlar:

ta-: *tabrik, tashrif, tansiq, taklif, tazmin, tadbir* kabilar;

ma-: *mashriq, magʻrib, maʻmur, masrur, magʻrur, majruh, mazlum, maʻshuq, mahalla, maktub* kabilar;

mu-: *muxlis, muslim, mushfiq, muzmar, muʻnis, muxbir* kabilar;

muta-: *mutafakkir, mutavakkil, mutaxassis, mutasavvuf, mutakabbir, mutanosib* kabilar;

ist-: *istiqlol, istibdod, istisno, isteʻmol, istihola* kabilar;

i-: *ishtiboh, intizom, intiqom, inkishof* kabilar;

isl-: *ikrom, islom, ixlos, insof, ilhom* kabilar;

Tugallanishi *-at* // *-ot*, *-iy* // *-viy* shaklli arabcha oʻzlashmalar:

-at // *-ot*: *hikoyat, nabotat, sadoqat, saodat, sanoat, sabohat, salomat, sayohat* kabilar;

-iy // *-viy*: *moddiy, maʻnaviy, tabiiy, sunʻiy, juzʻiy, sunniy* kabilar.

Bu kabi arabcha soʻzlarni aniqlash qoliplarini koʻplab keltirib oʻtish mumkin.

Arab tilidan oʻzlashtirilgan soʻzlar orasida tarixan yasama boʻlgan adabiy, badiiy, gʻolibiyat, voqeiy, voqean, oilaviy kabi leksemalar ham bor.

Bunday leksemalar bilan birga oʻzlashtirilgan “-iy”, “-viy”, “-an” affikslari oʻzbek tilida soʻz yasovchi affikslar darajasiga koʻtarilgan. Bulardan tashqari, arabcha leksik oʻzlashmalar oʻzbekcha yoki tojikcha soʻzlar bilan maʼno munosabatiga kirishib, oʻzbek tilining sinonimiya qatorlarini boyitgan: oʻrinbosar (oʻzb.)- muovin (a.), guvoh (f-t.) – shohid (a.), aniq (a) – ravshan (soʻHd.) kabi natijada oʻzbek tilida soʻz yasash imkoniyatlari kengaygan. Hozirgi oʻzbek tilida shu affikslar vositasida yasalgan juda koʻp yangi leksemalar mavjud: texnikaviy, fizikaviy, tuban, turkiy kabi.

O'zbek tili leksikasida arabcha o'zlashma so'zlar o'ziga xos tizimga ega. Hozirgi o'zbek tilidagi arabcha o'zlashma so'zlar semantik tuzilishidagi o'zgarishlar tilshunos olim T.Rahmonov tomonidan maxsus tadqiq etilgan¹.

O'zbek tili leksikasidagi arabcha so'zlarning barchasini o'zlashgan desak, xato bo'lmaydi. Chunki arab o'zlashmalarining deyarli barchasi o'zbek adabiy tilining fonetik va grammatik qonuniyatlari ta'siriga beriladi, ayniqsa, ular turlanish sistemasida o'zbek tilining o'z so'zlari bilan teng maqomda ishtirok etadi, zero, ular chin ma'noda o'zlashgan lug'aviy birliklardir.

O'zbek tili leksikasidagi ba'zi o'zlashmalar poetik jihatdan boshqacha qiyofaga kirib, ularning aslida arabcha so'zlar ekanligi unutiladi.

Masalan, yorug'lik, chiroq ma'nolaridagi barq s o'zi (barq urmoq) .

Fe'l yasovchi -i affiksini qabul qilgan va sof o'zbekcha so'zga aylangan. U r—l tarzidagi tovush o'zgarishi bilan (balqimoq) ishlatilganda, uning asli mutlaqo inkor etiladi va yasovchi asosi arabcha ekanligi sezilmaydi.

Masalan, O'zbek tilining izohli lug'atini kuzatganimizda quyidagi arabcha so'zlar barcha sohalarda xuddi umumturkiy so'zlardek ishlatiladi va faqat ularning arabcha so'z ekanligini izohli lug'atdan bilib olishimiz mumkin.

IJRO [a. — joriy bo'lish, amalga oshish] 1 Amalga oshirish (oshirilish), bajarish (bajarilish). *Ijroni tekshirish. mm Sobiq Oliy Kengashimiz tayyorlagan va qabul qilgan 200 ga yaqin qonun va 500 dan ziyod qaror ana shu muqaddas vazifaning sharaflil ijrosi edi. Gazetadan.*

2 Kuy, ashula, raqs va sh.k. ni bajarish (kuylash, o'ynash va sh.k.). «Chorgoh» kuyi maqomchilar ijrosida yangradi.

Ijro varaqasi huq. Sud hukmini majburiy amalga oshirish uchun yozilgan hujjat. *Ijro etmoq* (yoki qilmoq) Bajarmoq. *Maktabning xor jamoasi har bir qo'shiqni zo'r mahorat bilan ijro etdi. Niyoz qushbegi menga yigit qo'shib, bu*

¹ Rahmonov T.P. Hozirgi o'zbek tilidagi arabcha o'zlashma so'zlar semantik tuzilishidagi o'zgarishlar. filol. fan. nomz.... dis. avtoref. -Toshkent, 1994. 24 bet.

hukmnomani ijro qilishda bekka yordam bermak uchun jo'natdi. A. Qodiriy, O'tgan kunlar.

IZZA [a. — azoblash, ranjitish; ozor berish] Uyalish, xijolat hissi; ranj, ozor. *Bu ishning izzasi juda ham o'tdi, G'am savdosi bunda meni horitdi. «Bahrom va Gulandom».*

Izza bo'lmoq (yoki tortmoq, yemoq, chek-moq) Uyat, xijolat hissini tuymoq; uyalmoq, xijolat bo'lmoq. *Oting o'zolmasa, nima qilasan? Bir o'zbekdan izza bo'lib qolasan. «Alpomish». ..undan bunday gap chiqishini kutmagan bo'lsa kerak, qattiq izza tort-di.. A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari. «Yetimdan hol so'rash savob, deb kelibdi-da bular, ayajon!» Kelganiga rosa izza yeb, Bo'lishardi qizlar pushaymon. O. Hojiyeva, Hayotga ta'zim.*

KASAL [a. — dangasalik; dangasa, ishyoqmas] 1 ot Organizm me'yoriy xolatini, faoliyatini buzuvchi narsa; kasallik, dard. *Sil kasali. Rak kasali. Tut-qanoq kasali. Kasalga chalinmoq. Onasi o'zining kasalini ham unutib, uning boshida parvona bo'ldi. O'. Hoshimov, Qalbingga quloq sol. Yosh bo'lganidan kasa-lini o'zi sezmasa kerak. Kasali o'qtin-o'qtin bir ko'rinish berib qo'yadi. Oybek, Tanlangan asarlar.*

2 sft Organizmining me'yoriy holati, faoliyati buzilgan, kasallikka yo'liqqan; betob. *Kasal odam. Kasal mol. Tt. Xotirjam ishlasin, deb kasal onasini birovning qo'li-ga tashlagim kelmadi. S. Zunnunova, Olov. Odam organizmining kasal yoki shikastlan-gan a'zolarini almashtirish uchun sun'iy «ehtiyot qismlar» yaratish g'oyasi yangilik emas. «Fan va turmush».*

3 ot Organizmining me'yoriy holati, faoliyati buzilgan shaxs, kasallikka yo'liqqan shaxs; bemor. *Shokir ota: Ibn Sinoga kasalning joni chiqmagan bo'lsa, bas ekan, tuzatar ekan. Oybek, Tanlangan asarlar.*

4 ot *ko'chma* Narsa yoki uning qismidagi nosog', buzuq holat; nosozlik, illat. *Hamma kasal shundaki, siz xalq kuchiga ishonmaysiz. Sh. Rashidov, Bo'rondan kuchli. U [Erkin] mashinaga bir qarashdayoq kasalini topadi va davosini qiladi. H. G'ulom, Toshkentliklar.*

5 ot *ko'chma* Odatga aylangan ish, xatti-harakat. -*Sa'vani yaxshi ko'rasizmi?* -*Ota-dan qolgan kasal bu, — kulib javob berdi Io'ldoshev. «Yoshlik». Demak, yolg'onchilik ka-saliga muhtalo bo'lgan kishini rostgo'y odamning qoni bilan davolasa bo'ladi. X. To'xtaboyev, Shirin qovunlar mamlakati. Erining to'satdan qaysarlik kasali tutdi. «Tafakkur».*

6 ot *ko'chma* Umuman, biror narsa istagi, shunga ishtiyoq, intilish; dard. *O'zing ayt, agar menga shu kasalingni bir og'iz bildirsang, men qaynatangga xat yozmasmi edim. A. Qodiriy, O'tgan kunlar. Oilada ishning juda ishkali — Xolposhshaning kiyim-kechak kasali. «Mushtum».*

Kasaldan turmoq (yoki bosh ko'tarmoq). Kasaldan forig' bo'lmoq; tuzalmoq. *Kasaldan turgan har qanday odamda bo'ladigan al-lanechuk bir ruhiy yengillik uning ham qalbini quvonchga to'ldirdi. U. Hoshimov, Qalbingga quloq sol. Ular yaqindagina kasaldan bosh ko'targan dardmand kishilarga o'xshardilar. I. Rahim, Chin muhabbat. Cho'ntak (yoki hamyon, kissa) kasal. Cho'ntakda pul yo'q, pul yetarli emas; hamyon quruq. Ammo Buxoroda o'qimog'im uchun hamyonim kasal zdi. M. Muhamadjonov, Turmush urinishlari. Qalandarga borib netaman? Necha kundirki, kissam ka-sal. S. Siyoyev, Yorug'lik.*

MARKAZ [a. — o'rtalik, o'rta yer; holat, mavqe, vaziyat] 1 mat., fiz. Geometrik shaklning o'q chiziqlari kesishadigan, mas, shar sirtining barcha nuqtalaridan baravar uzokdikda bo'lgan nuqta, geometrik yoki fizik nisbatlarning o'rta nuqtasi. Ellips markazi. Linza markazi. Simmetriya markazi. Og'irlik markazi.

2 Biror sath, maydon va sh. k. ning o'rta qismi; o'rtasi. Cho'l markazida qad ko'targan posyolkaga aholi ko'chib kela boshladi. Gazetadan.

3 *ko'chma* Ahamiyati, mohiyati va sh. k. ji-hatdan asos, asosiy hisoblanuvchi joy. qism, o'rin va b. Asar markazida bisotlaridagi yolgiz eshaklarini minib, safarga chiqqan ota va o'g'il obrazlari turadi. «UTA». Go'sht tayyorlash, aholi dasturxoniga go'sht mahsulotlari yetkazib berishdagi qingir ishar markazida go'sht kombinashari turadi. Gazetadan.

4 Aholi yashaydigan joyning ma'muriy binolar, savdo va boshqa muassasalar o'rnashgan asosiy qismi. Shahar markazi. Qishloq markazi. mm Qaysi kuni markazdan kelgan vrach Hanifa xolaning kasali rak ekanini aytgan edi. O'. Hoshimov, Qalbingga quloq sol.

5 Biror faoliyat sohasida asosiy ish olib boriladigan joy. Matbuot markazi. Ilmiy markaz. mm Yaqinda O'zbekiston atom markazining to'ng'ich inshooti — respublika Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutining ilmiy-tadqiqot reaktori ishga tush-di. «Fan va turmush».

6 ayn. poytaxt. Toshkent — Respublika-mizning markazi. mm Uning [Musulmonqulning] istibdodi o'zga shaharlarda uncha sezilmasa ham, markaz — Qo'qon odamlarini juda to'ydirdi. A. Qodiriy, O'tgan kunlar.

7 map. Oliy boshqaruv, rahbarlik orga-ni. Markaz ko'rsatmalariga amal qilmoq. mm «Yopiray, — dedi Mavlon aka o'ziga o'zi, — nahotki Markazdagilar bunaqa ishlarga in-damasa?» H. G'ulom, Mash'al.

8 fiziol. Nerv hujayralarining orga-nizmning biror faoliyatini boshqaruvchi ma'lum guruhi. Harakat markazi. Nafasmar-kazi. Miya po'stlog'i markazlari.

Diqqat markazidagi yoki diqqat markazida turgan Asosiy diqqat-e'tiborni o'ziga tortib turgan. *Yolg'z o'g'lini jangga yo'llash Me'mor xonadonining diqqat markazida edi.* Mirmuhsin, Me'mor.

Lug'aviy o'zlashmalarning o'z tildagi shakli bilan so'z kabul qilgan tildagi shakli orasida turlicha munosabatga kirishish holatlari uchraydi. Bu holatlar ma'no kengayishi, ma'no torayishi, omonimlik, sinonimlik va polisemiya bo'lishi mumkin.

Xususan: a) arab tilida konkret ma'noda ishlatilgan lug'aviy birlik o'zbek tilida mavhum ma'no bildiradi (sohib (ega), ayyom (kunlar), mavj (to'lqin)); b) arab tilida jins ma'nosida ishlatiluvchi so'z o'zbek tilida tur ma'nosida qo'llanadi: murabbo (murabbo, marmelad), ayol (bola-chaka, oila - ayol(xotin), maraz (umuman kasallik, dard)- maraz (yaramas, razil inson); v) arab tilida bir ma'noda ishlatilgan so'z o'zbek tilida polisemantik xarakter kasb etadi (g'alayon); g) arab tilida otdan o'zlashgan ba'zi so'zlar o'zbek

tilida uslubiy muqobiliga ega bo'lmaydi (anhor, araq ariza, aruz); d) arab tilida noarxaik tavsifdagi lug'aviy birlik o'zbek tilida arxaiklashgan bo'ladi; (qozi, firqa, ishtirokiga, xikmat (fizika); o) arab tilida lug'aviy mustaqillikka ega bo'lgan so'z o'zbek tilida lug'aviy mustaqilligini inkor etadi (almisoq(dan qolgan), daqyonus(-dan qolgan); 6) arab tilida atama maqomidagi lug'aviy birlik o'zbek tilida so'z tavsifida bo'ladi (lisoniy, lug'aviy, sifat, fe'l); k) arab tilida so'z holida ishlatiluvchi birlik o'zbek tilida so'z birikmasi tarkibida qo'llanadi (nazar solmoq, afv etmoq, xayol surmoq, bahridan o'tmoq).

XIX-XX asrlarda jamiyat hayotida boshlangan tarixiy o'zgarishlar tilda ham o'z aksini topa boshladi. Bu davr so'zlarning o'zlashish va so'zlarning iste'moldan chiqib ketish jarayonining tezlashgan davri bo'ldi. XX asrda maktablar tashkil etilishi, ommaviy savod chiqarish, gazeta va jurnallarning chop etilishi bu jarayonni yanada tezlashtirib yubordi. Bu davrning muhim xususiyati shundaki, tilimizga nafaqat ruscha so'zlar, balki ko'plab inglizcha, xitoycha, fransuzcha, ispancha so'zlar rus tili orqali kirib kelgan bo'lsa, leksikamizdagi ko'p miqdordagi forsha-arabcha so'zlar nafaqat so'zlarga aylandi yoki iste'moldan chiqib ketdi.

XX asr o'zbek tilshunosligi uchun yuksalish asri bo'ldi. Ona tili darsliklarining yaratilishi, tilshunoslik nazariyasi bo'yicha tadqiqotlar olib borilishi, ilmiy jurnallarning nashr etila boshlashi, ilmiy maqolalar, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarining yuzaga kelishi, filologik va ensiklopedik lug'atlarning chop etilishi o'zbek tilshunoslari tomonidan yaratilgan ulkan meros sanaladi.

O'tgan yuz yil ichida jamiyat taraqqiyoti tezlashdi. Insonlar ongi, ularning dunyoqarashi ham shunga muvofiq soddalikdan murakkablikka qarab o'zgardi. Shuningdek, insonlarning kundalik iste'moldagi so'zlari ham nutqiy rivojlanishda bo'ldi, ko'p ma'nolilik kasb etdi. Shunga muvofiq zamonaviy lug'atlarga bo'lgan ehtiyoj ham kuchaydi.

XX asr boshlarida o'zbek tilining fan sifatida o'qitila boshlashi, maktablarda grammatikaning o'qitilishi o'zbek adabiy tili normasining shakllanishiga sabab bo'lgan edi. O'zbek leksikografiyasi shu davrda ham nazariy,

ham amaliy ko‘rinishda – yana qayta yangi bir fan sifatida shakllandi. XX asrda o‘zbek lug‘atchiligi rivojiga A.Zohiriy, A.Qodiriy, Y.D.Polivanov, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, S.Ibrohimov, Olim Usmon, Z.Ma‘rufov, Sh.T.Rahmatullayev, N.Mamatov, A.Hojiyev, T.Aliqulov va boshqalar munosib hissa qo‘shdilar¹.

Ma‘lumki, sobiq ittifoq tuzumining ayrim salbiy jihatlari keyinchalik jamiyatimiz taraqqiyotida ham o‘zining salbiy oqibatlarini ko‘rsata boshladi. Aytish mumkinki, millat ma‘naviyatini g‘orat qilish maqsadida yuritilgan siyosat sarhadlarining bir rishtasi milliy lug‘atchilik rivojining to‘sib qo‘yilishi ham sabab bo‘ldi. Turli xalq marosimlarining yo‘q qilinishi, Navro‘z bayrami, Ro‘za hayiti, Qurbon hayiti kabi udum, an‘ana va marosimlarining cheklab qo‘yilishi lug‘atlarni xalq milliy madaniyatidan uzib qo‘yilishiga sabab bo‘ldi.

O‘tgan asr tilshunosligimiz borasida qilingan ishlar rus tilshunosligi bilan bevosita bog‘liq. Birgina tilshunoslikning leksikografiya sohasi kuzatiladigan bo‘lsa, mavjud lug‘atlarning deyarli ko‘pchiligi rus tili lug‘atlari andazasi asosida yaratildi. Yaratilgan lug‘atlar – ilm-fan taraqqiyoti, bu – ijobiy hol. Biroq bu lug‘atlarning ayrimlarini tilimizning ontologik xususiyati, milliy xalq madaniyati asosida qayta ishlab chiqish zarur masala bo‘lib qolmoqda.

O‘tgan asrning 80-yillariga kelib o‘zbek lug‘atchiligi borasidagi ishlar susaydi, ilm-fan yangiliklari, leksikografiya sohasidagi nazariy ishlar amaliyotga tatbiq etilmadi, zamonaviy yangi lug‘at turlari yaratilmadi, tilda mavjud lug‘atlar mukammallashtirilib qayta ishlanmadi, jahon leksikografiyasi yutuqlariga tayanib ish tutish, yig‘ilgan tajribalarni amaliyotga tatbiq etish ishlari amalga oshirilmadi. Natijada o‘zbek lug‘atchiligi rus lug‘atchiligi va jahon lug‘atchiligidan orqaga qolib ketdi. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, leksikografiyadagi keyingi davr o‘zgarishlari to‘xtab, bu sohada keskin o‘zgarishlar shu davrdan so‘ng kuchli sezilmadi.

Lug‘at tuzish ishi mashaqqatli, og‘ir, ko‘p yillik mehnat talab etadigan soha bo‘lganligi bilan bir qatorda tez o‘zgaruvchan, hozirgi taraqqiyot tezlashgan

¹ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. –T., O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 5-tom. 249-bet.

jarayonda har o'n yillikda yangilanishi zarur bo'lgan til fanining bir bo'limi bo'lib qoldi. O'z davri so'zlarini aks ettira oladigan har qanday lug'at ma'lum vaqtdan so'ng zamon talablariga javob bera olmay qoladi. Bu borada G'arbiy Germaniyalik tilshunos Koseriu shunday degan edi: "Lug'at rivojlanib ketayotgan leksikani quvib yeta olmaydi, shunday ekan, "zamonaviy" so'zini lug'atga nisbatan qanday qo'llash mumkin,"¹. Koseriu keyingi nashrdan chiqadigan lug'atlardan "zamonaviy" so'zini olib tashlashni taklif etdi. Uning asosiga ko'ra, tilning rivojlanish jarayoni texnika, ishlab chiqarish yoki adabiyotning rivojlanish jarayonidan farq qiladi. Yangi so'zlar til qonuniyatiga muvofiq eskilariga tayanadi. Yangi va eski so'zlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud. Lekin shunday bog'liqlik texnikada bo'lmasligi mumkin².

Hozirga qadar tilimizda chop etilgan lug'atlar ko'zdan kechirilar ekan, ularning ko'pchiligi shu borada yaratiladigan lug'atlarga namuna tusini olib qolgan. Tilimizda o'z davrida bo'lsa ham mukammal yaratilgan lug'atlar soni kamchilikni tashkil etgan.

Bugungi kunda filologik lug'atlarning ko'pgina turlari yaratilgan. Biroq ularni mukammallashtirish, zamon ruhiga mos ravishda yangilash lozim. Masalan, o'zbek tilining imlo lug'atini olaylik. 1929- yildan hozirgacha o'zbek tilining turli hajmli 20 dan ortiq imlo lug'ati tuzilgan. Biroq ulardan mutaxassislar talabani qondirishi mumkin deb hisoblangan birgina 65 000 so'z va so'z shaklini qamrab olgan eng mukammal imlo lug'ati³ ham bugungi kunda o'z ahamiyatini qisman yo'qotdi deyish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan 1995- yil 24- avgustda tasdiqlangan O'zbek tilining imlo qoidalari orfografik me'yorlarga o'zgartirishlar kiritdi. Shundan buyon hanuz ba'zi so'zlarning to'g'ri yozilishi haqida hattoki mutaxassislar orasida ham tortishuvlar bo'lib turibdi. Masalan, syujet – sujet, byudjet – budjet, sentyabr – sentabr kabi.

¹ Coseriu E. Das Phänomen der Sprache. Sonderdruck aus Heft 1/2 der Pädagogischen Provinsz. Berlin, 1967. S.9.

² Будагов Р.А. Толковые словари в национальной культуре народов. МГУ, 1989. С. 13.

³ Ibrohimov S., Begmatov E., Ahmedov A. O'zbek tilining imlo lug'ati. –T., Fan. 1976. (65 000 dan ortiq so'z) Sh.Shoabdurahmonov tahriri ostida. 632 bet.

Bularga chek qo'yish maqsadida tilimizdagi barcha so'zlarning yozilishini muayyanlashtirish maqsadida 2013-yil A.Madvaliyev, E.Begmatovlar tomonidan nashrga tayyorlangan, soha mutaxassisleri va omma talabini qondirishi mumkin bo'lgan, 85 000 dan ortiq so'zni qamrab olgan "O'zbek tilining imlo lug'ati" (-T., Akademnashr, 2013) shu kunning muhim yangiliklaridan biri hisoblanadi.

Yangi ko'p jildli O'zbek tilining izohli lug'ati 1981- yil yaratilgan ikki jildli lug'at¹ning to'ldirilgan, yoki qandaydir o'zgartirishlar bilan qayta ishlangan nashri emas, balki leksikografiyaning yangi yutuqlarini hisobga olgan holda yaratilgan mutlaqo yangi lug'atdir². Yangi lug'atda so'zshakllar izohlanishi leksikografiyaning yangi yutuqlariga tayangan holda aks etgan. Ularga misol tariqasida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

a) bir umumiy lug'aviy ma'noga ega bo'lgan so'z shakllaridan asosiysini berish, qolganlarini esa, ma'noda muayyan siljish, o'zgarish bo'lmagan hollarda bermaslik;

b) avvalgi lug'atda "eskirgan", "diniy", kabi belgilar ostida berilgan (yoki umuman berilmagan) tarixiy, etnografik, diniy terminlarga yangicha yondashuv;

c) o'zbekcha va umumturkiy leksikadan boshqa (arabcha, forsha, baynalmilal, ruscha va b. tillarga mansub) so'z va terminlarga mumkin qadar to'liq etimologik ma'lumot berish kabilar yangi lug'atning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatadi³.

Tilimizda o'zbek tilining sinonimlar lug'ati, sinonimlarning izohli lug'ati allaqachon yaratilgan⁴. Biroq ulardan ko'plab so'zlarning sinonimik qatorini, ma'nodoshlarning uslubiy farqlanishini topib kuzatish imkoni yo'q. Shuningdek, hozirda barcha tilshunoslar tomonidan sinonimik qatordan farqli o'laroq graduonimik qator farq qilishi barcha mutaxassislar tomonidan tan olingan⁵. Bu

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 jildli -M., Русский язык. 1981.

² O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli, -T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi; 2006-2008.

³ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. -T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.12-jild. 65-bet.

⁴ Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati, 1974.

⁵ Bazarov O. O'zbek tilida darajalanish: Filol. fan. dokt. dis. ... avtoref. - T., 1997. - 51 b.; Orifjonova Sh. O'zbek tilida leksik graduonimiya: Filol. fan. nomz. diss. ... avtoref. - T., 1996. -27 b.

lugʻatning izohsiz namunasi Sh.Bobojonov va I.Islomovlar tomonidan yaratildi¹. Shunga muvofiq oʻzbek tilining tom maʼnodagi sinonimlar lugʻatini mukammal tartibda yaratish, kengaytirish, shuningdek, til tizimidagi darajalangan soʻzlarni izohli tartibda batafsil ishlab chiqish kun tartibidagi masala sifatida koʻtariladi. Xullas, shu kabi filologik lugʻatlar muammolari 80-yillar lugʻatchiligi davridan buyon yigʻilib qolgan, desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Maʼlumki, tilshunosligimizning XX asrdan buyon boʻlgan tarixiy taraqqiyoti jarayonida til hodisalarini qiyoslab oʻrganish, kerakli oʻrinlarda andaza olish rus tilshunosligi nazariyasi asosida olib borildi. Hozirgi davr lugʻatchiligini esa faqat shu holat bilangina chegaralab boʻlmaydi. Bugungi kunda sanoati rivojlangan (kapitalistik) mamlakatlar orasida elektron lugʻatchilik va tilni avtomatlashtirish ishlari boshqa mamlakatlarga qaraganda ancha taraqqiy etgan. Bu masala kun tartibiga qoʻyilar ekan, wordnet, elektron lugʻatchilik sohasida koʻproq AQSH, Angliya, Germaniya, Fransiya, mamlakatlari hamda Rossiya lugʻatchilik tajribalari asosida ham ish koʻrish lozim boʻladi.

Tilni avtomatlashtirishning yana bir afzallik xususiyati shundaki, kishilarning maʼlum bir ish yuritish jarayonida til hodisalariga ehtiyoj sezganda imlo, talaffuz, maʼnodosh soʻzlar, maʼnodosh soʻzlardan uslubiy normaga mos soʻzni tanlab berish kabi mukammal muharrir, musahhih vazifalarini bajarib berishi koʻzda tutilgan. Kompyuter tili bilan aytganda, uzer (foydalanuvchi)ning davlat tilida ish yuritish uchun oʻnlab lugʻatlarning oʻzi bilan birga olib yurishiga zarurat qolmaydi. Bu dasturlarning koʻpchiligi yuqorida taʼkidlab oʻtilgan davlat tillarida allaqachon yaratilgan.

Istiqloldan soʻng belgilangan vazifalar borasida koʻpgina nazariy va amaliy ishlar boshlab yuborilgan. Biroq yuqorida taʼkidlanganidek, mashaqqatli mehnatlar evaziga yaratiladigan lugʻatlar koʻp yillik vaqtni talab etadi. Shunday ogʻir zahmat hisobiga yaratilgan va yaratilayotgan besh tom dan iborat “Ozbek

¹ Islomov I., Bobojonov Sh. Oʻzbek tilining soʻzlar darajalanishi oʻquv lugʻati. Oʻquv qoʻllanmasi. –T: Yangi asr avlodi, 2007. 52 bet.

tilining izohli lug'ati"ning yangi nashri¹, 12 tomidan iborat O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi² yuqoridagi fikrimiz dalilidir.

Tilshunoslar har qanday til va lug'at tarkibining eng muhim xususiyatini harakatda va o'zgaruvchan ekanida deb hisoblaydilar.

Bu kabi til lug'at tarkibini boyituvchi yo'llardan biri boshqa tillardan so'z o'zlashish hisobiga tilning boyishidir.

Tilda so'z o'zlashish jarayoni, asosan, xalqaro aloqalarning kengayishi, bozor munosabatlari shakllanishi, tovarlarning keng ko'lamda savdo-sotig'i, mafkuraviy yoki ijtimoiy aloqalar doirasida yangi tushunchalarni ifodalash ehtiyoji, jamiyatning ma'lum bir tuzumdan yangi shaklga o'tishi kabilar bilan bog'liq.

Mustaqillikdan so'ng o'zbek tilining mavqei, ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotdagi, davlat idoralarida ish yuritishdagi va matbuotdagi o'rniga bo'lgan ahamiyat kuchaydi. Tilimizning go'zal imkoniyatlaridan unumli foydalanish, uning ifodaviyligi, jozibadorligini ko'rsatib berish, turli sohalarga oid xalqaro miqyosda umumlashayotgan so'z va iboralarni tilimiz qonuniyatlariga mos holda olib kirish ishlariga alohida e'tibor berila boshladi.

Tarixdan ma'lumki, uzoq davrlar davomida takomillashgan turkiy tillar xalqaro miqyosda o'z o'rniga ega bo'lgan. O'zbek qozoq, qirg'iz kabi tillar uchun bobo til hisoblangan turkiy tilda yirik-yirik nasriy va nazmiy asarlar yaratilgan, olamshumul ahamiyatga ega bo'lgan "Xamsa" kabi shoh asarlar yaratilgan.

Ko'p asrlik taraqqiyotga ega bo'lgan o'zbek tili ko'plab tillarning o'zlashma so'zlari hisobiga boyimoqda va ko'plab tillarga o'z fondidan so'z berib kelmoqda.

So'z o'zlashish jarayoni har bir jonli tilga xos bo'lgan qonuniyat bo'lib, dunyo tillari orasidagi ijtimoiy-madaniy, ma'naviy sohalar asosida to'xtovsiz harakatda bo'ladi. Hattoki hozirgi ingliz tilida ham o'zlashma qatlam so'zlari taxminan 60 foizdan ortiq ekani manbalarda ta'kidlanadi.

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. –T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 5 jildli. 2006-2008.

² O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. –T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12 tomli. 2000-2006.

Ingliz tili hind-yevropa tillari oilasining german guruhiga kiradi. Inlizcha soʻzlarning oʻzlashishi nafaqat oʻzbek tiliga, balki sobiq ittifoq tarkibidagi rus, chechen va gruzin kabi boshqa tillarga ham sezilarli taʼsir qildi. Biroq rus tili ingliz tili singari hind-yevropa tillari oilasiga mansub boʻlgani bois ularda bu tilning taʼsiri tilimizga nisbatan faolroq sezilishini kuzatish mumkin.

Oʻzbek tiliga inglizcha oʻzlashma soʻzlarning oʻzlashish yoʻllari tulicha yoʻsinda. Qator yangi tushunchalar va hodisalar aynan oʻzbekcha nomlanishga ega boʻlmasa yoki oʻzlashma soʻz tushunchaning (sinonimiga nisbatan) turli qirralarini ifodalash va nomlash jihatidan oʻzining ijobiy va samarali taʼsiriga ega boʻlsa, toʻgʻridan-toʻgʻri oʻzlashtirish yoki aynan oʻzlashtirish usulidan foydalanilmoqda. Masalan, *chat (chat) – suhbat, bifshteks – (beefsteaks)* – qovurilgan mol goʻshtini qaylaga solib beriladigan ovqat turi, *mani (money) – pul, boy-frend (boy-friend) – doʻst, oʻrtoq* kabi soʻzlar ham ayrim reklama, bolalar kiyim-kechaklari yoki aholi eʼtiborini tortuvchi buyumlarda aks etmoqda.

Buning isboti sifatida E.Aʼzamovning «Bayramdan boshqa kunlar» qissasidan olingan parchaga eʼtibor qaratamiz. Asar qahramonlaridan sanalgan Safuraning tilidagi parazit soʻzlar koʻplab qoʻllanishini kuzatish mumkin. *«Umuman, koʻp gapirib ogʻzini charchatmaydi. Demoqchi boʻlgan fikrini biron bitta alomatrogʻ soʻzga jamlab qoʻya qoladi. Xuddi mashhur «Oʻn ikki stul» dagi tantiq Ellochkaga oʻxshab. Masalan: «bravo», «ujas», «genialno», «shik», «se lya vi», «chi gap», «oybay», «salut», «chao», «okey» va hokazo. Bu baynalmilal – qurama soʻzlarni u doimo xitob bilan, ohangini keltirib talaffuz qiladi. Siz oʻzbekcha gapiravering, u ana shu «til» da javob qaytaraveradi... ...Hello-o! BB larga (Bakir bilan Bargida demoqchi) salut deb qiyqiradi u telefundayoq: ismlarini toʻliq aytish ham unga malol kelsa kerak yoki oliftagarchilikkamikin?..*

Bu kabi soʻzlar odatda tushuncha ifodalashi jihatidan ingliz yoki boshqa tillarda oʻz ekvivalentiga ega boʻlsa-da, biroq ulardan uslubiy jihatdan u yoki bu xususiyatiga koʻra maʼnoni tasviriy ifodalashiga koʻra farqlanadi.

Oʻzlashma soʻzning oʻzlashgan tilda sinonimi boʻlsa, uning qoʻllanishi uchun turli sabablar mavjud boʻladi. Yaʼni, sinonim sifatida kirib kelgan soʻz tilda

termin sifatida yashaydi, yoki uslubiy ma'no ifodalovchi so'z bo'ladi, yoki o'z zidlanuvchi so'zga nisbatan mavhum tushuncha ifodalaydi, ba'zan esa yoshlar orasida odat tusini olmoqda.

Ingliz va rus tillari bir til oilasiga mansub bo'lgani bois inglizcha so'zlarning rus tilida o'zlashish jarayoni o'zbek tiliga nisbatan faol va miqdoran ko'pchilikni tashkil etadi. Tilshunos olimlar ta'kidlaganidek, ko'pchilik inglizcha o'zlashma so'zlar tilda, avvalo, okkozional (muvaqqat) xarakterga ega bo'ladi, vaqt o'tishi bilan okkazional neologizmlar o'zining bilingvizm (ikki tillilik) xususiyatini kengaytira boshlaydi.

Hozirgi paytda gazeta, jurnal, radioeshittirish va teleko'rsatuvlarda muxlislarni o'ziga jalb etadigan mavzular nomi inglizcha so'zlar va ularning urf-odatlarini bilan bog'liq holatlar tez ko'zga tashlanadi. Mashhur siyosiy arboblari, siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar ham o'zlarining nutqlarida sohalariga mos holatda o'rni bilan inglizcha o'zlashmalarga murojaat qilib turishadi.

Manbalarda so'z o'zlashtirishning ikki yo'li borligi ta'kidlanadi:

1) jonli so'zlashuv orqali so'z o'zlashtirilishi. Bunda boshqa til so'zlari o'zbek tiliga mahalliy aholining og'zaki nutqi orqali o'tadi. Masalan, *ruscha rami (рамы), klubnika, podnos* so'zlari o'zbek tilining jonli so'zlashuvidan *rom, qulubnay* va *patnis* deb talaffuz qilingan, keyinchalik o'zbek adabiy tiliga ham shu shaklda o'zlashgan;

2) bosma manbalar orqali so'z o'zlashtirilishi. Bunda boshqa tildagi matnni o'zbek tiliga tarjima qilish yoki o'zbek tilida yozilgan maqolalarda, ilmiy va badiiy asarlarda boshqa til so'zlarini (ayniqsa, termin va atamalarini) ishlatish orqali bo'ladigan o'zlashtirish nazarda tutiladi. Matematikadagi *katet, gipotenuza, adabiyotshunoslikdagi kulminatsiya, syujet* kabi terminlar, *ocherk, roman, povest* kabi so'zlar shu yo'l bilan o'zlashtirilgandir¹.

Ko'pgina tilshunoslar so'z o'zlashishining asosiy sababi sifatida quyidagilarni ko'rsatishadi:

¹ Jamolxonov N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: O'qituvchi, 2005. 196-bet.

- xalqlarning tarixiy aloqasi;
- yangi predmet, jarayon va tushunchani nomlash zaruriyati;
- nutqiy tejamkorlik imkoniyatiga intilish;
- ikki tildan foydalanishning alohida turi;
- chet tili soʻzlarini yangilik sifatida qoʻllash;
- biror millatning oʻziga xos udum yoki rasm-rusumlariga nisbatan koʻr-koʻrona ergashish.

Umuman olganda, soʻz oʻzlashish jarayoni tilning doimiy harakatdagi qonuni boʻlib, oʻzbek tili leksikasiga oʻzlashishi sezilarli darajada taʼsir qilgan 20 dan ortiq til oʻzlashmalari mavjud. Shuningdek, tilimizda oʻzlashishi faol boʻlmagan bir qancha tillarning oʻzlashmalari ham mavjudki, ularning lugʻatlarimizdagi miqdori kam foizni tashkil etadi.

2. Oʻzbek tili leksikasida oʻzlashma soʻzlar

Maʼlumki, dunyo tillari orasida sof tilning oʻzi yoʻq. Tilning sofliги uning oʻz til soʻzlari hisobiga yashashi bilan belgilanmaydi. Tillarning oʻzaro omuxtalashishi, birining ikkinchisiga taʼsir etib borishi til jarayonining harakatdagi barqaror qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Bu hodisaning rang-barang tillarda meʼyoriy, meʼyordan past va meʼyordan ortiq taʼsiri koʻzga tashlanib, soʻz oʻzlashishining meʼyordan past va meʼyordan ortiq darajada harakatlanish holati til tizimida maʼlum bir salbiy oqibatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Oʻzbek tili leksikasi bugungi kunga qadar til taraqqiyoti natijasida doimiy oʻz ichki imkoniyatlari asosida soʻz yasash, oʻzga tillardan soʻz olish, eskirgan soʻzlarning chiqib ketishi kabi maʼlum bir oʻzgarishlar hisobiga tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib oʻtmoqda. Leksik qatlam taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan bogʻliqdir. Xalqlarning oʻzaro madaniy, siyosiy, iqtisodiy aloqalari tillarning omuxtalashish holatiga sabab boʻladi.

O'zbek tili leksik qatlami taraqqiyotini ham jamiyatdagi muhim o'zgarishlarni hisobga olgan holda ma'lum bir davr bosqichlari asosida o'rganish mumkin. Turkiy til sifatida yuritilgan o'zbek tili qadimdanoq O'rta Osiyo hududida bir necha asr mobaynida forsiy (fors-tojik) til bilan bir qatorda iste'molda bo'ldi. Uzoq vaqtlik muloqot natijasida til omuxtalashishi sezilarli darajada har ikkala til leksik qatlamiga ham ta'sir qildi. O'zbek tili leksik qatlamiga yangi so'zlar, so'z birikmalari, iboralar, hattoki so'z yasovchi qo'shimchalar ham kirib keldi. Bunday so'zlar avvalo mavhum, keyinchalik ularning ko'pchiligi o'z qatlam so'zlari kabi tilimizga moslashib, ajratib bo'lmas holatda o'rinlashdi. Buning sababi sifatida o'zlashma so'zlarning tilda ko'p asrlik nutq jarayoni va til tizimidagi sinonimik, graduonimik, giponimik, bir so'zning faollashuvi ikkinchi so'zni passivlashishi jarayoni kabi munosabatlar hisobiga barqaror o'rinlashib qolgan deyish mumkin. Turkiy va forsiy tillarning bunday omuxtalashish jarayoni X asrgacha sezilarli darajada davom etdi, deyish mumkin.

VII-VIII asrda boshlangan arab istilosidan so'ng islom madaniyati ta'siri bilan birga leksikamizga, avvalo, diniy-ma'rifiy tushunchalar, keyinchalik esa keng qamrovli arabcha so'zlar qatlami kirib keldi. Aholining islom diniga katta e'tibor qaratishi, arab tiliga bo'lgan ishtiyoq va qiziqish natijasida xalqimiz orasida arab tili ilm-ma'rifat tili, madaniyat tili darajasiga ko'tarildi. Madrasalarda arab tili chuqurlashtirib o'qitila boshlandi, zamonaning ziyoli kishilari uchun arab tilida so'zlasha olish, shu tilda yoza bilish zamona talabi sifatida qaraldi. Arab tilini o'rganish nafaqat turkiylar orasida, balki arablar tasarrufidagi forsiy va boshqa xalqlar orasida ham avj olib bordi. Natijada arab tili islom madaniyatiga asoslangan xalqlar uchun ilm-fan tili – baynalmilal til vazifasini bajara boshladi. Zeroqi Qur'oni karim lafzi bitilgan arab tilida yoziladigan asarlarga shu soha olimlari tomonidan tahlil qilinadi, foydalanishga tavsiya qilinadi va ko'pchilik tomonidan tan olinadi. Avvalo, xalqimiz orasida yetishib chiqqan ziyoli kishilar bu tilda din, ma'rifat, islom nazariyasiga doir asarlar yozishgan bo'lsa, keyinchalik, turli sohalarga bag'ishlangan asarlar ham yozila boshlandi. X asrning muhim xususiyati shundaki, bu davrda turkigo'y alloma va adiblarning ilmiy va

badiiy asarlarni bitishlari uchun bir vaqtning o'zida arab, fors va turk tillari amalda bo'ldi. Aniqroq qilib aytiladigan bo'lsa, ijodkor ahli uchun din-ma'rifat mavzusi ko'proq arab tilida, she'riyat fors tilida, rang-barang sohalarda asar yozish esa turkiy tilga xoslangan edi. X asrdan boshlab asarlarning fors tilida yozilishi sezilarli darajada susaydi. Somiy tillar oilasiga kiruvchi arab tili turkiy tillarga til oilalari jihatidan uzoq hamda fonetik va grammatik jihatdan ancha murakkab bo'lganligi bois turkiy qavm orasidan kam miqdordagi kishilargina bu tilda mukammal asar yozish uchun jur'at qila olar edi. Ma'lum yillar davomida arab tili bilan muttasil shug'ullanib, arab davlatlarida yashab, bu tilni sinchiklab o'rgangan ijodkorlarga bu tilda mukammal asarlar yozishga kirishdi. Misol sifatida biz faxr bilan tilga oladigan qomusiy ijod sohibi Mahmud Zamaxshariyning arab tili grammatikasiga oid "Al-Mufasssal" asarini yozishi, unga "Arablar va g'ayriarablar ustoz" sharaflari nom berilishi fikrimiz dalilidir.

Bir tildan boshqa tilga, jumladan, boshqa tillardan o'zbek tiliga so'z o'zlashishi yozma yoki og'zaki nutq orqali bo'ladi. Masalan, arabcha o'zlashmalarining ko'pchilik qismi yozma manbalar orqali o'tgan. Tojikcha so'zlarning o'zlashishida esa og'zaki nutq ham muhim rol o'ynagan¹.

Fors tilining xalqimiz hayotida o'z mavqeini yo'qota borishi O'rta Osiyoda Uyg'onish (renessans) davrining buyuk vakili Alisher Navoiy davrigacha davom etdi. Shundan keyingi davrdagi devon va asarlarning forscha yaratilishi adiblarimizning zullisonaynlik mahoratini ko'rsatish maqsadida bo'ldi. Muhimi shundaki, tilimizning shunday ko'p yillik omuxtalashish jarayonida ham leksik qatlamining katta qismi o'z til so'zlari hisobiga saqlab qolgani quvonarli hodisadir. Zero, leksikamizdagi o'zlashma so'zlar hisobi hozirgi davr fors tili leksikasiga qiyoslanadigan bo'lsa (ayrim mutaxassislarning ta'kidlashicha, bu til leksik qatlamining 65 % ini arabcha so'zlar tashkil etadi) yuqoridagi holat nechog'lik ahamiyatga ega ekanligi va bugungi kunda fors millati uchun til sofligini saqlash davlat ahamiyatidagi masala sifatida turgani ma'lum bo'ladi. Bu holat tilda so'z

¹ Shoabdurahmonov Sh. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -T., O'qituvchi. 1980.

o‘zlashishining me’yordan ortiq darajasi bo‘lsa, tilimizdagi arab, fors so‘zlarining leksik qatlamdagi o‘rni, qo‘llanishi va miqdori esa so‘z o‘zlashishining me’yor darajasidagi holatini ko‘rsatadi. Aynan shu so‘z o‘zlashishining me’yordan ortiqlik darajasi til taraqqiyotining salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin. O‘rni kelganda shuni ham aytish lozimki, til omuxtalishishidan chetda qolgan, so‘z o‘zlashishining me’yordan past darajasida bo‘lgan, milliy, madaniy, siyosiy, iqtisodiy aloqalardan uzilgan tilda ham shunday “fojiaiy” holatlar kutilishi mumkin. Hozirgi paytda dunyo tillari orasida o‘lik tillar qatoriga o‘tib borayotgan bir necha tillar shunday tarixiy jarayonni boshidan kechirmoqda.

XIX-XX asrda jamiyat hayotida boshlangan tarixiy o‘zgarishlar tilimizda ham o‘z aksini bera boshladi. Bu davr so‘zlarning o‘zlashish va so‘zlarning chiqib ketish jarayonining tezlashgan davri bo‘ldi. XX asrda maktablar tashkil etilishi, ommaviy savod chiqarish, gazeta va jurnallarning chop etilishi, maktablarida savod chiqarish kabi omillar asosida bu holat yanada tezlashdi. Bu davrning muhim xususiyati shundaki, tilimizga nafaqat ruscha so‘zlar, balki rus tili orqali ko‘plab inglizcha, fransuzcha, italyancha va boshqa tillardan so‘zlar kirib keldi.

O‘zlashma so‘zlar datlabki davrda neologizm xarakterida bo‘lsa-da, keyinchalik asta-sekin qabul qiluvchi til qonuniyatlariga bo‘ysunishi, xuddi o‘z so‘zdek, tabiiy va aniq bo‘lishi (*barg*), fonetik qayta shakllanishi (*karavot*), grammatik singishi (*bankdan*), so‘z yasash tizimida faol ishtirok etishi (*traktorchi*), takror-takror qo‘llanishi tufayli uning yot elementigi sezilmay qoladi¹.

Tilimiz leksik taraqqiyotining navbatdagi bosqichi mustaqillik davri bilan bog‘liqdir. Jamiyatimiz har bir sohasida boshlangan tub islohotlar, xalqaro madaniy, iqtisodiy, siyosiy aloqalar ma’lum til o‘zgarishlariga, tilimiz taraqqiyotiga yangi yo‘l ochdi. Muhimi shundaki, bu davrga kelib, turli tillarga oid rang-barang soha so‘zlari kirib kelishi kuchaydi. Dunyo tillarini o‘rganish bilan birga ularning milliy-madaniy an’analari, urf-odatlariga muvofiq tushuncha va so‘zlarning o‘zlashishi tilimiz lug‘at boyligini yanada oshirdi.

¹ O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. –T., O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 10-tom. 498-bet.

Yuqoridagilarga muvofiq o'zbek leksikasi taraqqiyotini ma'lum bosqichlar asosida davrlashtirish mumkin:

1. XV asrgacha turkiy tilga fors-tojik tilining ta'siri.
2. VIII-X asrlarda turkiy tilga arab tilining ta'siri.
3. XX asrda o'zbek tiliga rus tilining ta'siri.
4. Istiqloldan so'ng o'zbek tiliga turli tillar, xususan ingliz tilining ta'siri.

Istiqloldan so'ng o'zbek tiliga turli tillar ta'siri. Neologizmlarning kirib kelishi.

XXI asr jahon hamjamiyati tomonidan ulkan o'zgarishlar, texnik taraqqiyot, axborotlashtirish asri sifatida tarixda qolishi e'tirof etilmoqda. Ayni paytda qisqa muddat davomida yangiliklarning dunyo bo'ylab ommalishishi, jamiyatdagi shunday yangiliklarga bo'lgan ehtiyoj har bir til leksik tarkibining ma'lum bir jihatdan o'zgarishiga olib kelmoqda. Bugungi kun neologizmlarning kirib kelishi, ularni omma tomonidan iste'molda bo'lishi tilimiz lug'atlarida aks etishini kutayotgani yo'q. Zamonaviy texnika sohasidagi xalqaro bog'liqlik va yaqinlik tilimizda ko'plab shunday tushunchalarni o'z so'zlarimiz bilan ifodalashga o'rin qoldirmayapti. Ba'zi bir o'zlashma so'zlarning ma'nolari lug'atlarda ham qayd etilmagan (flesh, koka-kola). Bugungi kunda zamonaviy texnika so'zlari dunyo bo'ylab baynalmilal soha so'zlari darajasiga ko'tarilib bormoqda.

Istiqloldan so'ng o'zbek tili lug'at boyligi ham shunday so'zlar hisobiga kengaydi va taraqqiy etdi. Buning sababi sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

1. Mustaqillikdan so'ng jamiyat hayotida siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy va boshqa sohalarda bo'lgan o'zgarishlar.
2. Jahon miqyosidagi ilf-fan, texnik taraqqiyot ta'siri.
3. Xorijiy tilda muloqot qiluvchi yurtdoshlarimizning o'zlashma so'z va terminlarni o'z nutqlarida ko'plab qo'llashlari.

O'zbek tilining izohli lug'atida o'zlashma so'zlarning qaysi tilga tegishli ekani alohida shartli qisqartmalar asosida ko'rsatilar ekan, ularning o'z tilidagi lug'aviy ma'nosi va tilimizga o'zlashganidan keyingi monosemantik yoki

polisemantik xususiyati alohida ko'rsatib berilgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'zbek tilining izohli lug'atida o'zlashma so'z olib kirgan tillar sifatida 16 ta til so'zlaridan misollar berilgan. Bular sirasiga *arab, fransuz, fors-tojik, golland, hind, ingliz, ispan, italyan, lotin, mo'g'ul, nemis, polyak, rus, xitoy, yunon, chex* tillari kiritilgan. Biroq adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati¹ va qisqacha siyosiy lug'at²da portugal va skandinavcha tillardan olingan so'zlar ham ko'rsatilgan. Bu kabi tillardan olingan so'zlar ma'lum bir sohaga oid termin ekanligi uchun "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan o'rin olmagan bo'lishi mumkin.

Neologizmlarning paydo bo'lish yo'llari xilma-xil bo'lib, ular tilning mavjud lug'aviy tarkibi va grammatik qonun-qoidalarini asosida yangi so'z yasash yo'li, shuningdek, mavjud so'zning lug'aviy ma'nolaridan birini yangi ma'noda qo'llash yo'li bilan va boshqa tildan so'z qabul qilish orqali hosil qilinadi³.

Ma'lumki, tilda umumtil neologizmi va individual nutq neologizmi mavjud bo'lib, umumtil neologizmi jamiyat hayotida katta o'rin egallaydi. Bunday neologizmlar muallif tomonidan ma'lum bir uslubiy talab asosida yaratiladi. Biroq har qanday yangi neologizmlar, avvalo, individual nutqda paydo bo'ladi. Bunday so'zlar jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilinsa, til tizimida shu so'zga ehtiyoj bo'lgan holatdagina o'z vazifasini bajarib, umumtil neologizmi qatoriga o'tishi mumkin. Tilimizda shunday vazifani bajara olmay individual nutq neologizmi sirasiga qolib ketayotgan leksemalar ham talaygina. Shunday misollar sirasiga hanuz harakati davom etayotgan badiiy uslubning ko'tarinki ruh kayfiyatini ifoda etuvchi *sezim* neologizmini ham kiritish mumkin bo'lib, bu so'z *sezgi* so'zi o'rnida bir necha o'n yillardan buyon umumtil neologizmi qatoriga kira olmay kelyapti.

Ba'zi manbalarda neologizmlar ma'lum bir guruh va turlarga ajratib o'rganilar ekan, haqiqiy neologizmlarning paydo bo'lishi nomlangan voqelikning yangi nomi bo'lishi lozimligini asos qilib olishadi⁴. Biroq hozirgi paytda til tizimida neologizmlarning paydo bo'lish talabi jamiyat taraqqiyotiga mos ravishda

¹ Hotamov N. Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. –T. O'qituvchi. 1979. 6-bet.

² Onikov L.A., Shishlin N.V. Qisqacha siyosiy lug'at. –T. O'zbekiston. 1983. 6-bet.

³ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. –T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-tom. 308-bet.

⁴ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. –T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-tom. 309-bet.

o'zgardi. So'zlarning bir tildan ikkinchi tilga o'tishi ma'lum bir yangi voqea-hodisaning yangi nom sifatida shakllanishiga, til leksik "bazasi"ga o'rinlashishiga sabab bo'lmoqda. Jahon xalqlari orasidagi o'zaro madaniy, siyosiy, iqtisodiy hamkorlik til rivojlanish jarayoniga ham o'zining shunday ta'sirlarini o'tkazib bormoqda.

Mavjud manbalarda neologizmlar o'rganilar ekan, ularda bugungi kun neologizmlari sifatida ma'lum bir so'zlarni alohida ta'kidlab ko'rsatilganini kuzatish qiyin. Shunday neologizmlar qatoriga *kosmos*, *telivedeniye*¹; *konfliktsizlik*, *kosmodrom*²; *marketing*, *qayta qurish*, *reyting*, *tender*³ kabilar ko'rsatilsa-da, ularni hozirda yangilik bo'yog'ini yo'qotgan, zamonaviy qatlam so'zlari sifatida baholab, hozirgi harakatda bo'lgan yangi so'zlarga misollar keltirilmaydi. Buning sababi shundaki, umumtil neologizmlarining qisqa muddat shu vazifada yashashi, bu tushunchaning nisbiyligi, shuningdek, ko'pgina so'zlarning yangilik bo'yog'ini jamiyatning barcha soha vakillari birdek qabul qilmasligidadir.

Neologizm tushunchasi va tilimizda paydo bo'layotgan yangi so'zlarni turli soha vakillari va jamiyatning turli qatlam kishilari uchun doimo birdek ahamiyat kasb etmasligi masalasini turlicha tushunish mumkin. Odatda ziyoli, yangilikka qiziquvchi kishilar va yoshlar atrofida o'zgarishlarga nisbatan befarq bo'lishmaydi. Ular jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlarni tez payqashadi. Ba'zi bir tabaqa vakillari borki, ularga ma'lum bir texnologiya va yangilik ko'z o'ngida joriy qilinmagunga qadar bu hodisaga befarq bo'lishi kuzatiladi. Umuman olganda, jamiyat a'zolarining neologizmlarga bo'lgan munosabati ularning ijtimoiy hayotga bo'lgan faol yoki passiv yondashishi bilan bog'liqdir. Shunga ko'ra, ayrim o'rinlarda ba'zi bir yangilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlarning (neologizmlarning) tilda tutgan o'rni haqida keskin xulosa chiqarish to'g'ri bo'lmasligi mumkin.

¹ Shoabdurahmonov Sh. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T., O'qituvchi. 1980. 127-b.

² Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T., O'zbekiston. 1992. 156-b.

³ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. –T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12 tomli. 2000-2006.

Bundan 20-30 yil ilgari ham tilimizning boyishi ichki manba orqali soʻz yasashdan koʻra oʻzlashtirish ustun boʻlib borayotgani kuzatilgan edi¹. Hozir ham tilimiz taraqqiyotida shunday jarayon davom etmoqda.

Mustaqallikdan soʻng tilimizga yangi soʻzlarning kirib kelishi qanchalik tezlashgan boʻlsa, koʻpgina soʻzlarning tilimizning leksik qatlamidan chiqib ketishi shunchalik tezlashdi. Shu bilan bir qatorda tilimizga flesh, multimedia, blutus, multimillioner, intranet, peyjering kabi neologizmlar ham kirib keldi.

Eskirgan soʻzlar sirasidagi rayon, oblast, otpuska, praktika, ekonomika, gimn, soʻzlari isteʼmoldan chiqib oʻrnini yangi soʻzlar yoki maʼnodosh qatoridagi boshqa bir soʻz egallagan boʻlsa, *sovxoz*, *kolxoz* soʻzlari tarixiy soʻzlar qatoriga oʻtdi. Bu kabi shoʻrolar boshqaruvi tizimini ifodalovchi eskirgan soʻzlar tilimizda talaygina topiladi.

Tilimizda mavjud boʻlgan vazir, posbon, hokim, kabi koʻpgina soʻzlarning vazifa doirasi va mazmuniy mundarijasi kengaydi². Shakllangan bozor iqtisodiyoti sohasidagi yangi tushunchalar fan va texnika sohasidagi yangi soʻzlar tilimiz boyligini oshirishda muhim faktor sifatida qaraladi. Texnika sohasining kompyuter, internet va ular bilan bogʻliq boʻlgan maʼlum bir soha soʻzlari tilimizda soha (terminologik) soʻzlari sifatida emas, kengaygan holda umumisteʼmol soʻzlari sifatida ishlatilmoqda.

Neologizmlar masalasi oʻrganilar ekan, ularning mazmun-mohiyatini bugungi kunda yangi nashr etiladigan lugʻatlarda soʻzlarning maʼnosini berish, ularni izohlash orqali kishilarga yetkazib boʻlmaydi. Negaki mavjud lugʻatlar keyingi nashrining kishilar qoʻliga yetib borishi kechikib borayotgan bir paytda bu masalani lugʻatlar orqali yechib boʻlmaydi. Shuningdek, baʼzi bir gazeta va jurnallarda berib borilayotgan sanoqli soʻzlarning tushuntirishlari bilan ham xalqqa toʻlaqonli yangi soʻzlarni, ular uchun zarur boʻlib turgan tushunchalarni yetkazish mumkin emas. Bizning nazarimizda, buning yagona yoʻli internet tizimida “Oʻzbek neologizmlarining elektron lugʻati”ni tashkil qilish lozim. Bu lugʻat

¹ Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –T., Oʻzbekiston. 1992. 175-b

² Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi.–T., Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. 12-tom. 2006. 65-bet.

mutaxassislar tomonidan doimiy, kunlik harakatda bo‘lib turishi zarur bo‘ladi. Ish intranet tizimi¹ asosida olib borilsagina tilimizda paydo bo‘layotgan yangi tushuncha va so‘zlarni tartibga solib turish muammosi yechilishi mumkin.

Bunday elektron lug‘atlar ikki guruh jamoasi tomonidan boshqarilishi zarur bo‘ladi. Birinchi (tadqiqotchi) guruh a‘zolari tilimizda yuzaga kelayotgan neologizmlarni o‘zlari aniqlab, izohlab borishadi. Ikkinchi (javob beruvchi) guruh a‘zolari esa uzer (internet tizimida ishlovchi kishi)larning talabiga ko‘ra ular uchun tushunarsiz bo‘lgan ma‘lum bir so‘zlarni ularga javob tariqasida izohlab borishadi.

O‘zlashma so‘zlar borasidagi yana bir muhim masala shuki, mustaqillikdan so‘ng tilimiz turli davlatlar bilan ijtimoiy, ma‘naviy-madaniy, iqtisodiy soha hamkorligi natijasida mavjud tillarning so‘zlari hisobiga kengayayotganini ta’kidlash joiz. Ilf-fan va texnik taraqqiyot ta’siri natijasida tilimiz so‘zlari miqdori, xususan, inglizcha va boshqa til so‘zlari hisobiga ham boyib borayotgani tilshunoslarning diqqat-markazida turibdi. Misol sifatida, *brifing* so‘zi inglizcha *briefing* (brief – qisqa) bo‘lib, yangi o‘zlashma so‘z bo‘lmagani uchun nashr etilgan lug‘atlarning ko‘pchiligida uchramasa-da, uni *rasmiy shaxslarning ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvi, shuningdek, muayyan masala bo‘yicha rasmiy nuqtai nazar yoki xalqaro muzokaralar, kengashlar, konferensiyalarning borishi va boshqalar to‘g‘risida tomonlarning o‘zaro kelishib olingan qarashlari rasmiy xulosasi qisqacha bayon qilinadigan uchrashuvi* sifatida izohlanadi².

Mustaqillikdan so‘ng tilimizga *brifing – briefing, injenereng – ingineering, imej – image, vizual – visual, virtual – virtual, organayzer – organizer* kabi inglizcha o‘zlashma so‘zlarning kirib kelishi qanchalik tezlashgan bo‘lsa, *ministr, komitet, oblast, rayon* kabi ko‘pgina so‘zlarning tilimiz leksik qatlamidan chiqib ketishi ham shunchalik tezlashdi.

Kundalik so‘zlashuvda ishlatilayotgan va qo‘llanilishi faol bo‘lgan ayrim leksemalarning “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan joy olmaganini kuzatish

¹ Internet texnologiyasi, dastur ta’minoti va qaydnomalari asosida tashkil etilgan ma’lumotlar ombori va elektron jadvallar bilan jamoa bo‘lib ishlashga imkon beruvchi korxona va tashkilot miqyosidagi kompyuter tizimi. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-tom. 186-bet.

² O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. –T., O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 3-jild. 2002. 217-bet.

mumkin. Masalan, *imij, koka-kola, minimarket, gipermarket, chizburger, xot-dog, chipsi, netbuk, blutus, sensor, flesh xotira, vay-fay, planshet, intranet* kabi ko‘plab leksemalar ham izohli lug‘atimizdan joy olishi zarur.

Yogurt asl turkiy leksema bo‘lib, jem, meva konservasi, shokolod, kakao va boshqa qo‘shimcha (to‘ldirgich)lar aralashtirilgan, qaymoqli kremga o‘xshash sut-qatiq mahsuloti (oddiy ivitilgan qatiq, kefir va boshqalar) ma’nosida ishlatiladi. Bu ham utyuk leksemasi kabi o‘z shaklini o‘zga til xususiyatlariga mos ravishda o‘zgartirib leksikamizga qaytgan leksema bo‘lib o‘zlashma sifatida baholanadi.

Ba’zi o‘zbek tiliga o‘zlashgan inglizcha so‘zlarning bir guruhi o‘zbek tili leksikasida asl lug‘aviy ma’nosini butunlay yo‘qotib, etimologik ma’no va tushunchasi bilan aloqador bo‘lmagan boshqa semantik birlikka aylangan. Bunday xarakterdagi so‘zlar asl fonetik va morfologik qiyofalarini o‘zgartirmagan. Shunday bo‘lsada, ular ingliz va o‘zbek tilida semantik yaqinlikka ega bo‘lmaydi. So‘zning o‘z tildagi ma’nosi bilan o‘zlashgan tildagi ma’nolari orasida bog‘liqlik unutiladi.

Masalan:

YUMOR [ingl. humour — xulq, fe’l-atvor, kayfiyat < lot. humor — namlik, xo‘llik] 1 Kamchiliklar, ayrim voqea va hodisalarni kulgili qilib, hazilomuz tasvirlay bilish, ularni beg‘araz hajv qilish. *Butun harakatlari yumorga boy bo‘lgan Nabi Rahimov yaratgan xar bir obraz favqulodda hayotiyiligi.. bilan qalblarni maftun etadi.* X. To‘xtaboyev, Sahnamiz yulduzi.

2 Shu yo‘sinda yozilgan adabiy asar. Satira va yumor. Muqimiy yumorlari.

KOKTEYL [ingl. cocktail - xo‘rozning dumi] 1 Spirtli ichimliklarning (*konyak, rom va b.*) ba’zan qand, meva va turli ziravorlar qo‘shib tayyorlanadigan, sovi-tilgan aralashmasi. -Qani yuring, bir qultum kokteyl ichamiz, — dedi u.. dasturxon yasatilgan uzun foyyega boshlar ekan. I. Rahim, Tinimsiz shahar.

2 Meva sharbati, sut va sh. k. larga shakar, rezavor va b. qo‘shib tayyorlanadigan alkogolsiz ichimlik.

KOLLEJ [ingl., fr. college — o'rtoq, birodar; o'quv yurti] 1 Buyuk Britaniya, AQSH va b. ba'zi mamlakatlarda: o'rtadan oliygacha bo'lgan turli xil o'quv yurtlari.

2 Fransiya, Belgiya, Shveytsariya va b. ba'zi mamlakatlarda: o'rta va to'liqsiz o'rta o'quv yurti.

3 Uzbekistonda: o'rta maxsus kasb-hunar o'quv yurti.

Kasb-hunar kolleji Davlat ta'lim standartlari asosida o'quvchilarga o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beruvchi, o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligini, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlanti-rish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini yaratuvchi o'quv muassasasi.

Aytish joizki, tilimizga ingliz tilidan o'zlashgan so'zlarning o'zlashishida ularning semantik tuzilishidagi o'zgarishlari ham turlicha bo'lishi kuzatiladi. Ayrim so'zlar tilda o'z ma'nosini saqlab qolgan o'zlashmalar sifatida o'rinlashsa, ayrimlari ma'no kengayishi, ma'no torayishi yoki yangi ma'no kasb etishi mumkin.

Umuman olganda, tilimizdagi o'zlashma so'zlar haqida fikr yuritilganda tilshunos olim N.Mahmudov ta'kidlaganidek, O'zbek tilidagi xorijiy o'zlashmalarning me'yori va milliyligi masalasi ma'naviy-madaniy sohalar doirasida favqulodda ahamiyatga molik ekanligini hamisha yodda tutish lozim¹.

¹ Mahmudov N. O'zbek tilida o'zlashma so'zlar: me'yor va milliylik // O'zbek tili va adabiyoti. 2010. 6-son. 8-bet.

BOB BO'YICHA XULOSA

O'zbek tili leksikasiga o'zlashishi sezilarli darajada ta'sir qilgan 20 dan ortiq til o'zlashmalari mavjud, shuningdek, tilimizda o'zlashishi faol bo'lmagan bir qancha tillarning o'zlashmalari ham uchrab turadi.

Mustaqillikkacha bo'lgan davrda o'zlashgan ayrim leksemalar rus tilining tabiatiga moslashgan holda tilimizga o'zlashgan. Masalan, *chempionat, trenirovka, tanketka, kovboyka, trusi* kabi leksemalar so'ngida *-at, -ka* singari elementlarning kelish hollari inglizcha leksemalarning tabiatidan yiroq hisoblanadi. Shuningdek, bu kabi hodisani *xaker, xuligan* va *xoll* kabi leksemalarda *h* fonemasi o'rniga *x* fonemasi ishlatilganidan ham sezish mumkin.

O'zbek tili leksikasining katta qismini o'z qatlam leksemalari tashkil etadi. Lug'at boyligimizdagi forsha-arabcha, shuningdek, ruscha o'zlashma leksemalarning ham miqdori boshqa til o'zlashmalariga qaraganda katta miqdorda bo'lib, hozirda ularning qatoriga inglizcha o'zlashmalarni ham kiritish mumkin.

Eski nashrdagi "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga 80 ga yaqin inglizcha o'zlashma so'z kiritilgan bo'lsa, yangi nashrdagi "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga 500 dan ortiq inglizcha o'zlashma so'z izohlangan. Shuningdek, "O'zbek tiliga o'zlashgan inglizcha so'zlarning izohli lug'ati"da 350 dan ortiq so'z, bundan tashqari, vaqtli matbuotda qo'llanayotgan neologizmlar, "Inglizcha-o'zbekcha-ruscha axborot texnologiyalari va internetga oid qisqacha atamalar lug'ati" kabi inglizcha o'zlashmalar hisobiga mingdan ortiq leksema o'zlashganini aniq aytish mumkin.

Kundalik so'zlashuvda ishlatilayotgan va qo'llanilishi faol bo'lgan ayrim leksemalarning "O'zbek tilining izohli lug'ati" dan joy olmaganini kuzatish mumkin. Masalan, *imij, koka-kola, minimarket, gipermarket, chizburger, xot-dog, chipsi, netbuk, blutus, flesh xotira, vay-fay, planshet, intranet* kabi ko'plab leksemalar ham izohli lug'atimizdan joy olishi zarur.

Har bir tilda ham o'ziga xos o'rinsiz ishlatiladigan o'zga til unsurlari mavjud bo'lib, ular varvarizmlar sifatida izohlanadi. Hozirgi paytda yoshlar nutqida okey (OK – all correct) – ishlar besh; vau (wow) – ijobiy ma'nodagi his-hayajon ifodalovchi undov so'z; o yiss (o, yess) – tasdiq ma'noni ifodalovchi so'z; o, best – (best) ishlar a'lo; hello (hello) – salom; bay (bue) – xayr kabi ingliz tili ta'sirida o'zlashgan varvarizmlar ham uchrab turadi. Zeroki so'z o'zlashish jarayoni, o'zga tilning madaniyat, urf-odat, o'ziga xos rasm-rusumlari bilan bevosita bog'liqdir.

Inglizcha o'zlashmalarni leksikamizga o'zlashishini mustaqillikkacha va mustaqillikdan keyingi davrlarga bo'lib o'rganish mumkin. Ayrim *fermer, biznes, bodibilding, gamburger, broyler* kabi leksemalar mustaqillikkacha passiv holatda ishlatilib, mustaqillikdan keyingi davrlarda faollashgan bo'lsa, ayrimlari *brifeng, konsalting, trening, kemping, sheyping* kabi leksemalar mustaqillikdan so'ng o'zlashgan leksemalardir.

O'zbek tili leksikasining katta qismini o'z qatlam leksemalari tashkil etadi. Lug'at boyligimizdagi forsha-arabcha, shuningdek, ruscha o'zlashma leksemalarning ham miqdori boshqa til o'zlashmalariga qaraganda katta miqdorda bo'lib, hozirda ularning qatoriga inglizcha o'zlashmalarni ham kirish mumkin.

Eski nashrdagi "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga 80 ga yaqin inglizcha o'zlashma so'z kiritilgan bo'lsa, yangi nashrdagi "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga 500 dan ortiq inglizcha o'zlashma so'z izohlangan. Shuningdek, M.To'xtayeva B.Qilichevlarning "O'zbek tiliga o'zlashgan inglizcha so'zlarning izohli lug'ati"da 350 dan ortiq so'z, bundan tashqari, vaqtli matbuotda qo'llanayotgan neologizmlar, "Inglizcha-o'zbekcha-ruscha axborot texnologiyalari va internetga oid qisqacha atamalar lug'ati" kabi inglizcha o'zlashmalar hisobiga mingdan ortiq leksema o'zlashganini aniq aytish mumkin.

II bob. O‘ZBEK TILIDA INGLIZCHA O‘ZLASHMA SO‘ZLARNING MA’NO TARAQQIYOTI

1. Inglizcha o‘zlashma so‘zlarning semantik tuzilishidagi o‘zgarishlar xususida

Ma’lumki, har bir til o‘z lug‘at boyligiga ega bo‘lar ekan, o‘zining ichki qonuniyatlari asosida tadrijiy ravishda rivojlanib boradi. Shuningdek, jamiyatda bo‘ladigan o‘zgarishlarga mos ravishda, o‘z tiliga ega bo‘lgan xalq til birliklarining o‘zga xalqlar bilan siyosiy, ma’naviy, madaniy, iqtisodiy aloqalari natijasida ham boshqasiga o‘tib borishi kuzatiladi. Bu holat manbalarda o‘z qatlam va o‘zlashgan qatlam guruhi sifatida tasniflanadi.

O‘zbek tili lug‘at boyligining katta qismi umumturkiy leksemalar bo‘lib, ularni o‘zlashma qatlam leksemalaridan farqlashning o‘ziga xos belgilari ham mavjud.

O‘zbek tiliga so‘zlar o‘zlashishining o‘ziga xos tadrijiy bosqichlari bor. O‘zbek tilidagi mumtoz badiiy manbalar kuzatilganda, ularda fors-tojik va arab tillaridan o‘zlashgan so‘zlarning o‘z davriga qarab o‘zlashish va qo‘llanilish ko‘lami kengaya borgani kuzatiladi. O‘zlashma so‘zlar o‘z tilidan boshqa tilga o‘zlashar ekan, ma’lum muddat o‘z qatlam so‘zlariga qaraganda barcha uchun birday tushunarli bo‘lmagan, ishlatilish doirasi o‘z qatlam so‘zlariga qaraganda nafaol xususiyatga ega bo‘ladi.

Professor E.Begmatov o‘zlashma so‘zlar masalasiga yondashar ekan, quyidagicha fikrni bildiradi: O‘zbekcha so‘zlar uchun asos bo‘luvchi arabcha, forsha-tojikcha kabi so‘zlar material va genetik manbaiga ko‘ra chet til elementi bo‘lsa ham, ularni hozirgi o‘zbek adabiy tili nuqtai nazaridan, ya’ni davriy (sinxronik) holatga ko‘ra, tashqi resurs deyish bir tomondan to‘g‘ri, ikkinchi tomondan esa, shartlidir. Bu so‘zlar endilikda o‘zbek tiliga o‘zlashtirilgan, ko‘p davrdan beri bu tilda iste’molda bo‘lgan, o‘zbek tilining qonuniy boyligiga aylangan leksikadir. Shuning uchun bu so‘zlarning ko‘pchiligi o‘zbek tilida gaplashuvchi hozirgi davr kishilari uchun o‘zlashma so‘z tarzida tuyulmaydi.

Mana shu xususiyatiga ko'ra, yangi o'zbekcha so'zlar uchun baza bo'luvchi arabcha, forsha-tojikcha so'zlar funksiyasiga ko'ra, traditsion tub turkiy so'zlarga yaqin turadi. Demak, o'zbekcha so'zlar yasalishiga xizmat qiluvchi arabcha, forsha-tojikcha so'zlarning aksariyati keltirilgan ma'noda ichki resurs xarakteridadir"¹.

Hozirda o'zbek tiliga forsha-arab tillaridan o'zlashgan so'zlarning iste'mol ko'lami shu qadar kengayib ketganki, o'zbek tilining izohli lug'atida ularning o'z qatlam so'zlari kabi ma'nolari kengayib ketganini kuzatish mumkin. Muhimi esa, til sohiblari uchun forsha-arabcha so'zlarning ma'nolari o'z qatlam so'zlari kabi tushunilishi aniqlashib ketgani, ko'pchilik hollarda ularni umumturkiy so'zlardan farqlanmay qolgani ham bu so'zlarni "begonalik" holatidan uzoqlashtiradi.

Professor Sh.Rahmatullayev esa "Fors, arab tillaridan leksema o'zlashtirish tarixan ko'p bo'lgan, hozir esa siyraklashgan. Hozirgi o'zbek tilida rus tilidan o'zlashtirishlar o'rnini bevosita g'arb tillarining o'zidan o'zlashtirish oldi"², – deya ta'kidlaydi.

O'zlashma so'zlar haqida fikr yuritilar ekan, turli sohalarda qo'llanuvchi baynalmilal so'zlarning ommaviy ravishda ko'pgina tillarga o'zlashib borayotgani turli til sohiblari uchun qulaylik yaratishi jihatidan quvonarli holdir.

Tilshunos olim Sh.Rahmatullayev hozirda o'zbek tili uchun ichki manbaga qaraganda tashqi manba ustunligini e'tirof etadi: "Umuman, keyingi vaqtlarda lug'atning boyish jarayonida so'z yasashdan ko'ra o'zlashtirish ustun bo'lib bormoqda. Chunki o'zlashtirish – so'z yasashga nisbatan yengil yo'l. Jamiyat taraqqiyotining hozirgidek tez sur'atlar bilan borishi til amaliyotida ham har on hozirjavoblikni talab qilmoqda. Tillar orasida o'zlashtirishning faollasha borishiga asosiy sabab – shu"³.

O'zbek tiliga rus tili orqali o'zlashgan so'zlar miqdori ko'pchilik bo'lsa-da, ularni ruscha o'zlashmalar va ruscha bo'lmagan o'zlashmalar sifatida ajratish mumkin.

¹ Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. -Toshkent: Fan, 1985. 129-130-betlar.

² Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent: Universitet, 2006. 10-bet.

³ Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent: Universitet, 2006. 107-bet.

Istiqlol yillaridan so‘ng tilimizga jamiyatdagi turli sohalarining rivojlanishi va yangilanishi natijasida g‘arb tillaridan so‘z o‘zlashtirishni alohida ta’kidlab o‘tish joiz. Jumladan, ko‘pgina sohalarda qo‘llanayotgan nanatexnologiya, innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘zida aks ettiruvchi ma’lum bir tushunchalar borki, ular qo‘llanayotgan ma’lum bir fan tili nomi bilan birga kundan-kunga quloq yozib bormoqda.

Bizga ma’lumki, *ingliz, fransuz, rus, ispan, arab va xitoy tillari* jahon tillari sifatida yetakchi mavqega ega bo‘lib, BMTning ish hujjatlari shu tillarda yuritiladi. Hozirda tilimizga o‘zlashgan va ayni paytda o‘zlashish darajasi faol hisoblanayotgan inglizcha so‘zlarning o‘zbek tili lug‘at boyligidagi o‘rni alohida ahamiyatga ega. Ayni paytda bunday so‘zlar o‘zga tilga o‘zlashishidan tashqari qisqa muddat ichida so‘z yasash bazasi sifatida ham faol rol o‘ynamoqda.

Inglizcha o‘zlashma so‘zlar sirasidagi *provayder, sammit, imij, reyting, menejment, menejer* kabi so‘zlarning o‘zbek tilining izohi lug‘atidagi ma’nolari kuzatilganda, bu kabi so‘zlarning o‘zlashishi bilan bog‘liq ma’no o‘zgarishlari lug‘atlarimizda qayd etilganini kuzatish mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, tilimizga ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlarning o‘zlashishida ularning semantik tuzilishidagi o‘zgarishlari ham turlicha bo‘lgan. Shunga muvofiq ularni o‘z ma’nosini saqlab qolgan o‘zlashmalar, so‘z ma’nolarining kengayishi, so‘z ma’nolarining torayishi, o‘zlashmalarining yangi ma’no kasb qilishi kabi til hodisalariga uchragan o‘zlashmalar sifatida tasniflab o‘rganish mumkin. Bu haqda keyingi bo‘limda so‘z yuritiladi.

Ma’lumki, dunyoda 5000 dan ortiq til mavjud bo‘lib, ularning soni manbalarda turlicha ko‘rsatiladi. Bularning aniq sonini belgilash juda murakkab, chunki tillar o‘rtasidagi va bir tilning dialektlari orasidagi farqlar nihoyatda shartlidir¹.

Hozirgi paytda o‘z ustivor siyosatiga ega bo‘lgan har bir davlatning global masalalari qatoridan til masalasi ham o‘rin olgan deyish mumkin. Zeroki, jahonda

¹ O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. –T., O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2002. 3-tom, 576-bet.

ayni paytda 1400 tilning yo‘qolib ketish xavfi mavjudligi ta’kidlanmoqda. Mutaxassislar tomonidan dunyo tillaridan faqat 40 tasininggina og‘zaki va yozma jihatdan mukammal shakllanib bo‘lgani qayd etiladi. O‘sha 40 tilning orasida o‘zbek tilining ham munosib o‘rin olgani quvonarli holdir¹. Prezidentimiz I.A.Karimov tashabbusi bilan 1989-yil 21-oktabrda O‘zbek tiliga “Davlat tili” maqomi berilishi, shuningdek, 1995-yil 21-dekabrda “Davlat tili haqida”gi Qonunning yangi tahriri qabul qilinishi kabi til masalalariga bog‘liq hukumat qarorlarining o‘z vaqtida qabul qilinishi mamlakatimizda uzoqni ko‘zlangan davlat siyosati olib borilayotganining dalilidir.

O‘zbek tili rivojlangan tillar qatoriga kirar ekan, uning leksikasi ichki va tashqi boyish manbalari hisobiga kundan-kunga boyib bormoqda. Xususan, hozirgi paytda tilimizning tashqi manba asosida boyishi faollashganini ta’kidlash joiz.

O‘zbek tiliga o‘zlashgan va o‘zlashish jarayoni sezilarli davom etayotgan o‘zlashmalar xususida fikr yuritganda, ular sirasidan inglizcha o‘zlashma so‘zlarning o‘rni ayni paytda ilmiy jihatdan o‘rganish uchun asosli deyish mumkin. Zeroki, hozirgi paytda butun dunyo muloqot tili sifatida tan olinayotgan ingliz tilining boshqa tillarga ta’sir darajasi sezilarlidir. “XX asr lotini” nomi bilan yuritilayotgan bu til nafaqat o‘zbek tili, balki dunyodagi ko‘plab tillarga so‘z berib, ularning leksikasini boyitayotgani ko‘pchilikka ma’lum. Shunga ko‘ra, quyida tilimizdagi inglizcha o‘zlashma so‘zlarning semantikasiga doir o‘zgarishlar xususida fikr yuritamiz.

Tilimizdagi o‘zlashma so‘zlar semantikasi o‘rganilsa, leksik ma’no taraqqiyotining natijasi sifatida ikki xil holat – leksik ma’no hajmining kengayishi yoki torayishi kuzatiladi.

Ma’no kengayishi ma’lum bir so‘zlar uchun tarixiy taraqqiyot jarayoni bo‘lib, leksik ma’noning avvalgisiga nisbatan kengroq voqelikni bildirishiga nisbatan ishlatiladi.

¹ Rahimov B. Dunyoda nechta til bor? Til va adabiyot ta’limi. 2011. 11-son. 15-bet.

Inglizcha o‘zlashma hisoblangan *dizayn* leksemasi eski nashrdagi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan o‘rin olmagan. Tilimizga o‘zlashish tarixi uzoq bo‘lmagan bu leksema, avvalo, chizmachilik, tasviriy san‘at, arxitektura soha atamasi sifatidagina ishlatila boshlagan edi. Bu leksemaning qomusdagi maqolasi quyidagicha. *Dizayn* [inglizcha design – loyiha, chizma, rasm] – narsalar muhitini estetik va funksional sifatlarini shakllantirish maqsadiga qaratilgan loyihalash faoliyati turlarini ifodalovchi termin. Dizayn 20-asr boshlarida yuzaga kelib, 30-yillarda maxsus faoliyat turi sifatida G‘arbiy Yevropa va AQShda shakllandi. 80-yillar 2-yarmidan *dizaynning* faoliyat doirasi kengaydi¹. Unga berilgan izohdan ma’lum bo‘ladiki, bu leksemaning hozirda keng planda ishlatilishi aniq ma’noning mavhum ma’noga o‘tishi bilan farqlanadi. Ya’ni chizmachilik, tasviriy san‘at, arxitektura soha atamasi tushunchasidan tashqari badiiy faoliyat turi – estetik xususiyatlarga ega bo‘lgan narsalar, sanoat buyumlarini loyihalash, joylashtirish, jihozlash; badiiy jihatdan loyihalash, tashkil qilish kabi umumiy ma’nolarda ishlatilmoqda². Shunga asoslanib, bu leksemani so‘z ma’nosining kengayishi hodisasiga uchragan til birligi sifatida aytib o‘tish mumkin. Bundan tashqari, bu leksemaga bevosita aloqador hisoblangan *dizayner* leksemasi ham hozirgi kunda ko‘p ma’nolilik kasb etayotgan so‘zlar sirasiga kiradi.

Reyting leksemasi 1981-yil nashr etilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga kiritilmagan. Keyingi yillarda esa reyting [inglizcha raiting – baho, daraja] baho berishning ball sistemasiga asoslangan turini ifodalovchi tushuncha sifatida lug‘atlardan joy oldi. Bu leksemaning tilimizdagi iste’mol doirasi faollashuvi natijasida ta’lim tizimidagi atamadan sport, madaniyat va boshqa sohalarda erishilgan yutuqlar natijasini belgilovchi me’yor tushunchasi bildiruvchi leksema sifatidagi ma’nolari kengaydi. Buni yangi nashrdagi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” misolida ko‘rishimiz mumkin. Unda *reyting* leksemasi quyidagicha izohlangan: **1** *O‘quvchilar va talabalar bilimni nazorat qilish va baholash usuli va tizimi. Oliy ta’lim tizimida bakalavrlilik va magistrlik bosqichlaridagi ta’lim tobora*

¹ O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. –T., O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2002. 3-tom, 293-294-betlar.

² O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –T., O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2006. 1-jild, 608-bet.

takomillashmoqda, talabalar bilimini baholashning reyting usuli keng joriy etilmoqda. 2 sport. Sportning ba'zi turlarida (masalan, shaxmatda) erishilgan yutuqlarning samaradorligi va nufuzini baholashda raqamlar bilan ifodalanadigan shaxsiy ko'rsatkich. Xalqaro futbol federatsiyasi (FIFA) milliy terma jamoalar uchun avgust oyi reyting jadvalini e'lon qildi. 3 Siyosat, madaniyat va boshqa sohalaridagi taniqli arboblarning jamoatchilik fikrini o'rganish yo'li bilan aniqlanadigan mashhurlik darajasi. Mashg'ulot olib boradigan o'qituvchilarning ilmiy darajasi, reytingi, ish stajiga qarab, qo'shimcha haq to'lash joriy etildi¹.

Ko'rinadiki, ma'lum yillar ilgari monosemantik xususiyatga ega bo'lgan reyting so'zi tilimizga o'rinlashib, faol so'z sifatidagi qo'llanishi natijasida hozirda polisemantik so'z sifatida shakllangan.

Bunker leksemasi 1981-yil nashr etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da kombayn, paxta terish mashinasi va shu kabilarning yig'ilgan narsa to'planadigan qismi ma'nosida berilgan. *Paxta terish mashinasining bunkerlari*². Yangi nashrdagi "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan esa bu so'zning ma'no jihatdan kengayganini kuzatish mumkin. *Bunker [inglizcha bunker – ko'mir solinadigan quti]* **1** Kombayn, paxta terish mashinasi va shu kabilarning yig'ilgan narsa kelib tushadigan, to'planadigan qismi. *So'rib olingan paxta mashinadagi bochkasimon bunkerga kelib tushyapti. Bu yil Ergashev o'z bunkeridan 100 tonna "oq oltin" terib to'kdi. 2* Qum, shag'al, sement, don, ko'mir va shu kabi narsalarni qisqa muddat saqlash yoki tashishga mo'ljallangan idish. **3** Mudofaa uchun mo'ljallangan yer osti inshooti. *Ular bunkerni qamal qilib, tobora yaqinlashib borardi*³.

Ko'rinadiki, *bunker* leksemasining qum, shag'al, sement, don, ko'mir va shu kabi narsalarni qisqa muddat saqlash yoki tashishga mo'ljallangan idish sifatidagi 2-ma'nosi va mudofaa uchun mo'ljallangan yer osti inshooti sifatidagi 3-ma'nolari hosila ma'nolar qatoriga kiradi.

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. –T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2007. 3-jild, 373-bet.

² O'zbek tilining izohli lug'ati. –M., Русский язык. 1981. 1-jild, 149-bet.

³ O'zbek tilining izohli lug'ati. –T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2006. 1-jild, 374-bet.

Tilning leksik tarkibi jamiyatning siyosiy, madaniy va ma'naviy hayoti bilan bog'liq ravishda takomillashib boradi. Jumladan, lug'atlar ham jamiyatdagi siyosiy-ma'naviy qarashlarga mos holda yaratiladi. Yangi nashrdagi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *biznes* leksemasi [*inglizcha businnes – ish, mashg'ulot*] daromad keltiradigan, foyda olish maqsadlari ko'zlangan va qonunlarga xilof bo'lmagan har qanday tashkiliy, xo'jalik faoliyati; tijorat; ishbilarmonlik¹ (*Biznes, xo'jalik yuritishi ko'lamiga qarab, yirik, o'rta va kichik turlarga bo'linadi.*) ma'nosida berilgan bo'lsa, 1981-yil nashr etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da esa *kapitalistik mamlakatlarda: shaxsiy boylik, foyda orttirishga qaratilgan ish*² (*masalan, chayqovchilik, kommersiya, katta daromad keltiradigan korxona va shu kabi*) ma'nosida keltirilgan.

Eski nashrdagi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *fermer* leksemasining kapitalistik mamlakatlarda: fermani ijaraga oluvchi kishi yoki ferma egasi ko'rinishidagi ma'nosi ko'rsatilgan. Yangi nashrdagi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da esa *fermer* leksemasi [*inglizcha farmer – fermer*] o'ziga qarashli yoki ijaraga uzoq muddatga olingan yerda ziroat, chorva, parranda mahsulotlarini yetishtirish bilan shug'ullanuvchi mayda yoki o'rtacha qishloq xo'jalik korxonasi egasi ko'rinishida izohlangan. *Fermerlarga atalgan yerlarni meros qilib qoldirish sharti bilan uzoq muddatga ijaraga olish huquqi mustahkamlanib qo'yildi. O'sha kuni... Ahmad Qodirov degan fermer ukamizni uchratib qoldim.* Umuman olganda, *biznes, fermer, savdogar* kabi leksemalarning lug'atlarda turlicha izohlanishi ularning tuzumga nisbatan yangi ifoda olishi bilan bog'liq masaladir.

Lug'atlarda shu til vakillarining ijtimoiy-siyosiy qarashlari aks etishi ko'plab manbalarda qayd etiladi. Sobiq ittifoq mafkurasi bilan bog'liq *pioner* [*r<ingl*] leksemasi 1 *Ko'ngilli bolalar kommunistik tashkilotining a'zosi. Pionerlar otryadi.* 2 *Biror ishni, narsani birinchi bo'lib boshlagan, birinchi tekshirgan, kashf etgan, boshlab beruvchi* ma'nosida ishlatilishi qayd e'tilgan³. Yangi nashrdagi

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. –M., Русский язык. 1981. 1-jild, 392-bet.

² O'zbek tilining izohli lug'ati. –M., Русский язык. 1981. 1-jild, 392-bet.

³ O'zbek tilining izohli lug'ati. – M.: Русский язык, 1981. 1-tom, 587-bet.

O'zbek tilining izohli lug'atida esa fransuzcha o'zlashma sifatida kiritilgan bo'lib, *muonep* [*фр. pionnier* – boshlab beruvchi; tashabbuskor] 1 *Fan, texnika, san'atda, umuman, tadqiq qilinmagan muayyan sohada yo'l ochib, boshlab bergan kishi. Kosmosni o'zlashtirish pionerlari. 2 tar. Sho'rolar davrida (1922-1991-yillarda): bolalar pioner tashkilotining a'zosi*¹ ma'nolarida ishlatilgan. Ko'rinadiki, bu o'zlashmaning o'zlashish manbasidan tashqari jamiyatdagi o'zgarishlar hisobiga undagi semantik o'zgarishlar ham ko'zga tashlanganini kuzatish mumkin.

Ayrim so'zlarni o'zlashtirishda mutaxassislar so'zlar imlosining differensiallash prinsipi bilan so'z ma'nosini farqlashga harakat qilganlar. Eski nashrdagi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *kolledj* inglizcha so'z sifatida Angliya va Amerikadagi oliy va o'rta o'quv yurti ma'nosida tavsiflangan bo'lsa, *kollej* esa fransuzcha so'z sifatida Fransiya, Belgiya va Shveytsariyadagi o'rta o'quv yurti ko'rinishida izohlangan.

Yangi nashrdagi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *kollej* [*ingl., fr. college* – *o'rtoq, birodar; o'quv yurti*] leksemasi uch ma'noda 1 Buyuk Britaniya, AQSH va boshqa ba'zi mamlakatlarda: o'rtadan oliygacha bo'lgan turli xil o'quv yurtlari. 2 Fransiya, Belgiya, Shveytsariya va boshqa ba'zi mamlakatlarda: o'rta va to'liqsiz o'rta o'quv yurti. 3 O'zbekistonda: o'rta maxsus kasb-hunar o'quv yurti². Ko'rinadiki bu so'zning ma'nolari ham izohli lug'atning keyingi nashrida to'ldirilgan holatda izohlangan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, eski nashrdagi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da keltirilgan inglizcha *kolledj* so'zi imlosi yangi nashrdagi lug'atga kiritilmagan. Xulosa chiqarish mumkinki, *kollej* leksemasi turli davlatlarda turlicha o'quv shakli sifatida qabul qilingan bo'lsa-da, yagona imloga ega bo'lgan *kollej* ko'rinishidagi ko'p ma'noli so'z sifatida ifodalanishi lozim.

Polisemantik hodisa – bu nutq jarayoninig mahsuli ekan, o'zlashma so'zlarning "meva"si uning nutq jarayonidagi turlicha yondosh ma'no anglatishiga bog'liq bo'ladi. Masalan, "O'zbek tilining izohli lug'ati"dagi o'zlashma inglizcha

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-jild, – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2007. 261-bet.

² O'zbek tilining izohli lug'ati. –T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2007. 2-jild, 389-bet.

soʻzlar kuzatilganda *blok* leksemasining 5 maʼnosi, *blokada* leksemasining 3 maʼnosi, *detektiv*, *standart* leksemalarining ot va sifat turkumiga xos 2 maʼnosi, *dizayn* leksemasining 2 maʼnosi, *innovatsiya* leksemasining 3 maʼnosi, *kollej* leksemasining 3 maʼnosi, *monitor* leksemasining 3 maʼnosi, *park* leksemasining 4 maʼnosi, *reyting* leksemasining 3 maʼnosi, *terminal* leksemasining 4 maʼnosi, *test* leksemasining 2 maʼnosi, *xaker* leksemasining 3 maʼnosi izohlangan. Bu kabi oʻzlashmalarning koʻp maʼnolilik xususiyatini koʻplab sanab oʻtish mumkin. Koʻrinadiki, inglizcha leksemalarning oʻzlashish tarixi uzoq davrga borib taqalmaydi, biroq oʻzbek tili leksikasida allaqachon oʻzining taraqqiyot yoʻlini topib olgan deyish mumkin.

Xulosa oʻrnida aytish joizki, oʻzbek tili leksikasidan oʻrin olgan inglizcha oʻzlashma soʻzlar semantikasidagi oʻzgarishlar sezilarli darajada boʻlib, ular polisemantik xususiyatga ega boʻlishdan tashqari, soʻz maʼnosining kengayishi, oʻzbekcha soʻz yasashida faol qatnashishi kabi til hodisalarida yetakchi mavqe egallaydi.

2. Oʻzlashma soʻzlarda leksik-semantik munosabatlar

Maʼlumki, jamiyat hayoti bilan birgalikda til ham rivojlanar ekan, bugungi kunda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy, maʼnaviy-maʼrifiy oʻzgarishlar leksikamizdagi soʻzlarning maʼnoviy munosabatlari oʻrganilishini talab etyapti.

Bugungi kunda tilga tizim sifatida qaralayotgan bir paytda tilshunoslikda lisoniy birliklarning maʼnoviy munosabati, ularning oʻzaro oʻxshash va farqli xususiyati masalasi koʻpgina tilshunoslarni oʻziga qiziqtirib qoʻymoqda. Oʻtgan asrimizning 40-90-yillarigacha soʻzlararo maʼnoviy munosabatlar sinonimiya va antonimiya bilan chegaralanib qoldi. Sistem tahlil usuli asosida olib borilgan keyingi kuzatishlarda tilimizda maʼnoviy munosabat rang-barang ekanligi oydinlashib, ularning graduonimiya, giponimiya, partonimiya, funksionimiya, iyerarxionimiya kabi turlari ham farqlandi. Shunga muvofiq maʼnodosh soʻzlar

bilan darajalangan soʻzlar qatorini farqlash ham oʻquvchilar uchun bugungi kun talabidir.

Lugʻaviy maʼnodoshlik sememasi tarkibidagi atash va vazifa semalari bir xil, ifoda semalari har xil boʻlgan, bir turdagi narsa-buyum, belgi-xususiyat, harakat-holatni ifodalovchi leksemalararo munosabatdir. Darajalanish esa umumiy atash semalari bir xil, lekin maʼlum bir semaning turli darajasini ifodalovchi leksemalardir. Bundan tashqari, maʼnodoshlik va darajalanish orasidagi ikkinchi farq shundaki, maʼnodoshlik qatoridagi leksemalar oʻzaro ifoda semalari bilan farqlansa, darajalanish qatorida bu shart boʻlmaydi. Tilshunosligimizda darajalangan soʻzlarni maxsus oʻrgangan olimlar Sh.Orifjonova graduonimlarda lugʻaviy paradigma bir yetakchi (dominanta) atrofida birlashishini taʼkidlab, «darcha» va «darvoza» soʻzlarining maʼnosi «eshik» yetakchi soʻziga nisbatan ochilishini qayd etadi va ularni darajalangan soʻzlar qatoriga kiritadi.

Leksik birliklar lisonida turli semantik munosabatlar asosida har xil paradigmalar hosil qilgan holda mavjud boʻladi. Sinonimik, antonimik, graduonimik, partonimik, giponimik munosabatlar ana shunday lisoniy munosabatlardir. Shulardan biri boʻlgan sinonimiya tilning serqirraligini, boyligini koʻrsatuvchi munosobatlardan biridir.

Shaklan har xil, ammo bir tushunchani turli boʻyoq va ottenkalar bilan ifodalaydigan leksemalar sinonimlar hisoblanadi. Sinonim leksemalar orasidagi munosabat sinonimiya yoki sinonimik munosabat deyiladi.

Park [ingl. *park* < lot. *parricus* - *ihota qilingan, oʻrab olingan joy*] leksemasi rus tili orqali oʻzlashgan inglizcha oʻzlashmadir. Uning Oʻzbek tilining izohli lugʻatida toʻrt maʼnosi keltirilgan boʻlib, **1** Gulzor, daraxtzor va xiyobonlari boʻlgan, dam olish, koʻngil ochish uchun moslashtirilgan katga bogʻ. *Park oqshomda yasan-tusan odamlar, rang-barang chiroqlar, xilma-xil ajoyibotlar bilan toʻlib, juda katta koʻrinar ekan.* P.Qodirov, Uch ildiz; **2** Transport vositalari (tramvay, avtobus, taksi kabilar) turadigan va ularga texnik xizmat koʻrsatiladigan joy. *Elmurod Muharram bilan xayrlashib, Xadraga kelganda, tramvaylar parkka kirib ketmoqda edi.* Shuhrat, Shinelli yillar; **3** Xalq xoʻjaligi, sanoat tarmogʻi,

korxona va shu kabilarga qarashli transport yoki ishlab chiqarish vositalari majmui. *Otasi – traktor parki qorovuli*. “Yoshlik”; 4 *harb*. Harbiy mashinalar va boshqa texnika vositalari saqlanadigan, ta’mirlanadigan hudud; shuningdek, harbiy mol-mulk saqlanadigan statsionar (ko‘chmas) yoki ko‘chma ombor. *Artilleriya parki* kabi misollar asosida izohlangan.

Zoopark leksemasi inglizcha o‘zlashma sifatida etimologik *zoo + park* shaklida qo‘shma so‘zlik tabiatiga ega bo‘lib, *hayvonot bog‘i* leksemasiga sinonim bo‘ladi.

Sinonim leksemalar sememalaridagi atash va vazifa semalari aynan bir xil bo‘lib, ifoda semalari farqlanadi. Misol sifatida yuz-bet-aft-bashara-turq qatorini keltirish mumkin. Ma’nodoshlik qatoridagi mazkur leksemalarning barchasida atash semalari bir xil: «odam boshi old tomoni», «peshanadan iyakkacha». Ammo ifoda semalari har bir leksemada o‘ziga xos. Aniqrog‘i, «shaxsiy munosabat» har bir leksemada boshqa-boshqa namoyon bo‘lgan. U yuz leksemasida «shaxsiy betaraf munosabat» ko‘rinishda bo‘lsa, turq leksemasida «o‘ta kuchli shaxsiy salbiy munosabat» tarzidadir.

Ma’nodoshlik qatoridagi leksemalarning ifoda semalari turli-tumandir. Ulardan ayrimlari quyidagilar:

- 1) ijobiy yoki salbiy baho yoxud munosabat semalari;
- 2) leksemaning qo‘llanish davrini ko‘rsatuvchi semalar: «eskirgan», «yangi», «o‘ta yangi», «arxaik», «tarixiy».
- 3) leksemaning qo‘llanilish doirasini ko‘rsatuvchi semalar: «shevaga xos», «so‘zlashuvga xos», «kitobiy», «ko‘tarinkilik» va boshqalar.

Ma’nodoshlik qatoridagi leksemalarning bittasi dominanta (bosh) leksemasi bo‘lib, boshqalari shu leksema atrofida birlashadi, ma’nodoshlik qurshovi hosil qiladi. Dominanta leksemaning yuqorida sanalgan barcha ifoda semalari neytral, betaraf bo‘ladi.

Ma’nodoshlik qatoridagi dominanta leksemaning bir qancha o‘ziga xos xususiyatlari bor:

1. Dominanta leksemaning mazmuni boshqa leksemalarnikiga nisbatan «kambag'al»roq bo'ladi. Qiyoslaymiz: chiroyli, go'zal va suluv. Ushbu qatordagi chiroyli leksemasida go'zal va suluv leksemasidagi ko'tarinkilik bo'yog'i yo'q.

2. Dominanta leksemaning qo'llanish doirasi va miqdori boshqa ma'nodoshlarnikiga nisbatan keng va ko'p bo'ladi.

3. Dominanta leksema belgilanmagan ifoda semasiga ega bo'lganligi bois istalgan vaqtda o'z ma'nodoshlarini almashtira oladi.

4. Ma'nodoshlik qatori mansub bo'lgan katta tizimga faqat dominanta leksema kiradi. Masalan, «kishi tanasi a'zolari» lug'aviy ma'noviy guruhiga yuz dominanta leksemasi kirib, quloq, burun, lab, qosh, peshona leksemalari bilan paradigma hosil qiladi. Boshqa ifoda semasi belgilangan leksemalar «betaraf» bo'lolmaganligi bois yuqori paradigmaga kira olmaydi va ularning betaraf vakili bu huquqqa ega bo'la oladi, xolos.

Ingliz tilidan o'zlashgan *biznes* leksemasi O'zbek tilining izohli lug'atida [ingl. *business* – ish, mashg'ulot] daromad keltiradigan, foyda olish maqsadlari ko'zlangan va qonunlarga xilof bo'lmagan har qanday tashkiliy, xo'jalik faoliyati ma'nosida izohlangan. Bu leksemaning mustaqillikdan so'ng qo'llanilishi faollashdi. O'z o'rnida *biznes* leksemasi *tijorat*, *savdo* so'zlariga ma'nodoshlik munosabatida bo'lsa, polisemantik xususiyatiga ko'ra ishbilarmonlik leksemasi bilan ham sinonimik munosabatda bo'ladi. Shunga muvofiq inglizcha qo'shma so'z hisoblangan *biznesmen* [ingl. *businessman* – biznes bilan shug'ullanuvchi shaxs], *ishbilarmon*, *tadbirkor* leksemalari bilan ko'p hollarda erkin almashinish xususiyatiga egadir.

Blokada [blockade – qamal; qurshamoq] *harbiy* sohaga oid so'z bo'lib, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da Dushman egallab turgan hududning ayrim qismini yoki hammasini qurshab olish, qamal qilish ma'nosiga ega. Uning eski kitobiy uslubga xos muhosara, shuningdek, *qamal*, *qurshov* so'zlari bilan ma'nodoshligini kuzatish mumkin.

Ma'nodoshlik paradigmasi doimo ochiq bo'ladi. Jamiyat, davr talabi asosida keraksizlari iste'moldan chiqib, qator yangilari bilan boyib boraveradi.

Nutqda ma'nodoshlik qatorlari nutqning atash birliklari, iboralar, mustaqil leksema sememalarining turlari, yasama so'zlar, so'z birikmalari, nutqiy ko'chma so'zlar bilan to'lib, kengayib boradi. Bular kontekstual sinonimlar sifatida nutqning go'zalligi va boyligini ta'minlovchi bebaho vosita sanaladi.

Mustaqillikdan so'ng tilimizga, xususan, inglizcha so'zlarning o'zlashishi kuchaydi, ayrimlarining esa ishlatilish o'rni faollashdi. *Broker* [ingl. broker – o'rtada turib vositachilik qiluvchi, dallol, makler] leksemasi lug'atimizda tovar, valyuta, savdo birjalarida oldi-sotdi bitimlari tuzishda vositachilik (dallollik) qiladigan ayrim shaxs yoki firma ma'nosida o'rinlashgan. Shuningdek, uning *dallol*, *vositachi* leksemalari bilan ma'nodoshlik kasb etishi tabiiy hol.

Sinonimiya va ko'p ma'nolilik munosabati ham xarakterlidir. Ko'p ma'noli so'z har bir ma'nosi bilan boshqa-boshqa sinonimik qatorda bo'lishi mumkin.

Detektiv [ingl. detective < lot. detectio - ochish, fosh qilish; aniqlash] leksemasining tilimizga ot va sifat so'z turkumlariga xos semalar bilan o'zlashganini kuzatish mumkin. Ot so'z turkumi sifatida jinoiy ishlarni qidirish, ochish bo'yicha mutaxassis; politsiyaning yashirin ayg'oqchisi: *josus* yoki *izquvar* leksemalari bilan alohida-alohida ma'nodoshlik kasb etsa, sifatlik xususiyatiga ko'ra josuslar, yashirin ayg'oqchilar, izquvarlar hayoti, sarguzashtlari, murakkab jinoyatlarning ochilishi haqida hikoya qiluvchi (badiiy asar yoki film) ma'nosida belgi ifodalaydi. *Detektiv* leksemasi semalarining ikki so'z turkumiga moyilligi sifatida izohlanishi bu so'zning leksikamizda keng planda ishlatilishi bilan belgilanadi.

Golkipper [ingl. goal-keeper – saqlovchi] leksemasi futbol, xokkey kabi o'yinlardagi *darvozabon* leksemasi bilan sinonimik munosabatda bo'ladi.

Dispetcher [ingl. dispatch - tez bajaraman] kasb-hunarga oid leksika bo'lib, transport vositalari harakatini yoki korxonadagi ish jarayonini xabar berish qurilmalari va aloqa vositalari: telefon, radiotelefon, signalizatsiya, faks va televizion uskunalari, kompyuter va shu kabilar orqali bitta markazdan, bir joydan

turib nazorat qiluvchi va boshqarib turuvchi xodim ma'nosida ishlatilsa, ko'chma ma'noda esa *dispetcher, tashkilotchi* sinonimik qatorini hosil qiladi.

O'zbek tilidagi o'z va o'zlashma qatlam so'zlari materiallariga e'tibor qilsak, tilda sinonimlar quyidagi yo'llar bilan paydo bo'lishini kuzatamiz:

- bir tildan ikkinchi tilga so'z o'tishi natijasida: *manglay, peshona; kuch, quvvat; josus, agent;*

- mahalliy shevalardan so'z olish natijasida: *do'ppi, kalapo'sh; buzoq, go'sala;*

- so'z yasalihi yo'li bilan sinonim hosil qilish, ya'ni yasama so'z tub so'z bilan: *his, sezgi; savol, so'roq; vazifa, topshiriq;*

- so'zning yangi ma'no kasb etishi bilan: o'rin so'zi joy va lavozim ma'nosida.

Gangster [ingl. gangster – bandit] leksemasini uyushgan jinoyatchilar guruhining ishtirokchisi ma'nosida *bosqinchi, bandit* leksemalari bilan ma'nodoshligi kuzatiladi.

Zombi [ingl. zombi(e) < afrika tillaridan: muqaddas ilon; afsun, jodugarlik bilan tiriltirilgan murda] leksemasi begona kimsaning ta'sir ko'rsatishi (kuchli uyqu dorilar, narkotiklar, ong-fikrni xiralashtiruvchi preparatlar, gipnoz va boshqa ruhiy vositalar ta'siri) yordamida birovning buyrug'iga, xohish-irodasiga so'zsiz bo'ysunadigan, mustaqil fikrlay olmaydigan, o'z shaxsi va erkiga ega bo'lmagan kishi, aniqrog'i, *manqurt* leksemasiga ma'nodosh deb hisoblash mumkin.

Interfaol leksemasi ham kalka usulida so'z o'zlashtirish usuli bo'lib, tilimizda o'z manbasi bo'lgan *interaktiv* [ingl. interactive] leksemasi bilan erkin so'z almashinish xususiyatiga ega. Tilimizda informatsiyani, axborotlarni kompyuter tarmog'i orqali qabul qilish yoki uzatishga asoslanganlik atash ma'nosini ifodalaydi.

Oromgoh [forsa daxma, maqbara; dam, orom olish xonasi] leksemasi kishilar dam oladigan, rohat qiladigan joy; maktab o'quvchilarining yozgi ta'tilda dam olishi uchun qurilgan joy kabi ko'p ma'nolilik xususiyatiga ega. Shunga yaqin bo'lgan *kemping* [ingl. camping < camp – lager bo'lib joylashmoq] leksemasi

avtosayohatchilar uchun qurilgan, chodirlar, kichik uychalari hamda avtomobilga texnik xizmat ko'rsatadigan joylari bo'lgan yozgi oromgoh ma'nosini ifodalaydi va ayrim o'rinlarda bu leksema bilan sinonimik munosabatda bo'lishi mumkin.

Layner [ingl. liner < line – chiziq, yo'l] leksemasining tilimizdagi birinchi ma'nosi muayyan bir yo'ldan qatnab, yuk yoki yo'lovchi tashiydigan katta tezyurar kema sifatida izohlanadi. Uning ikkinchi ma'nosi esa uzoq masofaga ma'lum yo'nalishda katta tezlikda uchuvchi ko'p o'rinli yo'lovchi samolyoti tushunchasi teng keladi va leksema bilan sinonimik munosabatda bo'ladi. Odatda bunday o'rinlarda u havo layneri moslashuv ko'rinishidagi birikma sifatida ishlatiladi.

Lider [ingl. leader – yetakchi, boshliq, rahbar] leksemasi biror siyosiy partiya yoki tashkilotning asosiy a'zosi ma'nosida *yo'lboshchi, rahbar* leksemalariga sinonim bo'lsa, polisemantik xususiyatiga ko'ra boshqa ma'nosi bilan sport musobaqalarida oldinda boruvchi shaxs yoki jamoa ma'nosini ifodalaydi. Okkozional xususiyatga ko'ra *yetakchi, peshqadam* leksemalari bilan ham ma'nodosh bo'la oladi.

Methodist [ingl. methodists < юн. methodos] leksemasi rus tili orqali o'zlashgan inglizcha o'zlashma bo'lib, metodika mutaxassisi tushunchasini ifodalaydi. Matnda *uslubchi* leksemasi bilan erkin almashinish xususiyatiga ega.

Otel [fr. hotel – hashamatli uy, bino] leksemasi fransuzcha bo'lib, mehmonxonaning xalqaro nomi sifatida ishlatiladi. Biroq u bilan uyadosh bo'lgan **мотель** [ingl. motel < motor - avtomobil + hotel – mehmonxona] leksemasi inglizcha olinma sifatida avtosayyohlar uchun mo'ljallangan, bir qator xizmat turlariga (texnik xizmat ko'rsatish va yonilg'i quyish stansiyalari, garajlar, to'xtash joylari va boshqalarga) ega bo'lgan mehmonxona tushunchasini ifodalaydi. Ko'rinadiki, *otel, motel va mehmonxona* leksemalari nutqiy sinonimik xarakterga ega.

Tilimizga etimologiyasi inglizcha press – matbuot, bosish lug'aviy ma'nosi bilan bog'liq bir necha rus tili orqali o'zlashgan juft so'zlar bor. Masalan, *press-byuro* [ingl. press-bureau < fr.] o'z muqobili bo'lgan matbuot byurosiga, *press-konferensiya* [ingl. press-conference < fr.] *matbuot konferensiyasi* leksemasi bilan

press-sekretar [ingl. presse-secretary] leksemasi esa prezident yoki bosh vazirning matbuot bo'yicha kotibi ma'nosida matbuot kotibi leksemasi bilan erkin almashinish xususiyatiga ega. Biroq hozirda *press-byuro*, *press-konferensiya*, *press-sekretar* leksemalarining qo'llanilishi o'z muqobillariga nisbatan passivlashgan.

Ko'rinib turibdiki, sinonimlarning material asoslari turlicha bo'lib, ular umumiy ma'nolari asosida o'zaro bog'lanadilar. Har bir sinonim so'z ma'no ottenkalariga ko'ra farqlanadi. Shuning uchun ham ularning ba'zilarini ikkinchisining o'rnida ishlatib bo'lmaydi.

Og'zaki va yozma nutqda sinonimlarning amaliy ahamiyati katta. Sinonimlar so'zni o'rinsiz takror ishlatishga yo'l qo'ymaydi, uslubning ravonligini ta'minlaydi.

Reyting [ingl. rating – baho, daraja] leksemasining lug'atda uch ma'nosi qayd etilgan: **1** O'quvchilar va talabalar bilimini nazorat qilish va baholash usuli va tizimi; **2** Sport sohasida sportning ba'zi turlarida (masalan, shaxmatda) erishilgan yutuqlarning samaradorligi va nufuzini baholashda raqamlar bilan ifodalanadigan shaxsiy ko'rsatkich; **3** Siyosat, madaniyat va boshqa sohalardagi taniqli arboblarning jamoatchilik fikrini o'rganish yo'li bilan aniqlanadigan mashhurlik darajasi. Bu leksema nufuz, obro', maqom shuningdek, o'rni bilan status leksemalari bilan ham ma'nodoshlik munosabatiga kirishadi.

Reportyor [ingl. reporter] leksemasi tilimizga arab tilidan o'zlashgan *muxbir* leksemasi bilan erkin almashish xususiyatiga ega.

Referi [ingl. referee < lot. refero – xabar qilaman] leksemasi sport musobaqalari (masalan, futbol, kurash, boks, tennis kabilar)ni o'tkazuvchi hakam, sudya leksemalari bilan ma'nodosh bo'lsa ham, hakamlikning xalqaro nomlaridan biri hisoblanadi.

Etimologik asosi yapon tiliga mansub bo'lgan *riksha* [ingl. ricksha – yap. dzinrikisya < dzin – odam + riki – kuch + sya – arava] leksemasi leksikamizga ingliz tilidan o'zlashgan bo'lib, Sharqiy va Janubiy Osiyoning ayrim mamlakatlarida odam tortib yuradigan, odam va yuk tashuvchi ikki g'ildirakli

qo‘larava va shunday aravani tortib yuruvchi kishi, hammol leksemasiga sinonim hisoblanadi.

Sayt [ingl. site – o‘rin, joy] leksemasi hozirda faol leksemdir. Internetda muayyan mavzu yo‘nalishi bo‘yicha to‘plangan va shakllantirilgan, doimo yangilanib, to‘ldirib boriladigan, o‘z nomi (sarlavhasi)ga ega bo‘lgan ma’lumotlar yig‘indisi ma’nosida ishlatiladi, o‘rni bilan elektron sahifa leksemasi bilan ma’nodoshlik hosil qiladi.

Ingliz tilidan o‘zlashgan leksema orasida sifat turkumiga mansubi ham o‘rni bilan uchrab turadi. *Sentimental* [ingl. sentimental < fr. sentiment – his-tuyg‘u < lot. sentire – sezmoq, his qilmoq] leksemasi ko‘p ma’noli so‘z sifatida ko‘ngli bo‘sh, ko‘ngilchanlik tushunchasini ifodalaydi va *ko‘ngilchan*, *ta’sirchan* leksemalari bilan ma’nodoshlik hosil qiladi.

Skver [ingl. square – to‘rtburchak maydon < lot. exquadrare – to‘rtburchak qilib qirqmoq] leksemasi ikki tomoniga qator daraxt, buta va gullar o‘tqazilgan yo‘l yoki yo‘lka, sayrgoh ma’nosida forsha *xiyobon*, nutqiy holatda fransuzcha *bulvar* [fr. boulevard – shahar devori; ikki tomonlama harakatli ko‘cha o‘rtasidagi keng xiyobon] leksemasiga sinonim hisoblanadi.

Homiy arabcha bo‘lib, ingliz tilidan o‘zlashgan *sponsor* [ingl. sponsor < lot. spondeo – kafil bo‘laman, kafolat beraman] leksemasiga qaraganda ko‘p asrlik tarixga ega. Biroq *sponsor* leksemasi ham qisqa muddat ichida o‘zbek tili leksikasida o‘z o‘rnini topib ulgurdi.

Bizga ma’lumki, tilimizda tovush tomoni bir xil bo‘lib, turlicha ma’nolarni ifodalovchi so‘zlar va qo‘shimchalar shakldoshlar (omonimlar) hisoblanadi. Shakldoshlik leksemalar, morfema (qo‘shimcha)lar va frazeologik birliklar orasida ham mavjud. *Keys* [ingl. case – portfel] leksemasi diplomatga o‘xshash yapasqi qattiq portfel ma’nosida bo‘lib, zamonaviy pedagogik texnologiyada qo‘llanayotgan *keys* (*keys-stadi*) leksemasiga omonim hisoblanadi. Bu ikki leksemaning ham o‘zlashish va olinish manbasi bir bo‘lsa-da, o‘zlashishiga ko‘ra makon va zamon jihatidan o‘ziga xos farqlarga ega. O‘quv vaziyat tushunchasini ifodalovchi *keys* (*keys-stadi* inglizcha sase – yig‘ma, aniq, amaliy holat, stadi-

o'quv) o'quv uslubi bo'lib, u tashkilot, shaxslar guruhi yoki alohida shaxslar hayotidan olingan real vaziyat yoki talabalarni muammoni aniqlash va uni maqsadga muvofiq yechish variantlarini qidirishga yo'naltiruvchi, tashkiliy hayotda vujudga keladigan muammolarni aks ettiruvchi yasama (sun'iy) vaziyatga asoslanadi¹.

Leksik (lug'aviy) omonimlar nutq jarayonida, ayniqsa, so'z o'yinida so'zlovchining nutqiy mahoratini ko'rsatish uchun imkoniyat yaratadi.

O'zbek tiliga o'zlashgan inglizcha o'zlashma leksemalar orasida omonim leksemalar ham o'ziga xos. Ular sirasiga *bar, boks, boks, boks, jaz, kart, logistika, pas, reyd, pom, standart, tanketka, tender, tik, fen* kabi leksemalarni kiritish mumkin.

Zid ma'nolilik sinonimlar singari o'zaro so'z va qo'shimchalarga ham xos. Leksemalar orasidagi zidlik leksik (lug'aviy) antonim, morfemalar orasidagi zidlik esa affiksial antonimlar hisoblanadi.

Import [*ingl.* import < *lot.* importare – kiritmoq; olib kirmoq] leksemasi iqtisod sohasida ichki bozorda sotish yoki uchinchi bir davlatga tranzit qilish uchun mamlakatga chet ellardan tovarlar, xizmatlar, qimmatli qog'ozlar va boshqalar olib kirish ma'nosiga ega bo'lib, unga teskari ma'no ifodalovchi *eksport* [*ingl.* export < *lot.* exportare – chetga (tashqi bozorga) chiqarmoq] leksemasi bilan antonimik munosabatga kirishadi.

O'zbek tilining izohli lug'atida keltirilishicha, *menejerlar* [*ingl.* manager – boshqaruvchi] leksemasi shu ko'rinishda bo'lib, korxona va kompaniya egalari bo'lmagan, maxsus tayyorgarlik ko'rgan malakali yollanma boshqaruvchilar ma'nosini ifodalaydi. Matnlar tarkibida kelgan menejer va ish boshqaruvchi leksemalari o'zaro erkin almashinish xususiyatiga ega va sinonim hisoblanadi.

Sinonimiya va antonimiya hodisasi nutqda fikrimizni ta'sirli ifodalashda xizmat qiladi. Ayniqsa, badiiy adabiyotda ijodkorlar bundan o'rinli foydalanishadi.

¹ Bekmuradov A.Sh., L. V. Golish va boshqalar. Loyihaviy ta'limning texnologiyasi. –T.: TDIU, 2009. 88- bet.

Tilshunos olim Sh.Rahmatullayevning fikricha, leksik arxaizm o'z mohiyatiga ko'ra ikki guruhni tashkil qiladi:

a) leksema yaxlitligicha arxaizm bo'ladi. Buni *arxaizm-leksema* deb nomlash mumkin: *sas-* (G'afur G'ulom, "Avval o'qi"), *yit-* (G'afur G'ulom, "Biz tinchlik istaymiz"), *zamlar-* (G'afur G'ulom, "Ozarbayjonlik paxtakor qardoshlarga") kabi.

b) leksema emas, balki uning sememalaridan biri arxaizm bo'ladi. Buni *arxaizm-semema* deb nomlash mumkin: *tik-* ("ek-" ma'nosida - G'afur G'ulom, "Terimchi qizlarga") kabi.

Leksik arxaizmning har ikki turi leksik ma'noga asoslanadi. Shunga ko'ra arxaizmning bu turlarini "leksik arxaizm", "semantik arxaizm" deb nomlash to'g'ri bo'lmaydi. Arxaizm-leksema monosemem leksemaning eskirishi natijasida, arxaizm-semema esa polisemem leksemaga xos sememalardan birining eskirishi natijasida yuzaga keladi. Har ikki turdagi arxaizmning voqe bo'lishi tilning o'z taraqqiyot yo'li bilan bog'liq. Arxaizm-sememaga nisbatan arxaizm-leksema ko'p bo'ladi¹.

Kompakt-disk [ingl. compact-disk] leksemasi diametri uncha katta bo'lmagan, doimiy, o'chmaydigan tovush signallari (musiqa, qo'shiq, matn va boshqalar) yozib olingan optik disk sifatida izohlanadi.

Leksik sath tez o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega. *Disketa* [ingl. diskette – kichik disk] texnika sohasiga oid bu leksema kompyuterning tashqi ma'lumotlar saqlanadigan, almashinuvchi yassi qurilmasi; egiluvchan magnit diskli kasseta sifatida izohlangan bo'lib, hozirgi vaqtda arxaik xarakterga ega.

Trest [ingl. trust – ishonch] leksemasi izohli lug'atda quyidagicha izohlangan: *iqt. 1* Monopoliya shakllaridan biri – tadbirkorlar (firmalar) ning iqtisodiy birlashmasi; bunda ishtirokchilar o'zlarining avvalgi ishlab chiqarish, tijorat va yuridik mustaqilligini to'la yo'qotib, yagona boshqaruvga bo'ysunadilar. *2 esk.* Sobiq ittifoq mamlakatlarida: mahsulotlarning bir turdaligi yoki xomashyoga

¹ Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili -T. Universitet. 2006. 89-bet.

ishlov berish bosqichlari bo'yicha o'zaro bog'langan korxonalar birlashmasi. Ko'rinadiki, leksemaning ikkinchi ma'nosi eskirgan bo'lib, yuqoridagi nazariy ma'lumotlarni tasdiqlaydi.

Reyd I [ingl. raid – yopirilib kelish, bosib kelish < nem. bereit – tayyor, shay] leksemasi ham rus tili orqali o'zlashgan bo'lib, hozirgi kunda ishlatilish o'rni kengaygandir. Lug'atda **1** Davlat yoki jamoat tashkilotlari, matbuot organlari topshirig'iga muvofiq muayyan obyektlarni, korxona va shu kabilar faoliyatini to'satdan tekshirish; **2** Harbiy sohada dushmanning bazalariga, shtab va boshqa obyektlariga qarshi jangovar ish olib borish maqsadida harakatdagi harbiy yoki partizan otryadlarining dushmanning orqa tomoniga o'tishi ma'nolari ko'rsatilgan.

BOB BO'YICHA XULOSA

Mustaqillikkacha bo'lgan so'z o'zlashish jarayonida ayrim leksemalarning tilimizga rus tilining fonetik, leksik, morfologik yoki sintaktik hodisalariga moslashgan holda o'zbek tili leksikasiga o'zlashganini kuzatish mumkin. *Trenirovka* leksemasi ham shu hodisa mahsuli bo'lib, ma'lum sifat-xususiyatlarga ega bo'lish yoki ularni saqlab qolish uchun muntazam ravishda amalga oshiriladigan mashqlar, mashg'ulotlar tushunchasini ifodalaydi. Bu leksemaning asl varianti mustaqillikdan so'ng *trening* shaklida o'zlashtirildi.

Trening leksemasining faollashganini hozirgi paytda turli vaqtli matbuot sahifalarida ham kuzatish mumkin. Bu leksema *seminar-trening*, *o'quv-trening* leksemalari tarkibida ham uchrab turadi. O'zlashish tarixi bo'lmagan bu leksema ingliz tilida keng ma'noda ishlatilsa-da, hozirda tilimizda ko'proq o'quv sohasiga xoslangan holda qo'llanmoqda.

Leksik sath tez o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega. Ijtimoiy hayotimizdagi o'zgarishlar sabab *trest* leksemasining izohli lug'atda ko'rsatilgan sobiq ittifoq

mamlakatlarda mahsulotlarning bir turdaligi yoki xomashyoga ishlov berish bosqichlari bo'yicha o'zaro bog'langan korxonalar birlashmasi tarzidagi ikkinchi ma'nosi eskirgan.

Tilning leksik tarkibi jamiyatning siyosiy, madaniy va ma'naviy hayoti bilan bog'liq ravishda takomillashib boradi. Lug'atlar ham jamiyatdagi siyosiy-ma'naviy qarashlarga mos holda yaratiladi. Eski va yangi nashrdagi "O'zbek tilining izohli lug'ati" dagi *biznes*, *fermer*, *savdogar* leksemalariga berilgan izohlar qiyoslanganda yangi nashrdagi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da bu birliklarning tuzumga nisbatan xolisona va yangicha ifoda olgani ma'lum bo'ladi.

Polisemantik hodisa – bu nutq jarayoninig mahsuli ekan, o'zlashma so'zlarning "meva"si uning nutq jarayonidagi turlicha yondosh ma'no anglatishiga bog'liq bo'ladi. Masalan, "O'zbek tilining izohli lug'ati"dagi o'zlashma inglizcha so'zlar kuzatilganda *blok* leksemasining 5 ma'nosi, *blokada* leksemasining 3 ma'nosi, *detektiv*, *standart* leksemalarining ot va sifat turkumiga xos 2 ma'nosi, *dizayn* leksemasining 2 ma'nosi, *innovatsiya* leksemasining 3 ma'nosi, *kollej* leksemasining 3 ma'nosi, *monitor* leksemasining 3 ma'nosi, *park* leksemasining 4 ma'nosi, *reyting* leksemasining 3 ma'nosi, *terminal* leksemasining 4 ma'nosi, *test* leksemasining 2 ma'nosi, *xaker* leksemasining 3 ma'nosi izohlangan. Bu kabi o'zlashmalarning ko'p ma'nolilik xususiyatini ko'plab sanab o'tish mumkin. Ko'rinadiki, inglizcha leksemalarning o'zlashish tarixi uzoq davrga borib taqalmaydi, biroq o'zbek tili leksikasida allaqachon o'zining taraqqiyot yo'lini topib olgan deyish mumkin.

III BOB. O‘ZBEK TILIDA INGLIZCHA O‘ZLASHMA SO‘ZLAR SISTEMASI

1. O‘zlashmalarning mavzuvii guruhi

Inglizcha o‘zlashmalar sinonimik, antonimik kabi leksik-semantik munosabatlarda bo‘lar ekan, muayyan paradigma a‘zolari bilan birgalikda mavzuvii guruhlariga birlashadi. Bu kabi mavzuvii guruhlar tilda iyerarxik (pog‘onali) munosabatlar asosida o‘z o‘rniga ega bo‘ladi.

Tilning lug‘at tarkibi jamiyatdagi o‘zgarishlarga mos rivojlanishda bo‘lar ekan, leksikaning boyishida o‘zlashma so‘zlarning o‘rni birlamchi vazifa bajaradi.

Istiqloldan so‘ng o‘zlashma so‘zlarning tilimizga bevosita o‘zlashishi kuchaydi. Xususan, inglizcha o‘zlashmalar bunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tilimizga o‘zlashgan inglizcha so‘zlarni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma‘rifiy va sport sohasi mavzuvii guruhlariga ajratib o‘rganish mumkin. Sport sohasi mavzuvii guruhiga oid inglizcha o‘zlashmalar mustaqillikdan so‘ng shu qadar ko‘p o‘zlashdiki, ularni madaniy-ma‘rifiy soha so‘zlaridan ajratib, sistemali tarzda o‘rganish qulay va o‘rinlidir. Hozirgi paytda bu so‘zlarning ko‘pchiligi zamonaviy qatlam so‘zlari sifatida og‘zaki va yozma nutqda faol ishlatilmoqda. Inglizcha o‘zlashmalarni quyidagi mavzuvii guruhlar asosida tasniflab o‘rganish mumkin:

1. ijtimoiy-siyosiy sohaga oid mavzuvii guruh leksikasi;
2. iqtisodiy sohaga oid mavzuvii guruh leksikasi;
3. madaniy-ma‘rifiy sohaga oid mavzuvii guruh leksikasi;
4. sport sohasiga oid mavzuvii guruh leksikasi.

Bugungi kunda hali lug‘atlarimizda qayd etilgan ko‘pgina o‘zlashmalar matbuot sahifalarida qo‘llanib kelmoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalari doirasida qo‘llanayotgan ko‘plab leksemalarning o‘zbekcha – lug‘atlarda tavsiya etilgan variantlari mavjud emas. Bizningcha, ularni zarurat bo‘lsa, tilimiz tabiatiga mos ravishda o‘zbekchalashtirib, lug‘atlarimizga kiritish lozim bo‘ladi.

Quyida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy va sport sohasiga oid mavzuviy guruh so'zlarini ichki bo'linishlar asosida tasniflab o'rganamiz.

Oziq-ovqat mahsulotlari nomi: *bifshteks, gamburger, yogurt, keks, ketchup, jem* kabilar.

Ichimlik nomlari: *kokteyl, koka-kola, pepsi-kola, pom, viski* kabilar.

Kiyim-kechak nomlari: *jemper, jinsi, kovboyka, pidjak, pijama, sviter, trusi, reglan* kabilar.

Uy-ro'zg'or buyumlari nomi: *mikser, pleyer//pleyyer* kabilar.

Kosmetika va maishiy mavzuga oid: *sheyping, shampun, fen, servis* kabilar.

O'rin-joy tushunchasini anglatuvchi nomlar: *vokzal, dendropark, drenaj, skver, kemping, klub, kollej, kottej, motel, bar (kichik restoran, mayxona), tunnel, zoopark, xoll park, supermarket* kabilar.

Mato nomlari: *belting, tik, reps, sheviot, neylon, koverkot* kabilar.

Tansport vositalari nomi: *trolleybus, ekspress, tramvay, pikap, layner, treyler, tanker* kabilar.

Ilmiy terminologiya:

Fan sohalari, yo'nalishlar nomi: *logistika, ufologiya, menejment* kabilar.

Dunyoqarash, nazariya va ijtimoiy-siyosiy soha terminlari: *formalizm, sentrizm, tred-yunionizm, dominion, impichment, lokaut, sammit, sentrist, leyborist, lider, miting, spiker, charter, boykot* kabilar.

Iqtisodiy soha va savdo-sotiqqa oid: *lizing, eksport, banknot, broker, warrant, vaucher, grant, demping, diler, diskont, import, importyor, investor, barter, budjet, marketing, menejer, xolding, kliring, konsalting, barmen, biznesmen, biznes* kabilar.

Tibbiyot sohasiga oid: *ketgut, shok, gaymorit, traxeit, xinin, guttapercha, stress, drenaj* kabilar.

Matbaachilik (noshirlik)ka oid: *press-konferensiya, press-sekretar, printer, rotaprint* kabilar.

Rasmiy domiralardagi uchrashuv, yig'in nomi: *brifing* kabi.

Tashkilot va tashkilot nomlari: *Interpol, tred-yunion, aeroklub, press-byuro, provayder* kabilar.

Texnika, texnik vosita va jihoz nomlari: *terminal, avtokar, antifrizlar, avtoralli, vulkanizatsiya, bluming//blyuming, kreking, skreper, taymer, forsunka, lazer, server, jin, blok, buldozer, vagon, ekskavator, kombayn, magneto, starter, stop-kran, karter, bufer, nippel, guttapercha* kabilar.

Sport sohasiga oid: *aut, autsayder, badminton, biznesmen, basketbol, ping-pong, vaterpolo, velotrek, kart, karting, kort, match, motobol, lider, motokross, nokaut, nokdaun, raund, regbi, rekord, rekordsmen, ring, set, spidvey, sport, sprint, sprinter, start, taym-aut, tennis, trek yo 'lka, trener, trenirovka, final, finish, futbol, xokkey, chempionat, yaxta sport qayig'i, yaxtsmen, bullit, butsi, voleybol, gandbol, geym, gol, golkipер, golf, referi, sportsmen, boks, pas, ralli, reyting, trenajyor, stayyer, kanoe, taym, bodibilding, kema* kabilar.

Axborot texnologiyalari, telegraf (aloqa tizimi) sohasiga oid: *displey, printer, monitor, multimedia, skaner, kompakt-disk, tiker, internet, sayt, peyjer, peyjing, xaker, fayl, disketa, kartrij, teleks, teletayp, telefaks* kabilar.

Pul birligi nomlari: *dollar, sent, shilling, funt sterling* kabilar.

Hajm-o'lchov birligi: *barrel* kabi.

Harbiy ish va harbiy sanoatga oid: *blokada, tanketka, revolver, snayper, park* kabilar.

Pedagogika, psixologiya va maorifga oid: *topik, interaktiv, reyting, innovatsiya, keys, test, trening, metodist* kabilar.

Tarix faniga oid: *feodalizm, sentralizm* kabilar.

Fizika fani va radiotexnikaga oid: *vattmetr, dielektrik, neytron, radar, spidometr, tranzistor, reaktor* kabilar.

Biologiya, botanika, fiziologiya, geografiya fani sohalarga oid: *klon, mimikriya, vilt, dendropark, aysberg* kabilar.

Kimyoga oid: *fosforit, potash, spirt, koks, kompost, lyuizit, toner, formalin, fosfatlar, furfurool, dust, reagent, reaktor* kabilar.

Zoologiya: *buldog, gorilla, gibbon, kenguru, broyler* kabilar.

Jurnalistika sohasiga oid: *intervyu, reportaj, reportyor* kabilar.

Adabiyot, san'at, musiqaga oid: *triller, detektiv, pamflet, folklor, yumor, dizayn, detektiv, film, prodyuser, diafilm, serial pop-musiq, jaz, klip, rekorder, shou* kabilar.

Tilshunoslikka oid: *innovatsiya, volapyuk* kabilar.

Narsa-buyum otlari: *seyf, skotch, tent, soyabon, kanistr(a), konteyner;*

Yel-yog'in otlari: tayfun kabi.

Jarayon otlari: *monitoring, filtratsiya, eskalatsiya* kabilar.

O'quv quroli: *keys, flomaster* kabilar.

Kasb, hunarmandchilik va boshqa biror harakat bilan shug'ullanuvchi shaxs oti: *kovboy, doker, barmen, biznes, biznesmen, detektiv, riksha* kabilar.

Insonlarning shakl-ko'rinishi: *liliput* kabilar.

Insonlarning ruhiy holati: *zombi* kabilar.

Insonlarning xarakter-xususiyati belgisi: *xuligan, sentimental* kabilar.

Diyetologiya (ovqatlanish to'g'risidagi hozirgi zamon fani)ga oid: *vegetarian* kabi.

Dengizchilikka oid terminlar: *kanoe, kater, akvalang, trauler* kabilar.

Qishloq xo'jaligiga oid: *chizel* kabi.

Qurilish sohasida: *pemza* kabi.

Temir yo'lga oid: *rels, tender* kabi.

Narkotik modda nomlari: *doping* kabi.

Yonilg'i mahsuloti nomi: *kerosin* kabi.

kimyoviy tarkibli elastik modda: *kauchuk* kabi.

Terrorizm va qo'paruvchilikka oid: *gangster, reket* kabilar.

Etnografiyaga oid termin: *totem, totemizm* kabilar.

Chizmachilikka oid: *vatman* kabi.

Gidrotexnik inshoot: *pirs* kabi.

Ijtimoiy tabaqa: *lord, fermer* kabi.

Binokorlik sohasidagi: *lift, eskalator* kabilar.

Vaqtli (davriy) nashrlarda boshqotirma turi: *krossvord, chainvord* kabi.

Rasmiy me'yoriy-texnik hujjat nomi: *standart* kabi.

(Angliya va Amerikada) erkaklarga nisbatan, odatda, ism yoki familiya oldiga qo'shib qo'llanadigan so'z: *mister* kabi.

Marosimlardagi qadah nutqi: *tost* kabi.

Leksemalarning mavzuviiy guruhlarini turlicha tasniflar asosida o'rganish mumkin. Masalan, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, sport mavzusidagi va ularning ichki bo'linishidagi fan, san'at, dengizchilik, temir yo'l, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik qurilish, savdo-sotiq, tibbiyot, matbaachilik, axborot texnologiyalari, telegraf, harbiy, maishiy mavzularga oid leksemalar o'ziga xos tizimga ega.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari nomi, ichimlik nomlari, kiyim-kechak nomlari, uy-ro'zg'or buyumlari nomi, tashkilot nomlari, o'rin-joy tushunchasini anglatuvchi nomlar, mato nomlari, transport vositalari nomi, narkotik modda nomlari, yonilg'i mahsuloti nomi, texnik jihoz nomlari ham o'zbek tili leksikasidagi ayrim mavzuviiy guruhlarining bo'sh o'rinlarini to'ldirishga xizmat qilmoqda.

Inglizcha o'zlashma leksemalar orasida fan sohasi va ilmiy terminlarning alohida o'z o'rnini bor. Xususan, pedagogika, psixologiya, etnografiya, fizika, jurnalistika, tarix, adabiyot, musiqa, tilshunoslik, biologiya, botanika, fiziologiya, diyetologiya, geografiya, kimyo, zoologiya, chizmachilikka oid birliklar ham ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Inglizcha o'zlashma leksemalar orasida maishiy, savdo-sotiq borasidagilari ham o'ziga xos bo'lib, supermarket leksemasi hozirda neologizmlilik xususiyatni yo'qotib, zamonaviy qatlamga o'tgan deyish mumkin. Savdo maskani uyasiga kiruvchi *do'kon*, *minimarket*, *supermarket*, *gipermarket*, *megamarket*, *savdo majmuasi* (*Moll ing.* "mall" – xiyobon) leksemalari mavjud bo'lib, *gipermarket* leksemasi neologizm xarakteriga ega. *Megamarket*, *moll* leksemalari esa rus tili leksikasiga xos bo'lib, o'zbek tiliga o'zlashmagan.

Bu leksemalar o'ziga xos ma'noviy farqlanishga ega bo'lib, bu farqlanish qaysi turdagi savdo mahsulotlarini sotish, umumiy yer maydoni, omborxonasi

maydoni, bir vaqtning o'zida qancha xaridorni qabul qila olishi, xizmat ko'rsata olishi, kassa apparatlari soni, sotuvchilar miqdori, kerakli mahsulotlarni qancha miqdorda yetkazib bera olish qobiliyati kabilar bilan ham farqlanadi. Ularning o'zaro farqini quyida kuzatishimiz mumkin.

Eng yirik savdo maskani bo'lgan *savdo majmuasi* hisoblanib, uning umumiy yer maydoni 1000 kv.m. dan 100 000 kv.m. gacha o'zgarib turadi. Xorijiy davlatlarda uning moll deb ataladigan varianti mavjud bo'lib, uning ichkarisida mashinalar yurishiga ruxsat etilmaydi. Moll, asosan, yirik magazinlar qatoridan tashkil topib, o'rni bilan ular orasida galereya, restoran, kafe, sartaroshxona, kinoteatr kabilar ham mijozlarga xizmat ko'rsatib turadi.

Keyingi savdo maskani *gipermarket*ning yer maydoni 3000 kv.m. atrofida bo'lib, omborxonasining maydoni esa 1000 kv.m. bo'lishi talab etiladi.

Savdo maskanlari ichida keng tarqalgan turlaridan biri supermarketning umumiy yer maydoni 400 kv.m.dan 1500 kv.m. gacha yetadi, omborxonasi 250 kv.m.dan 600 kv.m. gacha cho'ziladi.

Hozirda eng keng tarqalgan turlaridan yana biri *minimarket* savdo maskani esa 200 kv.m. dan 600 kv.m.gacha yetadi.

Do'kon esa arabcha bo'lib, tilimizda biror narsa sotish uchun maxsus jihozlangan savdo-sotiq xonasi sifatida izohlangan. Shuningdek, yuqoridagilardan tashqari katta yoki kichik turdagi savdo maskanlari nomi ham tilimizda uchrab turadi.

Ko'rinadiki, savdo maskanlari sifatida sanalgan *savdo majmuasi*, *gipermarket*, *supermarket*, *minimarket*, *do'kon* kabi leksemalar uchrab turadi. Bu leksemalar leksik-semantik xususiyatiga ko'ra o'zaro graduonimik (darajalanish) munosabatni tashkil etadi.

Inglizcha o'zlashma leksemalar, asosan, ot, o'rni bilan, boshqa turkum doirasida leksik-semantik munosabatlarga ega bo'ladi. Insonlarning xarakter-xususiyat belgisini ifodalovchi *xuligan* leksemaci sifat turkumidagi *bezori*, *bezori*, *bevosh*, *avbosh* leksemalariga, *sentimental* leksemaci esa *ko'ngli bo'sh*, *ko'ngilchan*, *yig'loqi* kabilar bilan ma'nodoshlik munosabatiga kirishadi.

O'zbek tili leksikasidan o'rin olgan inglizcha o'zlashma so'zlar semantikasidagi o'zgarishlar sezilarli darajada bo'lib, ular polisemantik xususiyatga ega bo'lishdan tashqari, so'z ma'nosining kengayishi, o'zbekcha so'z yasalishida faol qatnashishi kabi til hodisalari jarayonida yetakchi mavqe egallaydi.

Inglizcha o'zlashmalarning tilimizda qo'llanilishi faollashayotgan ekan, ayrim o'zlashmalarning lug'aviy ma'nosi bilan bog'liq etimologik tarixi ham til sohiblari uchun qiziqish uyg'otmoqda. Masalan, o'zlashish tarixi mustaqillikkacha bo'lgan *kovboy* [*ingl.* cow-boy < cow – sigir + boy – yigit] leksemasining AQShning g'arbiy shtatlarida otliq cho'pon, podachi; mard, jasur yigit ma'nosini ifodalashi g'ayritabiiy tuyulmaydi. Mustaqillikdan so'ng o'zlashgan, yoshlarning mazali va yengil ovqat hisoblangan *xot-dog* [*ingl.* hot – qaynoq, issiq; dog – it] leksemasi esa ingliz tilidan boshlang'ich ma'lumoti bo'lgan kishida ham kuchuk go'shtidan tayyorlangan taom nomi bo'lishi mumkinligi haqida shubha uyg'otadi. Biroq bu kabi nomlanishi o'z tarixiga ega bo'lgan taom nomlarining etimologiyasi yirik hajmdagi izohlarni talab etadi. Internet sahifalarida *xot-dog* 1884-yilda sosiskaning sinonimi sifatida ishlatilgani, o'sha paytda sosiska tayyorlovchilarning shiori bo'lgan "*Love me, love my dog*", ya'ni shunga mos *egasini hurmat qilsang, itiga suyak tashla* qabilidagi iboraning ishlatilishi, bu nomning ilk bora Berri Popik tomonidan tilga olinib boshlangani, 1906-yilda esa mashhur multfilm yaratuvchisi Tomas Aloysius Dorgan tomonidan e'tirof etila boshlangani bayon etiladi. Shuningdek, *xot-dog* so'zining etimologiyasi bilan bog'liq boshqa versiyalari ham aytib o'tiladi. Qisqasi, *xot-dog*da umuman kuchuk go'shti yo'qligi, faqatgina mol yoki tovuq go'shtidan tayyorlanishi qayd etiladi. O'zlashish tarixi mustaqillikkacha bo'lgan *kokteyl* leksemasi ham inglizcha *cocktail* – *xo'rozning dumi* lug'aviy ma'nosida o'z etimologik tarixiga ega.

Inglizcha o'zlashmalar tilimizga narsa-hodisa yoki belgi kabi tushunchalarning nomi sifatida tayyor holatda kirib kelsa-da, ularning o'z tilidagi etimologik tarixi ham kishini beqarq qoldirmaydi. bezori ma'nosidagi *xuligan* [*ingl.* hooligan] leksemasi irlandcha atoqli ot *Houlihan* ismli kishi nomidan; juda

kichik odam; mitti ma'nosidagi *liliput* [ingl. Lilliputian] taniqli yozuvchi J.Sviftning "Gulliverning sayohatlari" asaridagi xayoliy Liliputiya mamlakatining fantastik darajadagi mitti odamlari nomidan; vatman [ingl. Whatman] qog'oz fabrikasi egasi J.Uotmen nomidan; tibbiyot sohasida ishlatilayotgan *gaymorit* [ingl. Highmore] ingliz vrachi va anatomi N.Gaymor nomidan; *lyuizit* [ingl. lewisite] amerikalik kimyogar U.Lyuis (Lewis) nomidan; *makintosh* [ingl. Mackintosh] nam o'tkazmaydigan matoni ixtiro qilgan shotland kimyogari Makintosh nomidan; sport sohasida ishlatilayotgan *regbi* [ingl. rugby] Angliyaning Regbi shaharchasi nomidan; *badminton* [ingl. Badminton] Angliyadagi Badminton shahri nomidan; *reglan* [ingl. Reglan] ingliz generali Reglan nomidan; sheviot [ingl. cheviot] Shotlandiyadagi mayin yungli qo'ylar zoti yetishtirilgan Sheviot tepaliklari (Cheviot hills) nomidan; siyosiy tushuncha ifodalovchi *boykot* [ingl. Boycott] leksemasi angliyalik katta yer egasi Ch.K.Boykot nomidan olingan bo'lib, atoqli otlarning turdosh otlarga o'tishi – ma'no kengayishi sifatida tushunish mumkin.

Umuman olganda, leksikamizda mavjud oziq-ovqat mahsulotlari nomi, ichimlik nomlari, kiyim-kechak nomlari, uy-ro'zg'or buyumlari nomi, tashkilot nomlari, o'rin-joy tushunchasini anglatuvchi nomlar, mato nomlari, transport vositalari nomi, narkotik modda nomlari, yonilg'i mahsuloti nomi, texnik jihoz nomlari ham o'zbek tili leksikasidagi ayrim mavzuviy guruhlarining bo'sh o'rinlarini to'ldirishga xizmat qilmoqda.

2. O'zlashma so'zlarning tuzilishiga ko'ra turlari va leksikografik talqini

Mustaqillikkacha bo'lgan so'z o'zlashish jarayonida ayrim leksemalarning tilimizga rus tilining fonetik, leksik, morfologik yoki sintaktik hodisalariga moslashgan holda o'zbek tili leksikasiga o'zlashganini kuzatish mumkin. *Trenirovka* leksemasi ham shu hodisa mahsuli bo'lib, ma'lum sifat-xususiyatlarga

ega bo'lish yoki ularni saqlab qolish uchun muntazam ravishda amalga oshiriladigan mashqlar, mashg'ulotlar tushunchasini ifodalaydi. Bu leksemaning asl varianti mustaqillikdan so'ng *trening* [ingl. training – o'rgatish, tarbiyalash, mashq qildirish] shaklida o'zlashtirildi.

	trenirovka	trening
1.	TRENIROVKA [r. < ingl. training] 1 Ma'lum sifat-xususiyatga ega bo'lish yoki ularni saqlab qolish uchun muntazam ravishda amalga oshiriladigan mashqlar, mashg'ulotlar. 2 Muayyan reja asosida sportchini, uning organizmini o'z kuchini maksimal namoyon qilishga, chidamlilik, tezlik, chaqqonlikka va g'alaba uchun intilishga tayyorlab borish.	TRENING [ingl. training – o'rgatish, tarbiyalash, mashq qildirish] Trenirovka tizimi, mashq, mashg'ulot rejimi
2.	Asli inglizcha bo'lib, rus tili orqali o'zlashgan	To'g'rilan to'g'ri ingliz tilidan o'zlashgan
3.	Rus tilining tabiatiga moslashib o'zlashgan	O'zbek tili tabiatiga mos
4.	Qo'llanilishi nafaol	Qo'llanilishi faol
5.	Asosan sport sohasiga xoslangan	Ko'proq o'quv, o'rin bilan boshqa sohalarda ham ishlatiladi
6.	<i>mashg'ulot, trenirovka, trening</i> ma'nodosh leksemalar	

Trening leksemasining faollashganini hozirgi paytda turli vaqtli matbuot sahifalarida ham kuzatish mumkin. Bu leksema *seminar-trening*, *o'quv-trening* leksemalari tarkibida ham uchrab turadi. Psixoterapiya sohasida *autotrening* (ichki a'zolar funksiyasi, harakat faoliyati buzilganda o'z-o'zini ishontirish va o'z-o'zini boshqarish orqali shu holatdan forig' bo'lishga olib keladigan psixoterapiya, ruhiy davolash usuli)¹ sifatida ham ishlatiladi. Shunisi, muhimki, bu leksema ingliz tilida keng ma'noda ishlatilsa-da, hozirda tilimizda ko'proq o'quv sohasiga xoslangan holda ishlatiladi.

Umuman olganda, *chempionat* [r. chempionat < ingl. championship], *trenirovka* [r. < ingl. training], *tanketka* [ingl. tankette – kichkina tank], *kovboyka* [r. < ingl. cow-boy - otliq cho'pon], *trusi* [r. trusi < ingl. trousers – shim] kabi leksemalar so'ngida *-at*, *-ka* singari elementlarning kelish hollari inglizcha leksemalarning tabiatidan yiroq hisoblanadi.

¹ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. –T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-tom. 2000. 510-bet.

Ma'lumki, rus tilida *h* fonemasi mavjud emas. Shunga muvofiq rus tili orqali o'zlashgan *xaker* [*ingl.* hacker < hack – buzmoq; kesmoq, qirqmoq], *xuligan* [*ingl.* hooligan < irlandcha atoqli ot (Houlihan) dan] va *xoll* [*ingl.* hall – zal] kabi leksemalarda ham tarkibidagi *h* fonemasi o'rniga *x* fonemasi ishlatilgan. Bu hodisani asli fransuzcha deb taxmin qilingan, rus tiliga ingliz tilidan o'zlashgan *xokkey* [*ingl.* hockey < ehtimol eski *fr.* hoquet – cho'ponlarning uchi qayrilma tayog'i] leksemasi orqali ham kuzatish mumkin.

Tilimizga *zoopark* leksemasidan tashqari inglizcha bo'lmasa-da, rus tili orqali o'zlashib kelgan so'zlar orasida *park* elementi ishtirokida hosil qilingan *avtopark*, *dendropark* kabi qo'shma so'zlar, ya'ni o'rin-joy otlarini ham kuzatish mumkin.

Ingliz tilida fe'lning gerundiy (gerund) shakli mavjud bo'lib, bu shakl fe'l asosiga *-ing* qo'shimchasi orqali hosil qilinadi va otga yaqin turadi. Shuningdek, fe'llardan shu shaklga omonim ot yasovchi qo'shimcha ham mavjud. Leksikamizdagi belting, brifing, demping, doping, reyting, xolding, trening, monitoring, karting, marketing, kreking, sheyping, konsalting, peyjing, trening kabi inglizcha o'zlashmalar borki, ularni etimologik jihatdan o'rni bilan fe'lning gerungiy (harakat nomining *-sh* shakliga to'g'ri keladigan) shakli yoki ot yasovchi qo'chimcha qo'shimcha sifatida qabul qilish mumkin.

Ingliz tilida fe'llarga qo'shilib ot yasovchi *-tion* qo'shimchali leksemalar ko'plab uchraydi. Ingliz tilidan rus tiliga bunday shaklli bir necha olinmalar o'zlashtirilayotgan tilning tabiatiga adaptatsiya qilingan holda qabul qilingan. Masalan, *vulkanizatsiya* [*ingl.* vulkanization – kauchukni rezinaga aylantirish], *innovatsiya*, [*ingl.* innovation – kiritilgan yangilik, ixtiro] *natsionalizatsiya* [*ingl.* nationalisation < lot. natio, nationis – millat, xalq], *press-konferensiya* [*ingl.* press-conference < *fr.*], *registratsiya* [*ingl.* registration < lot. registrum – qayd etilgan, yozib qo'yilgan], *eskalatsiya* [*ingl.* escalation – zina bilan yuqoriga ko'tarilish], *filtratsiya* [*ingl.* filtration < lot. filtrum – kigiz] kabi leksemalar ham o'zbek tili leksikasiga shu holatda o'zlashtirildi.

To'p bilan o'ynaladigan sport o'yinlari orasida *-bol* elementli *futbol*, *voleybol*, *basketbol*, *gandbol* kabi leksemalar mavjud. Biroq *gandbol* [ingl. hand – qo'l + ball – koptok, to'p] leksemasi nutqda qo'llanilishi jihatidan o'z qurshovi, aniqrog'i uyadoshlariga nisbatan passiv holda. Bu leksemaning dominantalik vazifasini *qo'l to'pi* shaklidagi kalkasiga o'rin bo'shatib berishi rus tilidagi so'z o'zlashtirish jarayoni bilan bog'liq holda yuz bergan.

Ma'lumki, o'zbek tilida ot so'z turkumida eng faol so'z yasovchi *-chi* qo'shimchasi hisoblanadi. Uning ingliz tilidagi muqobili *-er* shakli bo'lib, bu qolip asosida yasalgan *broyler*, *broker*, *buldozer*, *bufer*, *vaucher*, *gamburger*, *gangster*, *golkipier diler*, *dispetcher*, *doker*, *jemper*, *mikser peyjer*, *printer provayder*, *prodyuser*, *revolver*, *rekorder sviter*, *server*, *skaner*, *skver*, *skreper*, *skreper*, *snayper*, *sprinter*, *spiker*, *stayyer*, *starter*, *taymer*, *tanker*, *tender*, *tiker*, *toner*, *trauler*, *treyler*, *trener*, *triller*, *fermer*, *flomaster*, *xaker*, *charter*, shuningdek, *investor*, *monitor*, *sponsor*, *tranzistor*, *ekskavator*, *repitetor hamda importyor*, *reportyor*, *trenajyor* kabi 100 ga yaqin leksemalar tilimizga o'zlashgan.

Ma'lumki, lug'atlarga bosh so'z sifatida leksemalar kiradi. Agar u ot so'z turkumiga mansub bo'lsa, lug'atda bosh kelishik va sonning birlik shakllari bilan shakllanadi. Ayrim lug'atdagi leksemalar borki, ular lug'at tuzish qoidasiga istisno tarzda kiritilgan. Masalan, *menejerlar* [ingl. manager – boshqaruvchi] leksemasi shu ko'rinishda bo'lib, korxona va kompaniya egalari bo'lmagan, maxsus tayyorgarlik ko'rgan malakali yollanma boshqaruvchilar ma'nosini ifodalaydi. Shuningdek, *antifrizlar* [anti.. + ingl. freeze -muzlatish] leksemasi ham shu shaklda bo'lib, texnika sohasida past temperaturada ishlovchi ichdan yonuv dvigateli va boshqa turli qurilmalarni sovitish uchun ishlatiladigan, ancha past temperaturada (-75° gacha) muzlamaydigan suyuqliklar ma'nosini ifodalaydi. Bular qatoriga tred-yunionlar, fosfatlar kabi leksemalarini ham kiritish mumkin. Bu leksemalar o'zbek tilida faol leksema sifatida o'rinlashgan bo'lib, menejer, *antifriz*, tred-yunion, *fosfat* ko'rinishdagi birlik shaklda lug'atlardan joy olishi kerak. Menejer va ish boshqaruvchi leksemalari o'zaro sinonim hisoblanadi.

Yogurt [ingl. yoghurt < turk. yogurt, t.-tat. – qatiq] leksemasi asl turkiy leksema bo‘lib, jem, meva konservasi, shokolod, kakao va boshqa qo‘shimcha (to‘ldirgich)lar aralashtirilgan, qaymoqli kremga o‘xshash sut-qatiq mahsuloti (oddiy ivitilgan qatiq, kefir va boshqalar) ma’nosida ishlatiladi. Bu ham *utyuk* leksemasi kabi o‘z shaklini o‘zga til xususiyatlariga mos ravishda o‘zgartirib qaytgan leksema sifatida o‘zlashma sifatida baholanadi.

O‘zlashmalarda yangilik bo‘yog‘i bo‘lganligi bois ularni manbalarda turlicha yozish holatlari ham kuzatilmoqda. Hatto O‘zbek tilining izohli lug‘atida ham *noutbuk//notbuk*, *yogurt//yo‘g‘urt*, *pleyer//pleyyer*, *bluming//blyuming*, *kanistr//kanistra* kabi ayrim leksemalar imlosi ikki xil shaklga ega bo‘lib qolgan. Bu kabi so‘zlar o‘z qatlam leksikasida ham ko‘plab topiladiki, ularning imlosini imkon qadar ikki xil bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim deb o‘ylaymiz.

O‘zbek tilining izohli lug‘ati tarkibida *vord* elementi mavjud ikkita inglizcha o‘zlashma leksema keltirilgan. *Krossvord* [ingl. crossword < cross – kesishma + word – so‘z] publitsistik uslubning eng faol leksemalaridan biri bo‘lib, gazetachilikda kataklarni harflar bilan to‘ldirib, shu kataklarga yashirilgan, izlanayotgan so‘zni topish o‘yini, boshqotirma ma’nosida kelsa, *chaynvord* [ingl. chain – zanjir, halqa + word – so‘z] ham shu uslubda zanjir shaklida ketma-ket joylashgan kataklarni harflar bilan to‘ldirishdan iborat boshqotirma turi sifatida ishlatiladi.

Esish harakatini ifodalovchi so‘zlar sirasi uchun *shamol* yetakchi, uyushtiruvchi so‘z hisoblanadi. O‘zbek tilida yel-yog‘in otlarini maxsus tadqiq qilgan A.Aliqulov «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da esish harakatini ifodalovchi 34 ta so‘z mavjudligini aniqlagan. Ulardan 21 tasi (bod, bodi sabo, bo‘ron, garmsar, garmsel, girdibod, dovul, yel, yelvizak, izg‘irin, izg‘iriq, musson, nasim, sabo, samum, tayfun, to‘fon, shabada, shabboda, quyun, g‘urg‘urak) ning leksikografik talqinida *shamol* so‘zidan sema ifodalovchisi sifatida foydalanilgan¹.

¹ Aliqulov A. O‘zbek tilida yel-yog‘in lug‘aviy-ma’noviy guruhi (tizimi, nutqiy voqelanishi va leksikografik talqini): Filol. fanlari nomzodi dis... -Toshkent, 2011. 19-bet.

Bu uyadoshlar qatoriga kiruvchi *tayfun* [ingl. typhoon < xit. taifung (tay fsh) – kuchli shamol yoki *arabcha to'fon* – toshqin; suvning ko'tarilishi] *geografik atama sifatida* shiddatli, nihoyatda kuchli shamolli tropik siklonlarning mahalliy nomi sifatida ishlatiladi.

Provayder [ingl. provider – ta'minlovchi, yetkazib beruvchi] leksemasi bugungi kun axborot texnologiyalari fani sohasi va publitsistik uslubda faol qo'llanyapti. Uning lug'atdagi ma'nosi o'z mijozlariga internet tarmog'idan foydalanish bo'yicha turli xizmatlar ko'rsatuvchi firma, vositachi tashkilot sifatida qayd etilgan.

Shou [ingl. show – ko'rsatish, tomosha; ko'rsatmoq, namoyish qilmoq] leksemasi ommaviy tomoshabinlar va tinglovchilarga mo'ljallangan dabdabali, televizion yoki konsert estrada tomoshasi ma'nosiga ega. Tarkibida shou elementi mavjud: shou tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq ishbilarmonlik faoliyati, shou tashkil etish yo'li bilan daromad topish ma'nosidagi *shou-biznes* [ingl. show-business], suhbat, ashula asosida tashkil etiladigan ko'ngilochar ko'rsatuv ma'nosidagi *tok-shou* [ingl. talk-show] leksemalari juft holatda shakllanib o'zlashgan, o'zlashish tarixi uzoq bo'lmagan leksemalardir.

Rekordsmen, sportsmen, biznesmen, yaxtsmen, barmen leksemalari inglizcha qo'shma yasama so'z bo'lib, shaxs oti yasash qolipi hosilalaridir. *Rekordsmen* [ingl. recordsmen – rekordchi, rekordga erishgan kishi] hozirda ishlatilishi passivlashgan leksema bo'lib, uning sinonimi bo'lgan *rekordchi* leksemasining qo'llanilishi unga nisbatan faollashgan. Tilimizda kalka usulida hosil qilingan *rekordsmen – rekordchi, sportsmen – sportchi, biznesmen – bizneschi, barmen – bar egasi, yaxtsmen – yaxtada yelkanli sport bilan shug'ullanuvchi* kabi juftliklar mavjud.

Sport o'yinlarida to'p (shayba)ning maydonni chegaralovchi chiziq (devor)dan tashqariga chiqishi yoki hakamning bokschi nokautda ekanini e'lon

qilishi ma'nosini ifodalovchi *aut* [ingl. out – tashqarida, narida] leksemasi mavjud. Leksikamizdagi inglizcha o'zlashmalar orasida *aut* elementli leksemalar o'ziga xos. Etimologik jihatdan ikkinchi qismida bu element qatnashgan leksemalarni kuzatamiz. Masalan, sport o'yinlari qoidalariga ko'ra, jamoa, uning ustozlari yoki ayrim o'yinchining iltimosi bilan ruxsat etiladigan qisqa muddatli tanaffus ma'nosidagi *taym-aut* [ingl. time out – muayyan vaqtdan tashqari(da)]; sportning boks turida ishlatiladigan *nokaut* [ingl. knock-out < knock – urmoq; zarba + out – chetda, tashqarida; chetlatish]; birinchi qismida bu element qatnashgan: musobaqada oxirgi o'rinlardan birini egallab turgan sportchi yoki jamoa tushunchasini ifodalovchi *autsayder* [ingl. outsider – chet, begona; tashqarida qolgan]; sport o'yinlari qoidalariga ko'ra, jamoa, uning ustozlari yoki ayrim o'yinchining iltimosi bilan ruxsat etiladigan qisqa muddatli tanaffus ma'nosidagi *taym-aut* [ingl. time out – muayyan vaqtdan tashqari(da)] kabilar shular jumlasidandir. Leksikamizdagi *aut* elementli inglizcha o'zlashmalar, asosan, sport sohasiga tegishli bo'lib, korxonani yopib qo'yish va ishchilarni yoppasiga ishdan bo'shatish, ishchilarni o'z talablaridan voz kechishga majbur qilish va shu yo'l bilan ish tashlashning oldini olish yoki bostirish usullaridan biri ma'nosidagi siyosiy tushuncha ifodalovchi *lokaut* [ingl. lock-out – eshikni yopmoq] kabi leksemalar ham uchrab turadi.

Tilning jamiyat bilan hamnafas yuradigan, undagi o'zgarishlarni o'zida aks ettirishni talab qiladigan muhim bo'limi ham leksika hisoblanadi. Leksika tildagi o'zgarishlarni o'zidan boshqa doiralarga qaraganda kengroq aks ettiradi.

Mustaqillikdan so'ng ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalarda o'zgarishlar katta bo'ldi. Tilimizga boshqa tillardan leksema o'zlashish ham to'g'ridan to'g'ri amalga oshirildi. Bu holat tilimiz lug'at boyligiga sezilarli va ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ekzotik leksika [yun. exotikos – yot, kelgandi] o'zga tillardan o'zlashgan, nutqqa alohida bir o'ziga xoslik berish uchun qo'llanadigan so'z va iboralardir¹.

¹ Hojiyev A. O'zbek tilshunosligi atamalarining izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 2001 89-bet.

Ayrim ilmiy manbalarda o'z davrida *fermer, biznes, biznesmen, dollar* kabi leksemalar ekzotizm sifatida sanab o'tilgan. Bular hozirgi kunda zamonaviy qatlam guruhiga kiruvchi birliklardir.

O'zbek tilining izohli lug'atida *ekzotika* [yun. exotikos – begona, o'zga yerli] maqolasida bir mamlakatga xos bo'lib, uzoqdagi boshqa mamlakat xalqiga qiziq, g'alati, g'ayrioddiy bo'lib ko'rinadigan narsalar, urf-odatlar (*Ekzotika bilan milliy ruhni saqlash orasida katta farq bor*. SH.Shomuhamedov, Badiiy tarjima va adabiy tanqidchilik) ko'rinishida izoh berilgan¹.

Har bir millatning o'ziga xos madaniyati, urf-odatlari, tarixi ko'p asrlik vaqt davomida shakllanib boradi. Ekzotik leksika bo'lishi uchun shunday o'ziga xos urf-odat nomlarining boshqa tillarga tarjima qilinmasdan o'zgarishsiz olinishi talab qilinadi. Bunday leksemalarga faqat izoh beriladi.

So'z o'zlashish jarayoni murakkab jarayon bo'lib, o'zlashma so'z o'zlashayotgan tilning fonetik hodisalariga muvofiq holda moslashadi. Masalan, *xokkey* inglizcha (*ingl. hockey < ehtimol eski fr. hoquet – cho'ponlarning uchi qayrilma tayog'i; darvozali muz maydoni yoki maysa ustida klyushka va to'p (shayba) bilan komanda bo'lib o'ynaladigan sport o'yini*²) so'z bo'lib, o'zbek tiliga rus tili ta'sirida o'zlashgandir. Rus tilining fonetik tarkibida o'zbek tiliga xos bo'lgan *o', q, g', h* tovushlarining mavjud emasligi sababli *hokkey* ko'rinishida emas, *xokkey* shaklida rus tili fonetik hodisalariga mos ravishda tilimizga o'zlashdi. Bu kabi so'zlarni misol tariqasida davom ettirish mumkin.

Kompozitsiya usuli. So'zning ikkala qismi ham inglizcha so'zdan tashkil topadi. Masalan, *supermarket*, video-salon (*video saloon*) – film tomosha qilishga mo'ljallangan xona, internetkafe, tokshou (*talk-show*) – suhbat asosida olib boriladigan ko'ngilochar tadbir, shou-biznes, shuningdek, shu asosda o'zbekcha so'z yasaliishidagi Ozodshou – shu nom egasi ishtirokidagi ko'ngilochar tadbir kabi misollarni keltirish mumkin.

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. –T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2008. 5-jild, 21-bet.

² O'zbek tilining izohli lug'ati. –T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2008. 4-jild, 405-bet.

Soʻz oʻzlashtirishdagi eng faol ishtirokchilar sport mashgʻulotlarini sevuvchilar orasida topiladi. Masalan, *vindsurfing, armrestling, fristayl, skeytbord, kikboksing*.

Ommaviy kompyuterlashish jarayoni asosida avval mutaxassislar orasida, soʻng esa kompyuterdan foydalanuvchilar orasida bir qancha kompyuter texnikasiga oid soʻzlar oʻzlashdi: *kompyuter, fayl, printer, skaner, noutbuk, brauzer, sayt* va boshqalar.

Oʻzlashma soʻz faol boʻlsa, oʻz atrofiga bir necha yangi tushuncha ifodalovchi soʻzlarning olib kirilishiga ham sabab boʻladi: *prezentatsiya, nominatsiya, videofayl, videorolik, videoklip, videokasseta, videosalon, triller, xit, diskoteka, disk-jokey*.

Ayrim oʻzlashma soʻzlar jozibadorligi, taʼsiriyl-tasviriylilik va eshitilishi jihatidan ham oʻzlashayotgan til leksikasiga muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, *eksklyuziv – nodir, favqulodda, oʻziga xos; top-model – ajoyib model; imij – qiyofa, koʻrinish* kabi.

Tilimizga oʻzlashgan soʻzlarni aniqlash masalasiga kelsak, ming yillardan buyon xalqimiz tilida isteʼmolda boʻlib kelayotgan forscha-arabcha soʻzlarni oʻz qatlam soʻzlaridan farqlash murakkab masala boʻlib, professor E.Begmatov taʼbiri bilan aytganda bu soʻzlar endilikda oʻzbek tiliga oʻzlashtirilgan, koʻp davrdan beri bu tilda isteʼmolda boʻlgan, oʻzbek tilining qonuniy boyligiga aylangan leksikadir. Zeroki hozirgi kunda keng isteʼmolda boʻlgan *non, goʻsht, daraxt* kabi forscha soʻzlar, *ilm, maktab, qalam* kabi arabcha soʻzlarni bir qarashda turli soha egalari ham oʻzlashma qatlam soʻzlari sifatida ajratishi mushkul. Shunga koʻra oʻzbek tili leksiksidagi oʻzlashma soʻzlarni taʼlim jarayonida farqlanishi oson va farqlanishi murakkab boʻlgan oʻzlashma soʻzlar sifatida oʻrgatish mumkin boʻladi. Buning uchun arabcha soʻzlarni aniqlash yoʻllari, forscha soʻzlarning oʻziga xos xususiyatlari va inglizcha soʻzlarning farqlash usullarini nazariy jihatdan ishlab chiqish zarur.

Eski nashrdagi “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”dagi koʻpgina soʻzlar yangi izohni talab etganidek, yangi nashrdagi “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”dagi ayrim

soʻzlar ham qayta izohni talab etadi. Bunga misol sifatida *kompyuter* leksemasining izohli lugʻatdagi maʼnosiga eʼtibor qaratamiz: “Murakkab qurilmaga ega boʻlgan elektron hisoblash mashinasi”¹. Bu sodda taʼrif zamonaviy kompyuter soʻziga nisbatan ancha notoʻliq boʻlib, “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi”²da berilgan izoh uni toʻldiradi, deyish mumkin. Qisqacha qilib aytganda, “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da *kompyuter* soʻziga beriladigan izoh “Murakkab qurilmaga ega boʻlgan elektron hisoblash mashinasi” koʻrinishida emas, balki, “Matn va turli tasvir koʻrinishidagi axborotlarni monitorda aks ettira oladigan, boshqarish, protsessor, xotira va kiritish-chiqarish qurilmalaridan iborat, oldindan berilgan dastur boʻyicha ishlaydigan avtomatik qurilma” sifatida kengroq izohlanishi mumkin boʻladi.

Fan-texnikaning jadal rivojlanishi hamda internet va interanet tizimi asosida turli tilda soʻzlashuvchi kishilarning fikr almashinishi natijasida XX asrning 90- yillaridan soʻng dunyo miqyosida globallashtgan zamonaviy texnologiyalarga oid soʻz va atamalarning baynalmillashishi kuchaydi. Shuningdek, bu holat jamiyatning siyosiy, maʼnaviy, madaniy, iqtisodiy sohalaridagi oʻzgarishlar bilan bogʻliq.

Bu davrda yangi soʻzlarning oʻzlashishida, avvalo, siyosiy sohaga oid boʻlgan *prezident, spiker, parlamayet* kabi soʻzlarning kirib kelishi kuchaydi, ayrimlarida ishlatishi faollashdi. Shuningdek, *kompyuter, displey, fayl, monitoring, yuzer, pleyyer, peydjer* kabi fan-texnika sohasiga oid soʻzlar, iqtisod, savdo-sotiq bilan bogʻliq *auditor, barter, broker kabi soʻzlar, madaniy sohaga oid xit, shou, nominatsiya, xit-parad* kabi soʻzlar, maishiy sohalarda esa *feyshn, gamburger, xot-dog* kabi soʻzlar oʻrinlashdi. Bu kabi oʻzlashma soʻzlar haqida bugungi kun matbuotida jamoatchilik va mutaxassislarning turli xil fikr-mulohazalari bildirilmoqda. Koʻpchilik 40-50 yoshdagi kishilarning fikrlari hozirgi yoshlar nutqidan qoniqish hosil qilmayotgani va yangi oʻzlashayotgan soʻzlarga nisbatan salbiyroq ekani maʼlum boʻlmoqda.

¹ Oʻzbek tilining izohli lugʻati. –T., Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. 2006. 2-jild, 397-bet.

² Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi. –T., Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. 2002. 4-tom, 687-bet.

Yoshlar nutqi kuzatiladigan bo'lsa, 14-17 yosh orasidagi o'spirinlar nutqida ayrim o'ziga xosliklarni kuzatish mumkin. Xususan, bu holat akademik litsey va kasb-hunar kolleji talabaligi davriga to'g'ri keladi. Bu davrda yoshlar o'zlarining fikr-mulohazalarini yoshi kattalarning fikrlari bilan muqoyasa eta boshlaydilar, kezi kelsa, ular bilan mubohasaga kirishadilar. Shuningdek, kompyuterda o'tirib, internet orqali dunyo yangiliklari bilan tanishib borishadi. Xorijiy tillarni puxta o'zlashtirib borayotgan yoshlar o'zlarining qiziqishlariga oid rus, ingliz va boshqa xorijiy tillardagi ma'lumotlarni ham ko'zdan kechirishadi. Ayniqsa, xorijiy tillardagi kinolarni tomosha qilish va musiqalarni tinglash orqali ingliz va boshqa chet tillarga oid so'zlar yoshlar nutqiga tez o'zlashmoqda.

Bu yoshdagi kishilardan "Nega o'z nutqingizda inglizcha so'zlarni ko'proq qo'llaysiz?" degan savol berilganda quyidagicha javoblar olindi.

1. Bu so'zlarni qo'llash yoshlar orasida moda tusiga kirgan (rasm bo'lyapti).
2. Bu so'zlar boshqalaridan farq qilmaydi.
3. Bu so'zlar yordamida his qilgan narsangni ta'siriy bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlar asosida bera olish imkoniyati bor (Masalan, imijingizni o'zgartiribsizmi?)
4. Bir so'zda barchasini aytish mumkin.
5. Gap nima haqida ketayotganini atrofdagilar (yoshlar) tushunmasa, inglizcha so'zlar yordamida bir-biriga ma'lumot almashinishi mumkin.
6. Bizning doiramizda shunisi yoqimli.
7. Inglizcha so'zlar odatdagicha eshitilmaydi, ular ta'sirli tuyuladi.

Yoshlar nutqi haqida fikr yuritganda ularning qiziqishlari alohida kasb etadi. Zeroiki futbol sport turi bilan qiziqayotgan yoshlar davlatlar, ularning poytaxti, joylashish o'rni, mashhur shaharlari, davlat rahbarlari va taniqli kishilari, san'ati va madaniyati asosida dunyo xaritasini o'rganib *golkipер*, *taym-aut*, *yaxtsmen*, *futbol* kabi sport atamalarini ham o'rganib olishadi. Bu esa ularda xorijiy tillarni o'rganishga qiziqish uyg'otishi bilan birga nutq boyligining oshishi, nutqda

sinonim soʻzlarni oʻz oʻrnida qoʻllay bilish, nutqiy rang-baranglik, notiqlik kabi xislatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Oʻzlashma soʻzlar haqida munosabat bildirilar ekan, XX asrning oxirgi oʻn yillidan to hozirgacha davom etib kelayotgan tillararo baynalmilal soʻzlarning almashinish holatini *xalqaro kommunikatsiya jarayonida universal birlik* deb talqin etish mumkin.

BOB BOʻYICHA XULOSA

Tilimizga oʻzlashgan inglizcha soʻzlarni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-maʼrifiy va sport sohasi mavzuviy guruhlariga ajratib oʻrganish mumkin. Sport sohasi mavzuviy guruhiga oid inglizcha oʻzlashmalar mustaqillikdan soʻng shu qadar koʻp oʻzlashdiki, ularni madaniy-maʼrifiy soha soʻzlaridan ajratib, sistemali tarzda oʻrganish qulay va oʻrinlidir. Hozirgi paytda bu soʻzlarning koʻpchiligi zamonaviy qatlam soʻzlari sifatida ogʻzaki va yozma nutqda faol ishlatilmoqda. Inglizcha oʻzlashmalarni quyidagi mavzuviy guruhlar asosida tasniflab oʻrganish mumkin:

1. ijtimoiy-siyosiy sohaga oid mavzuviy guruh leksikasi;
2. iqtisodiy sohaga oid mavzuviy guruh leksikasi;
3. madaniy-maʼrifiy sohaga oid mavzuviy guruh leksikasi;
4. sport sohasiga oid mavzuviy guruh leksikasi.

Leksemalarning mavzuviy guruhlarini turlicha tasniflar asosida oʻrganish mumkin. Masalan, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, sport mavzusidagi va ularning ichki boʻlinishidagi fan, sanʼat, dengizchilik, temir yoʻl, qishloq xoʻjaligi, hunarmandchilik qurilish, savdo-sotiq, tibbiyot, matbaachilik, axborot texnologiyalari, telegraf, harbiy, maishiy mavzularga oid leksemalar oʻziga xos tizimga ega.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari nomi, ichimlik nomlari, kiyim-kechak nomlari, uy-ro'zg'or buyumlari nomi, tashkilot nomlari, o'rin-joy tushunchasini anglatuvchi nomlar, mato nomlari, transport vositalari nomi, narkotik modda nomlari, yonilg'i mahsuloti nomi, texnik jihoz nomlari ham o'zbek tili leksikasidagi ayrim mavzuviy guruhlarining bo'sh o'rinlarini to'ldirishga xizmat qilmoqda.

Inglizcha o'zlashma leksemalar orasida fan sohasi va ilmiy terminlarning alohida o'z o'rnini bor. Xususan, pedagogika, psixologiya, etnografiya, fizika, jurnalistika, tarix, adabiyot, musiqa, tilshunoslik, biologiya, botanika, fiziologiya, diyetologiya, geografiya, kimyo, zoologiya, chizmachilikka oid birliklar ham ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Inglizcha o'zlashma leksemalar orasida maishiy, savdo-sotiq borasidagilari ham o'ziga xos bo'lib, *supermarket* leksemasi hozirda neologizmlik xususiyatni yo'qotib, zamonaviy qatlamga o'tgan deyish mumkin. Savdo maskani uyasiga kiruvchi *do'kon*, *minimarket*, *supermarket*, *gipermarket*, *megamarket*, *savdo majmuasi* (*Moll ingl. "mall" – xiyobon*) leksemalari mavjud bo'lib, *gipermarket* leksemasi neologizm xarakteriga ega. Ularning uyadoshi bo'lgan *megamarket*, *moll* leksemalari esa ayrim tillarga neologizmlar sifatida o'zlashmoqda.

Bu leksemalar o'ziga xos ma'naviy farqlanishga ega bo'lib, bu farqlanish qaysi turdagi savdo mahsulotlarini sotish, umumiy yer maydoni, omborxonasi maydoni, bir vaqtning o'zida qancha xaridorni qabul qila olishi, xizmat ko'rsata olishi, kassa apparatlari soni, sotuvchilar miqdori, kerakli mahsulotlarni qancha miqdorda yetkazib bera olish qobiliyati kabilar bilan ham farqlanadi. Ularning o'zaro farqini quyida kuzatishimiz mumkin.

O'zbek tili leksikasidan o'rin olgan inglizcha o'zlashma so'zlar semantikasidagi o'zgarishlar sezilarli darajada bo'lib, ular polisemantik xususiyatga ega bo'lishdan tashqari, so'z ma'nosining kengayishi, o'zbekcha so'z yasallishida faol qatnashishi kabi til hodisalari jarayonida yetakchi mavqe egallaydi.

Ma'lumki, o'zbek tiliga ingliz tilidan o'zlashgan leksemalar orasida etimologik jihatdan *-er*, *-ing*, *-ment*, *-(t)siya* [-tion] shaklli; *-men*, *-taym*, *-shou*, (*shou-*), *ball*, *-aut* qismli o'zlashmalar ko'proq ko'zga tashlanadi.

XULOSA

O'zbek tili leksikasiga o'zlashishi sezilarli darajada ta'sir qilgan 20 dan ortiq til o'zlashmalari mavjud. Shuningdek, tilimizda faol bo'lmasa-da, yana bir qator tillarning o'zlashmalari ham uchrab turadi. Mustaqillikdan so'ng o'zlashma so'zlar orasida inglizcha o'zlashmalarning miqdori va ma'no taraqqitoti o'ziga xos.

Istiqlolgacha bo'lgan davrda o'zlashgan ayrim leksemalar rus tilining tabiatiga moslashgan holda tilimizga o'zlashgan. Masalan, *chempionat, trenirovka, tanketka, kovboyka, trusi* kabi leksemalar so'ngida *-at, -ka* singari elementlarning kelish hollari inglizcha leksemalarning tabiatidan yiroq hisoblanadi. Shuningdek, bu kabi hodisani *xaker, xuligan* va *xoll* kabi leksemalarda *h* fonemasi o'rniga *x* fonemasi ishlatilganidan ham sezish mumkin.

Eski nashrdagi "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga 80 ga yaqin inglizcha o'zlashma so'z kiritilgan bo'lsa, yangi nashrdagi "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga 500 dan ortiq inglizcha o'zlashma so'z izohlangan. Shuningdek, "O'zbek tiliga o'zlashgan inglizcha so'zlarning izohli lug'ati"da 350 dan ortiq so'z, bundan tashqari, vaqtli matbuotda qo'llanayotgan neologizmlar, "Inglizcha-o'zbekcha-ruscha axborot texnologiyalari va internetga oid qisqacha atamalar lug'ati" kabi inglizcha o'zlashmalar hisobiga mingdan ortiq leksema tilimizga o'zlashganini aniq aytish mumkin.

Kundalik so'zlashuvda ishlatilayotgan va qo'llanilishi faol bo'lgan ayrim leksemalarning "O'zbek tilining izohli lug'ati" dan joy olmaganini kuzatish mumkin. Masalan, *imij, koka-kola, minimarket, gipermarket, sensor chizburger, xot-dog, chipsi, netbuk, blutus, flesh xotira, vay-fay, planshet, intranet* kabi ko'plab leksemalar ham izohli lug'atimizdan joy olishi zarur.

Inglizcha o'zlashmalarni leksikamizga o'zlashishini mustaqillikkacha va mustaqillikdan keyingi davrlarga bo'lib o'rganish mumkin. Ayrim *fermer, biznes, bodibilding, gamburger, broyler* kabi leksemalar mustaqillikkacha passiv holatda ishlatilib, mustaqillikdan keyingi davrlarda faollashgan bo'lsa, ayrimlari *brifeng, konsalting, trening, kemping, sheyping* kabi leksemalar mustaqillikdan so'ng o'zlashgan leksemalardir.

Tilning leksik tarkibi jamiyatning siyosiy, madaniy va ma'naviy hayoti bilan bog'liq ravishda takomillashib boradi. Lug'atlar ham jamiyatdagi siyosiy-ma'naviy qarashlarga mos holda yaratiladi. Eski va yangi nashrdagi "O'zbek tilining izohli lug'ati" dagi *biznes, fermer, savdogar* leksemalariga berilgan izohlar qiyoslanganda yangi nashrdagi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da bu birliklarning tuzumga nisbatan xolisona va yangicha ifoda olgani ma'lum bo'ladi.

Tilimizga o'zlashgan inglizcha so'zlarni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy va sport sohasi mavzuviy guruhlariga ajratib o'rganish mumkin. Sport sohasi mavzuviy guruhiga oid inglizcha o'zlashmalar mustaqillikdan so'ng shu qadar ko'p o'zlashdiki, ularni madaniy-ma'rifiy soha so'zlaridan ajratib, sistemali tarzda o'rganish qulay va o'rinlidir.

Inglizcha o'zlashma leksemalar o'z qurshovidagi so'zlar bilan sinonimik, antonimik, omonimik va giponimik munosabatlarga kirishadi.

Savdo maskanlari nomi ostida birlashuvchi *do'kon, minimarket, supermarket, gipermarket, savdo majmuasi* leksemalari leksik-semantik xususiyatiga ko'ra o'zaro graduonimik (darajalanish) munosabatni tashkil etadi.

O'zbek tili leksikasidan o'rin olgan inglizcha o'zlashma so'zlar semantikasidagi o'zgarishlar sezilarli darajada bo'lib, ular polisemantik xususiyatga ega bo'lishdan tashqari, so'z ma'nosining kengayishi, o'zbekcha so'z yasashida faol qatnashishi kabi til hodisalari jarayonida yetakchi mavqe egallaydi.

Ma'lumki, o'zbek tiliga ingliz tilidan o'zlashgan leksemalar orasida etimologik jihatdan *-er, -ing, -ment, -(t)siya* shaklli; *-men, -taym, -shou, (shou-), ball, -aut* qismli o'zlashmalar ko'proq ko'zga tashlanadi.

O'zlashmalarda yangilik bo'yog'i bo'lganligi bois ularni manbalarda turlicha yozish holatlari ham kuzatilmoqda. Hatto O'zbek tilining izohli lug'atida ham *noutbuk//notbuk, yogurt//yo'g'urt, player//player, bluming//blyuming, kanistr//kanistra* kabi ayrim leksemalar imlosi ikki xil shaklga ega bo'lib qolgan. Bu kabi so'zlar o'z qatlam leksikasida ham ko'plab topiladiki, ularning imlosini imkon qadar ikki xil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik lozim deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2012.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 2012-yil 24-iyuldagi PF-4456-sonli Farmoni.

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: O'zbekiston, 1997.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008. V. –83
3. Karimov. I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. "Fidokor" gazetasi muxbiri savollariga javoblar – T.: O'zbekiston, 2000.

IV. Asosiy adabiyotlar

1. Abdiyev M.B. Sohaviy leksikaning sistem tahlili (Samarqand viloyati kasb-hunarlari materiallari asosida): filol. fan. dokt.... dis. avtoref. – T., 2005.
2. Aliqulov A. O'zbek tilida "yel-yog'in" lug'aviy-ma'noviy guruhi: filol. fanlari nomz... diss. – Toshkent, 2011.
3. Bobojonov Sh. Semema, uning nutqiy voqelanishi va izohli lug'atdagi talqini: filol. fan. nomz...dis. avtoref. – Samarqand, 2004.

4. Bozorov O. O'zbek tilida darajalanish: filol. fan. dokt.... dis. -T., 1997.
5. Jamolxonov N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -T.: O'qituvchi, 2005. 196-bet.
6. Hojiyev A. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasashining nazariy masalalari. – T.: Fan, 2009.
7. Hakimova M. O'zbek tilida vaqt ma'noli lug'aviy birliklar va ularning matn shakllantirish imkoniyatlari: filol. fan. nomz....dis. avtoref. -T., 2004.
8. Hamrayeva Y. O'zbek tilining o'quv ideografik lug'atini yaratish tamoyillari: filol. fan. nomz....diss. avtoref. – T., 2010.
9. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. -T.: O'qituvchi, 1985.
10. Iskandarova Sh. O'zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o'rganish (shaxs mikromaydoni): filol. fan. dokt. ... dis. – T., 1999.
11. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. Nabiyeva D. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. – T.: Tasvir, 2009.
12. Mengliyev B. Lisoniy sistema yaxlitligi va unda sathlararo munosabatlar: filol. fan. dokt. ... dis. – T., 2002.
13. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Qarshi: Nasaf, 2005.
14. Mirtojiyev M. O'zbek tilida polisemiya. – T.: Fan, 1975.
15. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. – T.: O'qituvchi, 1989.
16. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. -T.: O'qituvchi, 1995.
17. Rasulov R. O'zbek tilida holat fe'llari va ularning obligator valentliklari. – T.: Fan, 1989.
18. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1978.
19. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. – T.: Universitet, 2000.

20. Rahmonov T.P. Hozirgi o'zbek tilidagi arabcha o'zlashma so'zlar semantik tuzilishidagi o'zgarishlar. filol. fan. nomz.... dis. avtoref. -Toshkent, 1994. 24 bet.
21. Safarov F. O'zbek tilida son-miqdor mikromaydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyati: filol. fan. nomz.... dis. avtoref. – T., 2004.
22. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiya, 2009.
23. Sobirov A. O'zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. – T.: Ma'naviyat, 2004.
24. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: O'qituvchi, 1975.
25. Yunusova Z. O'zbek tilida lug'aviy mikrosistemaning tarkibi va rivojlanishi: filol. fan. nomz...dis. – T., 2004.
26. Zamonaviy o'zbek tili: Morfologiya. Mualliflar jamoasi. – T.: Mumtoz so'z; 2008.
27. O'zbek tili leksikologiyasi. Darslik. A. Hojiyev, A. Ahmedov. – T.: Fan, 1981.
28. O'zbek tilining izohli lug'ati. – M.: Русский язык, 1981. 1-tom 632 bet;
29. O'zbek tilining izohli lug'ati. – M.: Русский язык, 1981. – 2-tom – 717 bet.
30. O'zbek tilining izohli lug'ati. I jild, – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi; 2006.
31. O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild, – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi; 2006.
32. O'zbek tilining izohli lug'ati. III jild, – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi; 2007.
33. O'zbek tilining izohli lug'ati. IV jild, – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi; 2008.

34. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. V jild, – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi; 2008.
35. Qilichev B. O‘zbek tilida partonimiya: filol. fan. nomz... dis. avtoref. – T., 1997.
36. Qo‘chqortoyev I. So‘z ma‘nosi va uning valentligi. – T.: Fan, 1977.

V. Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. – М., 1959.
2. Баранов О.С. Идеографический словарь русского языка. – М.: Прометей, 1990.
3. Begmatov E.A. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. –T.: Fan, 1985.
4. Даль В.И. Иллюстрированный толковый словарь русского языка. Современная версия. – М.: Эксмо; Форум, 2007.
5. Ибрагимов С. Профессиональная лексика узбекского языка: Автореф. дис. ... докт. филол. наук. – Т., 1961.
6. Madrahimov I. O‘zbek tilida so‘zning serqirraligi va uni tasniflash asoslari: filol. fan. nomz. ... dis. avtoref. – T., 1994.
7. Ne‘matova G. O‘zbek tilida o‘simlik nomlari leksemalari: sistemasi va badiiy qo‘llanishi: filol. fan. nomz.... dis. avtoref. – T., 1998.
8. Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. – Т.: Фан, 1989.
9. Orifjonova Sh. O‘zbek tilida lug‘aviy graduonimiya: filol. fan. nomz....dis. avtoref. – T., 1996.
10. Roget P.M. Thesaurus of English words and word combinations. – L., 1970.
11. Тихонов А.Н., Хатамов Н.Т. Русско-узбекский словарь. – Т.: Ўқитувчи, 1979.

12. Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. – T.: Fan, 1990.

VI. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar

1. Aliqulov A. Yel-yog‘in otlarida darajalanish // O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 2005. - № 3.

2. Aliqulov T. O‘zbek leksikografiyasi 70 yil ichida // O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 1987. -№ 5.

3. Aminova N. Ingliz va o‘zbek tillaridagi diplomatiyaga oid leksikaning o‘ziga xos xususiyatlari // Til va adabiyot ta’limi. –T., 2007. № 3.

4. Begmatov E., Ne‘matov H., Rasulov R. Leksik mikrosistema va uning tadqiq metodikasi (Sistem leksikologiya tezlari) // O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 1989. -№ 6.

5. Hojiyev A. Mustaqillik sharoitida o‘zbek tili lug‘at tarkibining rivojlanish asoslari // O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 1994. -№ 1.

6. Hojiyev A. Yasama so‘z lisoniy birlikmi yoki nutqiymi? // O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 2004. -№ 1.

7. Islomov I. Relyefonimlar tizimida ma’noviy munosabatlarning voqelanishi // Ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. -2008. -№ 4.

8. Islomov I. O‘zbek tili relyefonimlarini tadqiq qilish vazifalari haqida // Nasaf ziyosi. Ilmiy-ma’rifiy jurnal. – Qarshi, 2005. -№ 2.

9. Mahmudov N. O‘zbek tilida o‘zlashma so‘zlar: me’yor va milliylik // O‘zbek tili va adabiyoti. 2010. -№ 6.

10. Ne‘matov H. So‘z, uning til va nutqdagi o‘rni // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1988. -№ 6.

11. Rahmatullayev Sh. Semema – mustaqil til birligi // O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 1984. -№ 5.

12. Qo‘chqortoyev I. So‘zlarning leksik-semantik to‘dalari haqida // ToshDU ilmiy asarlari. 359-chiqishi. – T., 1969.

13. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I qism. - T.: O'qituvchi, 1980. - 447 b.

VII. Internet saytlari

<http://www.gldv.org/cms/gldv.php>

<http://lexikon.anaman.de/lexikon.htm>